O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARI VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
FARG‘ONA FILIALI
IQTISODIYOT VA KASB TA’LIMI KAFEDRASI

QODIROV XASANBOY ORIBJONOVISH

BO`LAJAK AXBOROT KOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDAGI MUTAXASISLARDA KASBIY-IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

MONOGRAFIYA

Farg‘ona – 2024

UDK: 004.42:37.013
KBK: 65.290-2+32.81
Q 53

Qodirov, X.O. Bo‘lajak axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi mutaxassislarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish [Matn] / X.O. Qodirov; muharrir S.I. Zokirov. - Farg’ona: Fer-Teach, 2024. – 161 b.

Ushbu monografiyada talabalarning yetakchilik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonining asosiy jihatlari hamda bu borada ta’lim muassasalarining roli muhokama qilinadi. Talabalik muhiti kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi, chunki talabalar akademik loyihalardan tortib, ijtimoiy va sport tadbirlarigacha bo‘lgan turli tadbirlarda ishtirok etadilar. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, turli guruhlar bilan muloqot qilish va muammolarni jamoa sifatida hal qilish muloqot va kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradi. Bu jarayonda kasbiy-ijodiy kampetensiyaga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari asosiy o‘rin tutadi. Muayyan kasbiy-ijodiy kurslari, treninglar va amaliyotlarni o‘quv rejasiga integratsiya qilish talabalarga kerakli vositalar va bilimlarni taqdim etishi mumkin. Tajribali rahbarlar yoshlarni qo‘llab-quvvatlashi va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan murabbiylik dasturlariga talabalarni jalb etish ham muhim jihatdir.

Monografiya bo‘lajak axborot komunikatsiya texnologiyalar sohasi yo`nalishidagi professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchi va magistrantlar uchun mo‘ljallangan.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali *Ilmiy Kengashining 2024-yil 4-sonli qarori bilan nashr etishga tavsiya etildi.*

Mas’ul muharrir: - Pedagogika fanlari doktori, proffesor, O‘zbekistonda xizmat ko`rsatgan madaniyat xodimi T. A. Egamberdieva

Taqrizchilar:

I.O‘.Bilolov – Muxammad Al -Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar unversiseti farg‘ona filiali; P. f. n. professor v.b.
N.Sh.Erkaboyeva – Qo`qon davlat pedagogika insituti: P. f. d. professor

© X.O.Qodirov, 2024
© Fer-Teach, 2024

ISBN: 978-9910-8886-7-0

KIRISH

Jahon oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning kreativ mexanizmlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishga, aniq yo‘nalishdagi kasbiy ma’lumotlarni o‘rgatishga bo‘lgan ehtiyojni yanada kuchaytirdi. Bu borada oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’lim jarayonini modellashtirish, elektron-axborot ta’lim resurslarini yaratish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, talabalarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish, talabalarning “tyutor-talaba’’ tashkiliy-metodik yordam tizimini joriy etish, mustaqil ta’lim olish faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish, ta’lim jarayonini mediatexnologiyalar asosida tashkil etish, kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan kasbiy muammolar, ilmiy farazlarni tekshirish, kasbiy muammolarni aniqlash, mustaqil fikrlash ta’lim strategiyalarini belgilash, kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish, differensial yondashuvni tashkil qilish, talabalar jamoasida hamkorlikni shakllantirishning korperativ, o‘quv-munozarali va mediatsiya (holis xizmat muhiti ustuvor) ta’limini shakllantirish, e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o‘qitishni tashkil qilish va korporativ ma’lumotlar bazasini rivojlantirish zaruriyatini izohlaydi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalari talabalarining kreativ salohiyatini oshirish, kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish, mustaqil fikrlash kompetensiyalarni shakllantirish, o‘quv reja, dastur va adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirishning me’yoriy-huquqiy asoslari yaratildi, ta’lim tizimini moddiy-texnik bazasi rivojlantirildi. “Oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan,

mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual salohiyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish” kabi vazifalar belgilangan. Bunda talabalarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda kognitiv-informasion, shaxsiy, madaniyat, kompetensiyaviy paradigmalardan foydalanish, o‘qitish sifati samaradorligi diagnostikasini amalga oshirish, tanqidiy fikrlash va rivojlantiruvchi ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish, zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda oliy ta’lim va ishlab chiqarishdagi sinergetik integratsiyani amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8 oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 - yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20 apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 13 sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini shop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimsha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu monografya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Axborot kommunikatsiya soxasidagi mutaxasis muhandis dasturchilar va kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish muammolari Sh.S.Abduraimov, R.A.Abduxairov, O.X.Avazboyev, R.H.Djurayev, R.G.Isyanov, N.A.Muslimov,

D.N.Mamatov, P.T.Magzumov, N.Sayidahmedov, O‘.Q.Tolipov, U.Nishonaliyev, A.R.Xodjaboyev, S.Sh.Sharipov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova, N.Sh.Shodiyev, R.K.Choriyevlarning tadqiqotlarida yoritilgan.

MDH mamlakatlarida ilmiy izlanish jarayonida pedagog mahoratini shakllantirish borasidagi konsepsiyalar P.R.Atutov, E.A.Grishin, Yu.K.Vasilyev, V.A.Kruteskiy, N.V.Kuzmina, L.M.Mitina, V.A.Slastenin, A.I.SHyerbakova, shaxsning shakllanishi va uning mohiyatini yorituvchi psixologik nazariyalar A.Abulxanova-Slavskaya, A.A.Leontyev, A.N.Leontyev, V.S.Merlin, S.L.Rubinshteyn, pedagogning kasbiy madaniyatini shakllantirishning nazariy g‘oyalari V.S.Bibler, L.P.Buyeva, N.D.Nikandrov, V.A.Kan Kalik, G.V.Platonov, o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini rivojlantirish S.Ya.Batishev, V.S.Bezrukova, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, A.K.Markovaning tadqiqot ishlarida mohiyati va mazmuni o‘rganilgan.

Yevropa mamlakatlarida S.Rogers, H.J.Freiberg, T.Barrett, R.Donnelly, Afzal Sadat Hosseinia, Norman Jaskson, Martina Blaskova, Mark MsMahon, Andrew Ewing, Robyn Philip B.A., Ed.Graddiplar tomonidan shaxsning ijodkorligi bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tashkil etish, muammoning mavjud holatini o‘rganish;

oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlarini aniqlash;

oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning akmeologik modelini takomillashtirish;

talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mezonlarini kasbiy bilimlarni o‘qitishning variativ va invariativ didaktik funksiyalari asosida rivojlantirish.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mazmuni, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotda adekvat holatda o‘rganishni ta’minlashga qaratilgan

metodlar majmui qo‘llandi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish), diagnostik (so‘rovlar, test o‘tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma’lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.).

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi (tayyorgarlik, maslahat, yakuniy) kasbiy omillar (ijtimoiy, madaniy, motivasion) va kasbiy-ijodiy kompetensiyalar integratsiyasi asosida takomillashtirilgan;

oliy ta’lim muassasasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning akmeologik mezonlari (kasbiy motivatsiya, shaxsiy-kasbiy sifatlar, o‘zini o‘zi boshqarish, refleksivlik, kreativlik) kasbiy kompetensiyani shakllantirish strategiyalari (muammoli, interfaol, ijodiy, imitasion, amaliy, refleksiv) kreativ yo‘l xaritasiga prakseologik (amaliy, ratsional, samarador) uzviyligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mezonlari (reproduktiv, produktiv, kreativ)ni kasbiy bilimlarni o‘qitishning variativ va invariativ didaktik funksiyalari “Assesment” texnologiyasi bo‘yicha ijodiy layoqatini ifodalash asosida takomillashtirilgan;

talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari rivojlanish motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar va o‘zlashtirish darajasi ko‘rsatkichlarini pedagogik diagnostika qilish usullari (spesifik tahlil, intensiv trening, muammoli vaziyat, nostandart test) bilan uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan.

Oliy ta’lim muassasasi talabasini kasbiy rivojlantirishning tashkiliy-metodik va texnologik shart-sharoitlari aniqlangan;

talabalarning kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirib borishi, boshqarish, nazorat qilish va baholash, mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirishning muhim omili sifatidagi maqsadi, tamoyillari, mazmuni, metodi va vositalari aniqlangan. “Pedagogika. Psixalogiya” nomli o‘quv qo‘llanma nashr etilgan.

Bilish nazariyasi metodologiyasi hamda pedagogik ta’lim sohasidagi respublika va xorijiy davlatlar olimlari, shuningdek, amaliyotchilarning ishlariga asoslanilgani; tadqiqot vazifalariga mos keladigan, o‘zaro bir-birini to‘ldiradigan tadqiqot metodlarining qo‘llanilgani; tajriba-sinov ishlarining tahlili va tadqiqot natijalarining miqdor va sifat jihatidan ta’minlanilgani, xulosa va takliflarning amaliyotga tatbiq qilingani, olingan natijalarning vakolatli organlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta’lim muassasasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish, kreativ potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar va darajalari, kasbiy ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘llari, bosqichlari o‘rganilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati oliy ta’lim muassasalarida darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda, ishlab chiqilgan oliy ta’lim muassasasi talabasi kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning texnologiyasi bosqichlari, akmeologik modelidan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

I BOB. TEXNIKA YO`NALISHIDAGI OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIDA KASBIY-IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

§ 1.1.Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida

Asrlar va sivilizatsiyalarning to‘qnashuvida insoniyat hayotining barcha sohalari yangi bosqichga kirib borishga tayyorlanib bormoqda. Biz hozirgi vaqtdagi oliy pedagogik ta’lim tizimida talabalarni kasbiy tayyorlash sohasidagi o‘zgarishlarning zarurati to‘g‘risida ta’kidlaymiz. Mazkur tayyorlovdagi asosiy masalalardan biri talabaning pedagogik madaniyati, uning pedagogik texnologiyalarni egallaganligi darajasi to‘g‘risidagi masalalar bo‘lib, ularni hal etish kasbiy-pedagogik kompetensiyalarni, talaba shaxsining ijodiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishga bog‘liqdir.

Mamlakatimizning yuridik asosiy hujjatlaridan yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni, “Oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim” to‘g‘risidagi qonuni, “Asosiy umumiy ta’limning davlat ta’lim standartlari”, shuningdek, Prezident farmonlari qonunchilik bazasini ta’lim tizimining amal qilishi uchun tayyorlaydi. Mazkur hujjatlarning mohiyati davlat ta’lim tizimining rivojlanish strategiyasini belgilashdan iboratdir. O‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash sohasidagi davlat asosiy hujjatlaridan foydalanishning maqsadi qonunda belgilangan talablarga muvofiq ravishda oliy ta’lim muassasasidagi o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunida asosiy prinsiplar va qonun-qoidalar belgilangan bo‘lib, ularning asosida O‘zbekiston ta’limining rivojlanishi qonuniy mustahkamlangan g‘oyalarini amalga oshirishning strategiya va taktikasi quriladi.

Mazkur qoidalar bir vaqtda jamiyatga, ta’lim tizimining o‘ziga va shaxsga qaratilgan va ta’lim tizimi rivojlanishining “tashqi” ijtimoiy-pedagogik sharoitlarini hamda uning hayot faoliyatining “ichki”

pedagogik sharoitlarini ta’minlaydi. Ularga quyidagilar taalluqli: ta’limning insonparvarlik xarakteri, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, shaxsning erkin rivojlanishi; ta’limning umumfoydalanilishi, ochiqligi, ta’lim iste’molchisini har tomonlama himoyalash.

Kasbiy kompetensiyalar muammosi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari dunyo miqyosida juda ham ko‘p o‘tkazilgandir. “Kompetensiyalar” tushunchasini alohida mualliflar (V.A.Kruteskiy, Ye.G.Balbasova, S.L.Rubinshteyn va boshqalar) barcha faoliyat turlarini muvaffaqiyatli bajarishga imkon beruvchi, o‘quv-tarbiya jarayoni bilan bog‘liq shaxsning individual psixik xususiyatlari sifatida ta’riflaydilar.

V.N.Myasiщyev, K.K.Platonovlarning ishlarida o‘zgacha nuqtai nazar keltirilgan bo‘lib, ularda kompetensiyalarni “shaxs sifatlari” belgisi orqali ta’riflaydilar, komponentli tarkibi ro‘yxatiga ega bo‘lgan dunyoqarashga oid, axloqiy va motivasion shaxs sifatlarini ham kiritadilar.

Bizning tadqiqot ishimizda birinchi va ikkinchi nuqtai nazarlar umumlashtirilgan bo‘lib, bu bizga kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni quyidagi tarzda aniqlash imkonini berdi: texnologik oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy-ijodiy kompetensiyalari deganda kasbiy-ijodiy faoliyatning muayyan ko‘rinishi talablariga ularning mosligi darajasini tavsiflovchi va uning samaradorligi darajasiga bog‘liq bo‘lgan, dolzarb nazariy ishlanmalarni hamda innovatsion amaliy yechimlarni maqsadga muvofiq va izchil o‘zlashtirishga imkon beradigan, pedagogik faoliyatning tanlangan sohasida o‘zining noan’anaviy yo‘nalishini izlashga undaydigan shaxs sifatlari va xususiyatlarining majmui tushuniladi.

Turli adabiyotlarda ko‘pincha uchraydigan, amaliy pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan, maxsus kasbiy kompetensiyalar tushunarli “pedagogik kompetensiyalar” atamasi bilan ifodalanib, ular ostida “bolalar bilan ishlashga layoqatlilik, bolalarga mehr-muhabbat, ular bilan muloqotdan zavqlanishda ifodalanuvchi shaxs sifatlari” tushunilib, biz tomonimizdan kiritilgan kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tushunchasiga nisbatan ancha tordir, bu o‘z isbotini topdi.

O‘rganilayotgan tadqiqot bo‘yicha ko‘pgina ilmiy ishlarda biz

tadqiqotchilarning turli xil kasbiy-pedagogik hamda ijodiy kompetensiyalarni tasniflashtirishga intilishlariga duch kelamiz. Individullik hamda ijodkorlikning psixologik asoslari yoritilgan.

Qobiliyat – 1. Biror ishga qobillik, yaroqlilik, biror ishni bajara, qila olish xususiyati, layoqati.2. Iste’dod, talant.

Qobiliyat – mayl, qiziqish, moyillik, sodiqlik, tarafdorlik, layoqat, qobillik, qodirlik. 1. Bilim, ko‘nikma, malakalardan farqli o‘laroq, shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ish uddalay olishidagi subyektiv shart-sharoitlarni ifodalovchi individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari. 2. Iste’dod, talant.

Kasbiy – kasb-hunarga oid.

Ijodiy – 1. Ijod yaratuvchisi bilan bog‘liq bo‘lgan. 2. Umuman muayyan sohada ish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi.

Sh.U.Qosimov tomonidan kasbiy tushuncha muayyan kasbiy obyekt, hodisa yoki jarayonlar xususiyatlarining umumiy va muhim belgilarini yaxlit holda ifodalashini ta’kidlagan. Shuningdek, kasbiy tushunchalarni umumiy kasbiy, xususiy kasbiy, aniq kasbiy va mavhum kasbiyga ajratgan. Umumiy kasbiy tushunchalar bir xil nom bilan ataladigan turdosh kasbiy obyektlar, hodisalar va jarayonlar majmuini o‘z ichiga oladi. Ular ba’zan “kasbiy terminlar” deb ham yuritiladi. Xususiy kasbiy tushunchalar faqat bitta kasbiy obyekt, hodisa yoki jarayonga tegishli bo‘ladi va faqat uning o‘ziga xos ekanligini ifodalaydi. Xususiy kasbiy tushunchalar boshqa joyda takrorlanmaydi va bunday tushunchalarning har biri undan ajratib bo‘lmaydigan muayyan nomga ega bo‘ladi. Aniq kasbiy tushunchalar aniq kasbiy ob’yektlar yoki hodisalarni aks ettiradi. Mavhum kasbiy tushunchalar esa fikrlash orqali kasbiy obyektlar yoki hodisalarning belgilari va xususiyatlarini ifodalaydi.

Kasbga qiziqish, undan manfaat topish insonning o‘ziga, qolaversa ota-onasi, jamiyatga kerakligini anglash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bular esa yoshlar oldiga ko‘plab vazifalarni qo‘yadi:

o‘zi uchun foydali bo‘lgan kasbni to‘g‘ri tanlay olish;

bu kasbni yaxshi egallash va o‘z kasbining ustasi bo‘lib yetishish;

kasbiga doir ko‘plab bilimlarni egallash;

kasbiga ijodiy yondasha olish;

mehnatsevar, o‘z ishini tashkil qila oluvchi, kasbiga xos axloqni egallash;

o‘zining shogirdlarini yaratishga intilish;

jamiyatga va ota-onasiga yaxshi nomlar bilan maqtov olib kelish;

kelajakda nafaqaga chiqishga ehtiyojlar paydo bo‘lganda o‘zining ishini davom ettiruvchi shogirdlarni yaratish va o‘z maktabini qoldirish;

kasbini o‘ziga xizmat qiluvchi va kelajagini ta’minlovchi hunar sifatida shakllantirish.

Bu kabi vazifalar kasb-hunarni egallab borayotgan va yangi bir ko‘rinishga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashda eng muhim jarayonlar hisoblanadi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik asosan to‘rtta komponenti bilan tavsiflanadi:

- shaxsga, insonga yo‘nalganlik;
- pedagogik voqelikni izchil idrok etishi;
- fan sohasiga yo‘nalganlik;
- pedagogik texnologiyalarni egallash.

Kasb tanlash **(**kasbga yaroqlilik**)** - kasbiy ishning butun tizimida yakunlovchi bosqichdir**.** Ayni shu bosqichda xodimning tanlagan kasbga uzil-kesil muvofiqligi yoki nomuvofiqligi aniqlanadi. Lekin kasb tanlash (kasbga yaroqlilik) metodlaridan kasbga yo‘naltirishning faqat yakunlovchi bosqichida foydalanish mumkin**,** deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘lur edi**.** U yoki bu kasbning egallagani holda dastlabki tibbiy-fiziologik va psixologik ko‘rikdan o‘tmagan yigit yoxud qizga tanlagan kasbi zid bo‘lishi ham mumkin. Shu boisdan, kasb tanlash boshlang‘ich bosqichda ham**,** shuningdek yakunlovchi bosqichda ham o‘tkazilishi lozim.

Kasbga yaroqlilik – mazkur kishining ushbu kasb bo‘yicha mehnat vazifalarini bajarishi uchun yaroqli yoki yaroqsizligini qayot qilishdangina

iborat emas, albatta kasbga yaroqlilikni boshqa jihatdan ham:

odam o‘zi tanlagan kasbga yaroqlimi yoki yo‘qligi;

hayot yo‘lini tanlagan chog‘da u nimalarga amal qilishi lozimligi;

uni o‘qitish masalasiga qanday qilib bir muncha oqilona yondashish, ya’ni unda kasbga yaroqlilikni qanday qilib g‘oyat maqsadga muvofiq tarzda shakllantirish**,** tarbiyalash va rivojlantirish mumkinligi jihatidan ham ko‘rib chiqish kerak.

Mutaxassis sifatida kamol topish uchun qator masalalarga e’tibor qaratish zarur:

- kasbni ongli ravishda tanlash;
- kasb egallash uchun aniq maqsad qo‘yish;
- kasb to‘g‘risidagi tassavvurlarning real hayotdan uzoq emasligi;
- egallanadigan kasbning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda amaliy faoliyatda duch kelinadigan qiyinchiliklar haqida tassavvur qila bilish;
- kasbiy motivlarni chet olimlar ta’sirida emas, shaxs ehtiyojidan kelib chiqqan holda shakllantirish;
- kasbning ijtimoiy nufuzi va qadr-qimmatini yaxshi bilish;
- mutaxassis sifatida kamol topish uzoq vaqtni talab etishini anglash va b.q.

N.A.Muslimov, K.M.Abdullayeva, O.A.Kuysinov, N.S.Gaipova, N.N.Karimova, M.Kodirovlar tomonidan kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi o‘rganilgan bo‘lsa, A.I.Avazboyev esa o‘quv predmetlari mazmunini integratsiyalash asosida mehnat va kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish masalalari bilan shug‘ulanilgan.

B.A.Akbarovning tadqiqotida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida kasbiy tafakkurni shakllantirishning pedagogik tizimini tahlil qilingan.

A.J.Allambergenov tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarida kasbiy-texnologik kompetentlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha tadqiqot ishlari olib borilgan.

Haqiqatda ham, bunday yondashuv – aniq va tushunarli modelni qurish – ularni shakllantirish bo‘yicha ratsional metodik usullarni topish imkonini beradi va bu ayniqsa, jamiyat ta’lim oluvchilarni nafaqat sinf-dars tizimi orqali xabardor qilishga, balki ta’lim oluvchilardagi tabiatan

mavjud kompetensiyalar va iqtidorlarni shakllantirish hamda rivojlantirishga imkon beruvchi yangi maktabga, ya’ni ham o‘rta, ham oliy maktabga ehtiyojni e’lon qilgan hozirgi davrimizda dolzarb hisoblanadi. Shuning uchun ham biz amaliyotchilar tomonidan to‘plangan tajribadan foydalanib, kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tuzilmasini hosil qiluvchi quyidagi bloklarni ajratish mumkin deb hisobladik:

Birinchi blok – tashkiliy kompetensiyalar. O‘qituvchining ta’lim oluvchilarni birlashtirish, ularni mashg‘ul qilish, majburiyatlarni taqsimlash, ishni rejalashtirish, amalga oshirilganlarga yakun yasash kabi ko‘nikmalarida ifodalanadi.

Ikkinchi blok – didaktik kompetensiyalar. O‘quv materialini, ko‘rgazmali materiallar, jihozlarni tanlash va tayyorlash, o‘quv materialini tushunarli, aniq, ifodali, ishonchli va izchil bayon etish, bilishga oid qiziqishlar va ma’naviy ehtiyojlarning rivojlanishini rag‘batlantirish, o‘quv-bilishga oid faollikni oshirish aniq ko‘nikmalarida ifodalanadi.

Uchinchi blok – perseptiv kompetensiyalar, ta’lim oluvchilarning ma’naviy olamlariga kirib borish, ularning emotsional holatlarini obyektiv baholash, psixikalarining xususiyatlarini aniqlash ko‘nikmasida ifodalanadi.

To‘rtinchi blok – kommunikativ kompetensiyalar. Ular o‘qituvchining ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblar, ta’lim muassasasi rahbarlari bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni o‘rnatish ko‘nikmalarida ifodalanadi.

Beshinchi blok – suggestiv kompetensiyalar. Ularning mohiyati ta’lim oluvchilarga emotsional-irodaviy ta’sir etishdan iboratdir.

Oltinchi blok – tadqiqotshilik kompetensiyalari , pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni bilish va obyektiv baholash ko‘nikmasida namoyon bo‘ladi.

Yettinchi blok – ilmiy-bilishga oid kompetensiyalar, tanlangan sohadagi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish san’atidan tashkil topadi.

Sakkizinchi blok – ijodiy kompetensiyalar, ularning mohiyati yuzaga kelgan muammoning o‘z noan’anaviy yechimini ko‘ra olish

koʻnikmasidan iborat.

V.I.Andreyevning tadqiqotlari koʻrsatishicha, sakkizinchi blokdagi kompetensiyalar oʻz ichiga quyidagi komponentlarni kiritadi:

- motivatsion-ijodiy faollik,
- intellektual-mantiqiy va intellektual-everistik kompetensiyalar,
- oʻz-oʻzini boshqarish kompetensiyalari ,

kommunikativ-ijodiy kompetensiyalar va ijodiy faoliyatning tegishli koʻrinishining mahsuldorlik darajasi bilan bogʻliq boʻlgan shaxsning dunyoqarashga oid, axloqiy, estetik sifatlari va xususiyatlari.

Yuqorida keltirilgan kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tuzilmasining sakkizinchi blogi ijodiy holatga kirib borish san’atini egallash jarayonini mahoratli tashkil etish bilan bogʻliq boʻlib, uni oʻz navbatida uchta bosqichlardan tashkil topgan sifatida tasavvur qilish mumkin:

birinchi bosqich – ijodiy holatga kirib borish koʻnikmasi tasodifiy sodir boʻlishi mumkin (u umuman yuzaga kelmasligi ham mumkin);

ikkinchi bosqich – ongli ravishda, ma’lum darajada sun’iy qoʻzgʻatiladi;

uchinchi bosqich – ijodiy holat improvizatsiya sifatida, ong osti, oson amalga oshiriladigan harakat sifatidagi koʻrinishga ega boʻladi. Mazkur jarayonning texnologiyasini ochib berish – insoniyatni ongli, har bir alohida individ amalga oshirishi mumkin boʻlgan ijodiy jarayonni tashkil etish kaliti bilan qurollantirishni anglatadi.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarning rivojlanishi ularning namoyon boʻlishi belgilarining shunchaki miqdori oʻsishini emas, balki ularning rivojlanishining bir darajasidan boshqasiga, yanada mukammal boʻlganiga oʻtishini aks ettiradi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi (tayyorgarlik, maslahat, yakuniy) kasbiy omillar (ijtimoiy, madaniy, motivastion) va kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni tizimlashtirish asosida takomillashtirish imkonini berdi.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tizimi

№	Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi	Kasbiy omillar	Kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tizimi	Kasbiy-ijodiy kompetensiyalar mazmuni
1.	Tayyorgarlik	Ijtimoiy	Muloqot qilish (kommunikativ) qobiliyati	Talabaning o‘qituvchilar va kursdoshlari bilan auditoriya va auditoriyadan tashqari jarayon-larda guruhda ijobiy ruhiy iqlim yaratadi
			Shaxsning ichki qobiliyati	o‘z-o‘zini bilish, tushunish va his qilish amalga oshiriladi
2.	maslahat	madaniy	Kinestetik (teri-muskul) qobiliyat	talabaning o‘z xatti-harakat-larini muvofiqlashtiradi,ohangini his qilib yo‘naltiradi, vaqtni, harakat sur’atini his qiladi
			Mantiqiy qobiliyat	mulohaza yurita oladi, raqamlarni, murakkab vaziyatlarni yecha oladi, sababiyat va natijalarni tushunadi, voqelikda asosiyni ikkinchi darajalisidan ajrata oladi
3.	yakuniy	motivasion	Mahsuldor ijodkorlik	belgilangan har qanday kasbiy muammo muvaffaqiyatli hal qilinadi
			Evristik ijodkorlik	jamiyatda ro‘y berayotgan kasbiy faoliyatga oid yangiliklarni dadil o‘zlashtirish va targ‘ib qilishni anglatadi, izchil amalga oshirish va bunda yangi holatda dadil harakat qilish qobiliyati, fikrlash jarayoni asosida tafakkurni rivojlantirish kuzatiladi
			Kreativ ijodkorlik	ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan yangi nazariyalarni yaratadi, o‘z fikrlari va takliflari bilan chiqadi

Shu tariqa, yaxlit jarayon, tizim sifatida kasbiy-ijodiy

kompetensiyalarni rivojlantirishning tuzilmaviy sxemasi quyidagi ko‘rsatkichlarni o‘rganish orqali tavsiflanadi:

kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlari, ular ijtimoiy va shaxsiy-ahamiyatli maqsadlar bilan tartibga solinadi va ma’naviy-axloqiy, kasbiy, mehnat, estetik va h.k. yo‘nalganlikka ega bo‘ladi.

kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni mazmuni, u kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlariga erishishga olib keladigan xulq va faoliyatni ko‘zda tutib, bu ko‘p jihatdan shaxsning psixik sifatlariga – uning intellekti, emotsional, amaliy-irodaviy sohalariga bog‘liq bo‘ladi.

kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini amalga oshirish vositalari kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish obyektiga ta’sir etish usullari sifatida maqsad va natijalarga bog‘liq bo‘lib, bunda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy vositasi – insonning haqiqiy mazmunli faoliyatidir.

kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish natijalari – shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi ta’sirlar davomida shaxsda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar.

Pedagogik g‘oyalarning xorijiy va milliy yetakchi vakillarining bildirgan fikrlarini inobatga olib, bizning tajriba-sinov ishlarimizda shaxs sifatlarining uch guruhini ajratish muhim deb hisobladik va ularning rivojlanish darajasi kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadi: *ijtimoiy va umumshaxsiy sifatlar* (ma’naviylik, axloqiylik, pedagogik yo‘nalganlik, estetik sifatlar); *kasbiy-pedagogik sifatlar* (mutaxassislik bo‘yicha nazariy va umummetodik tayyorlanganlik, kasbiy faoliyatga psixologik-pedagogik (nazariy) tayyorlanganlik, amaliy pedagogik ko‘nikma va kompetensiyalarning rivojlanganligi); *individual sifatlar* (bilish jarayonlarining xususiyatlari va ularning pedagogik yo‘nalganligi-kuzatuvchanlik, pedagogik tafakkur, xotira va h.k., ya’ni emotsional hozirjavoblik, irodaviy sifatlar, temperament xususiyatlari, salomatlik holati).

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining

barqarorligi talabaning yoshi, ma’lumotlilik darajasi, shaxsining individual xususiyatlari va oliy ta’lim muassasasining tarbiyaviy ishlarining xususiyatlariga, o‘z tarbiyaviy ta’sirlarini talabalarning bundagi faolliklari bilan qanday umumlashtira olishiga bog‘liqdir.

Ideal holatda S.B.Yelkanov tomonidan taklif etilgan, talabaning o‘zini takomillashtirishga mobilizatsiyasi tizimini ishlab chiqish zarur bo‘lib, unda talaba quyidagilarni amalga oshirishi mumkin bo‘lar edi:

1) o‘zida o‘z-o‘zini kuzatish va o‘z-o‘zini bilish malakalarini ishlab chiqadi;

2) o‘z shaxsidagi o‘zgarishlarni loyihalashga o‘rganadi;

3) ongli ravishda o‘ziga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishi, o‘z xulqini, o‘zida kerakli sifatlarni rivojlantirishni boshqarishi;

4) avtogen mashqni egallashi va o‘zining jismoniy hamda ruhiy holatini boshqarishga o‘rganadi.

Kasb ta’limi yo‘nalishi talabalarining kasbiy-pedagogik madaniyatini rivojlantirish va kasbiy metodik tayyorlashni takomillashtirish bo‘yicha tadqiqot ishlari mavjud. Shuningdek, mazkur yo‘nalish bo‘yicha o‘quv adabiyotlari nashr etilib, amaliyotga tatbiq etilgan. Bizning tadqiqot ishimizda biz bu tizim oliy ta’lim muassasasi tomonidan tashkil etiladigan o‘quv-tarbiya jarayoni bilan o‘zaro bog‘liqligiga amin bo‘ldik, bu shaxsning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlarini ajratishga imkon beradi:

II kurslar – moslashish davri va psixologik-pedagogik fanlarni o‘zlashtirish bosqichi;

III, IV kurslar – ularda talabalarning kompetensiyalari tuzilmasidagi ko‘pgina yangi hosilalar talabalarning haqiqiy pedagogik voqelik bilan duch kelishlariga, ya’ni yozgi lagerlar va maktab bazasida o‘tadigan pedagogik amaliyotga asoslanadi.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish nafaqat maxsus sifatlar, ko‘nikmalar, bilimlarning qo‘zg‘atilishi va rivojlanishiga asoslanishini anglatadi. U ko‘pgina boshqa mazkur kasbga xos bo‘lmagan, ammo kasbiy ahamiyatli shaxs sifatlarini takomillashtirishni ko‘zda tutadi (ma’naviy-axloqiy, psixik jarayonlar xususiyatlari – emotsionallik, tasavvurning jonliligi) va agar talaba o‘z ustida ishlay

olishining muayyan tajribasini egallaganida samaraliroq kechadi. Afsuski, bunday talaba kamchilikdir. Aynan shuning uchun oliy ta’lim muassasasi pedagoglari birinchi kursdan bitiruvchi kursga qadar kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish va boshqarish muammosiga alohida e’tibor qaratishlari kerak.

Bunda biz va biz bilan hamkorlik qiluvchi o‘qituvchilar tomonidan talabalar kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish ehtiyojining yuzaga kelishining eng umumiy va birinchi sharti – bu “Men – talabaman, meni o‘qitishsin va tarbiyalashsin” vaziyatidan “Men – bo‘lajak o‘qituvchi va men o‘zimni ushbu yuqori lavozimga tayyorlayman” vaziyatiga o‘tishidir.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalar rivojlanganligi darajasining holatini tekshirish, ko‘pgina talabalarda ta’lim oluvchi vaziyatidan bo‘lajak mutaxassis vaziyatiga o‘tish sezilarli ortda qolish bilan sodir bo‘lishini ko‘rsatadi. Uchinchi ba’zan esa to‘rtinchi bosqichga qadar ular “o‘qish uchun”, imtihonlar topshirish uchun o‘qiydilar va o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadida o‘zining turli-tuman faoliyat imkoniyatlarini anglamaydilar hamda ulardan faol foydalanmaydilar.

I.A.Zimnyayaning ishlarida keltirilgan aniq-sotsiologik tadqiqotlarning ma’lumotlari bo‘yicha faqatgina 37,5 foiz talabalar yaxshi o‘qishga intiladilar, bunda ulardan 67,2 foizida ta’lim olish yaxshi kechmaydi, 53,6 foizi ular doim harakat qilmaydilar deb hisoblaydilar, 8 foizi esa umuman yaxshi o‘qishga intilmasliklarini bildirdilar. Bunday holat bizni oliy ta’lim muassasasining pedagogik jamoasi tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish va boshqarish muammosining muhimligini yana bir bor ko‘rsatishga undaydi.

Tadqiqot ishimizda biz kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining dinamikasini ifodalovchi bosqichlar quyidagicha ekanligiga ishonch hosil qildik:

1) o‘qituvchi vaziyatida tasdiqlanish bosqichi;

2) bo‘lajak o‘qituvchi-tarbiyachi shaxsidagi o‘zgarishlarni dasturlashtirish bosqichi;

3) o‘zgarish bo‘yicha haqiqiy xatti-harakatlar bosqichi

(amaliyotda, haqiqiy xatoliklarda shakllantiriladi);

4) nutq va tasavvur bosqichi (“agar... bo‘lsa”);

5) mashq qilish bosqichi (ko‘nikmalar, hatti-harakatlar, odatlar, shaxs sifatlarining hosil bo‘lishi).

Shaxs rivojlanishida biologik yoki ijtimoiy omillar ustunlik qilishi to‘g‘risidagi munozaralar allaqachonlardan beri davom etmoqda, ammo shaxsni biologik hamda ijtimoiy omillarning umumiyligida ta’riflaydigan psixofiziologik tadqiqotlarning natijalarini e’tiborga olib, shaxsning shakllanishining asosi uning layoqatlarini eng boshidan belgilab beradigan insonning biologik tabiati hisoblanishini inkor etish qiyindir.

Oliy nerv faoliyati va temperament xususiyatlari shaxsning individual betakrorligining tabiiy asosini hosil qiladi. O‘qituvchi uchun o‘zining tabiiy moyilliklari va xususiyatlarini boshqarish, ularni ijtimoiy xulq me’yorlariga, o‘z kasbining ehtiyojlariga moslashtirish qanchalik muhim ekanligini tasavvur qilish qiyin emasdir.

Oliy nerv faoliyati va temperamentning ustun xususiyatlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lish uchun talaba ularni aniqlash usullarini egallashi kerak bo‘lib, ular orasida maxsus apparat vositalaridan foydanish imkoniyati bilan laboratoriya metodlari, o‘z-o‘zini kuzatish metodlari mavjud.

Nerv jarayonlarining kuchini S.B.Yelkanov tomonidan taklif etilgan metodikani qo‘llash orqali baholash, shu bilan sinaluvchining oliy nerv faoliyatining turi (kuchli yoki kuchsiz) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni olish mumkin. Nerv jarayonlarining kuchi miya nerv hujayralarining ishlash qobiliyati, ularning yuklamalarga bardoshliligiga bog‘liqdir.

Shuning uchun mazkur ko‘rsatkich to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘z ish uslubini o‘zining imkoniyatlariga ko‘ra ongli shakllantirish, o‘zining amaliy faoliyatini optimal qurishga imkon beradi. Bunda tadqiqot ishimizning tajriba-sinov ishlari davomida aniqlangan birinchi (tabiiy qo‘zg‘atuvchilarga javoban hosil bo‘ladigan reflekslar) va ikkinchi (ikkinchi turdagi signal so‘zlar, belgilar kiritiladi) signal tizimlari o‘rtasidagi muvofiqlik bilan mos ravishdagi insonlarning turlarining

(I.P.Pavlov bo‘yicha) – bu badiiy tur (“tomoshabinlar”), fikrlovchilar turi (“tinglovchilar”), o‘rta turi (avvalgi ikki turning aralashmasi) o‘ynaydigan muhim rollarini ta’kidlash o‘rinlidir.

Ushbu tadqiqot ishimizda biz kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda nerv jarayonlarining muvozanatliligi, harakatchanligini aniqlash metodikalari qiziqish tug‘dirishi, ularni inobatga olib shaxsning yana bir psixojismoniy tavsifi - temperamentini aniqlash mumkinligiga amin bo‘ldik.

Ilmiy dalillarning nazariy tahlili, ularni umumlashtirish va tizimlashtirish, shuningdek, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy pedagogik tayyorgarligini ta’minlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etuvchi mezon, yo‘nalish va psixologik-pedagogik sharoitlarni aniqlash imkonini beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishga qo‘yilayotgan talablarning kasb-hunar ta’lim muassasalari hamda jamiyat ehtiyojlari bilan o‘zaro muvofiqligi;
- kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning ta’lim hamda ijtimoiy-madaniy muhitga bog‘liqligi;
- kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning yuqori darajadagi refleksiv boshqaruvlaridan iborat.

O‘.Q.Tolipov bo‘lajak mehnat ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishida ular tomonidan quyidagi kasbiy-pedagogik malakalarning o‘zlashtirilishi muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etib o‘tadi:

1. Talabalar shaxsini shakllantirish malakalari.
2. Talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatini shakllantirish malakalari.
3. Shaxsning kasbiy yo‘nalganligini shakllantirish malakalari.
4. Ta’limning shakl va metodlarini tanlash malakalari.
5. Pedagog-rejissiorlik malakalari.
6. Turli nostandart pedagogik holatlarni tahlil qilish malakalari.
7. Ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish malakalari.

Shu tariqa, izdoshlar tomonidan to‘plangan tajribalarga va pedagogik g‘oyalarning milliy va xorijiy vakillari tomonidan ifodalangan qonuniyatlarga tayangan holda amalga oshirilgan bizning

tajriba-sinov ishimiz davomida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tizimlashtirish va tasniflashtirishga bo‘ysunishi, bosqichlarga ajratilishi mumkinligi va o‘z xususiyatiga ko‘ra harakatchan ekanligi aniqlandi.

§ 1.2. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish holati

Oliy ta’lim muasasalari talabalarida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining tizimli tahlilini amalga oshiramiz, shunga ko‘ra ifodalanayotgan jarayon mazmuni tushunchalarini, uni tashkil etish maqsadlari, metodlari, usullari, vositalari va shakllarini ochib beramiz. Demak, kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishning maqsadini biz bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ko‘ramiz.

Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mazmuni deb talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni qo‘zg‘atish va rivojlantirish bilan bog‘liq bevosita faoliyatlarini ataymiz.

Kreativ potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar va darajalari orqali talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish bosqichlari aniqlangan. Ya’ni, talabalarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini bir necha bosqichlarga ajratish mumkin:

1-bosqich (moslashuvchan), odatda oliy ta’lim muassasasidagi 2-bosqichlarni qamrab oladi va talabaning hozirgi vaqtda u bajarishi kerak bo‘lgan yangi ijtimoiy rolni anglashi bilan bog‘liqdir. Mazkur bosqich pedagogik voqelikka barqaror bo‘lmagan munosabat bilan ifodalanadi, pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalari aniq belgilanmagan. Bunda tashkiliy-faoliyatli vazifalar hal etiladi va shuning uchun ham bu kommunikativ, perseptiv, ilmiy-bilishga oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun eng maqbul vaqtdir.

2-bosqich (reproduktiv-ijodiy) oliy ta’lim muassasasidagi 2 bosqichlarni qamrab oladi va talaba oliy ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiyaviy jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lishga intilishiga

asoslanadi. Mazkur davrda pedagogik voqelikka barqaror qadriyatli munosabat yuzaga keladi, psixologik-pedagogik bilimlarning roli yanada yuqori baholanadi, pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasida sub’yekt-sub’yekt munosabatlarni o‘rnatishga intilish namoyon bo‘ladi (talabalar o‘qituvchida o‘z hamkasblarini ko‘ra boshlaydilar), pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalari umumiy ko‘rinishda belgilangan, ammo bunda faoliyatning yo‘nalishi va mezoni hisoblanmaydi.

Reproduktiv faoliyat doirasidagi ijodiy faollik mazkur davr avval ko‘rsatib o‘tilgan tashkiliy, suggestiv, ekspressiv, tadqiqotchilik kabi kompetensiyalar asosida shakllanishi va rivojlanishi uchun maqbuldir.

3-bosqich (ijodiy-reproduktiv), oliy ta’lim muassasasining 3 bosqichlarida ta’lim olish vaqtida kechadi va talabalarning bu vaqtda asosiy xususiyatlarida shakllangan o‘qituvchi idealiga muvofiqlik istaklari bilan bog‘liq. Talabalar nazariy va amaliy pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan axborot-baholash, konstruktiv-prognostik vazifalarni yecha oladilar. Ijodiy faoliyat, standart pedagogik vaziyatlarda yangi yechimlarni izlash elementlari bilan reproduktiv xarakterga ega. Mazkur davr didaktik, tashkiliy, ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun optimal hisoblanadi.

4-bosqich (ijodiy), uning quyi chegarasi oliy ta’lim muassasasining 4 bosqichi bo‘lib, bu davr kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni cheksiz rivojlantirish davri bo‘lib, u maqsadga yo‘nalganlik, kasbiy faoliyatning yo‘llari va usullarini anglash, psixologik-pedagogik bilan tavsiflanadi. Bunda shaxsiy faoliyat ta’lim va tarbiyaning yangi texnologiyalarini doimiy izlash, joriy etishga intilish bilan ajralib turadi. Ijodiy faollikning turli shakllari – pedagogik improvizatsiya, pedagogik intuitsiya va h.k. namoyon bo‘ladi.

Ixtiyoriy jarayonni tashkil etishning umumiy metodlarini aniqlashga intilish tadqiq etilayotgan muammoni ko‘rishga haqiqiy ilmiy yondashuvni ifodalaydi. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etishning umumiy metodlari ostida biz talabalar faoliyatlarini pedagogik boshqarish usullarini tushunamiz (bilishga oid, mehnatga oid, ijtimoiy, axloqiy, o‘yinli, sportga oid, badiiy-estetik, ekologik va h.k.), uning davomida shaxsning o‘z-o‘zini

amalga oshirishi, uning ijtimoiy va individual rivojlanishi amalga oshiriladi.

Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish metodlari ifodalanayotgan jarayonning mazmuni kontekstida o‘rganiladi, ularning tanlovi ular qo‘llaniladigan pedagogik tizimning tavsiflariga mos ravishda pedagogning alohida talaba shaxsi bilan, ularning guruhi va jamoalari bilan munosabatlari xususiyatlarini inobatga olgan holda qo‘llaniladi.

Metodlar kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish vositalari bilan bog‘liq bo‘lib, ular o‘z navbatida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish muammosini yechish uchun qo‘llaniladigan moddiy va ma’naviy madaniyat predmetlarini ifodalaydi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni tarbiyaviy jarayonning qismi hisoblanganligi sababli, tarbiya metodlarining klassifikatsiyasini “yangi asosga” ko‘chirish va tadqiq etilayotgan jarayon kontekstida ta’sir etishning asosiy uchta guruh metodlarini ko‘rib chiqish mumkindir.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etuvchi pedagogning amaliy ishi uchun P.I.Pidkasistiy tomonidan ifodalangan sxema optimal hisoblanadi:

axborot ta’sirlari guruhi – “ishontirish metodlari” – avvalo qarashlar shakllanichiga ko‘maklashadigan (tasavvurlar, tushunchalar) va pedagogik tizim a’zolari o‘rtasida tezkor axborot almashish amalga oshiriladigan metodlar;

individual va guruhli faoliyatga turli topshiriqlardan tashkil topgan guruh – bu “mashqlar (o‘rganishlar) metodlari”. Unga topshiriqlar, talablar (bevosita va bilvosita), bellashuvlar, namuna va misollarni namoyish etish, muammoli vaziyatlarni, muvaffaqiyat vaziyatlari va boshqalarni yaratish taalluqlidir;

“baholash va o‘z-o‘zini baholash metodlari”ning uchinchi guruhini rag‘batlantirish, tanbeh, jazolash, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish vaziyatlari, ishonch, tanqid, o‘z-o‘zini tanqid qilish va boshqa vaziyatlar tashkil etadi.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositalari to‘g‘risidagi masalaga o‘tamiz. Ularga biz obrazli, ko‘rgazmali-amaliy yoki belgili shaklda o‘zlashtirish predmeti sifatida ajratilgan, talaba shaxsining ichki olamini rivojlantirish uchun muhim bo‘lgan axborotga bog‘liq ma’naviy va moddiy madaniyatning ixtiyoriy ob’yektlarini kiritishimiz mumkin, bunda axborot bilan bog‘liq obyektlar talabaning faoliyatiga kiritilgan.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etishning vositalari orasida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: ma’naviy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy, mehnatga oid, shahar, hudud, mamlakat, dunyoning hayot faoliyatining ijtimoiy-pedagogik sohalari, umuminsoniy va milliy ma’anaviy-axloqiy qadriyatlarning mazmuni, o‘quv, metodik, ilmiy-pedagogik adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari, internet, sa’nat, o‘sib kelayotgan avlodning ideal ustozi obrazi, talabalar jamoasi, bir so‘z bilan aytganda, talabaning o‘quv va kundalik hayotidagi uni o‘rab turgan barcha narsa va hodisalar.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish vositalari talabalar va o‘qituvchilar faoliyatlarining barcha komponentlari bilan aloqadordir. Ular qo‘yilgan maqsad bilan, ifodalayotgan jarayonni tashkil etish metodlari va shakllariga bog‘liq va shaxsning rivojlanishiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur vositalar faoliyatning boshqa komponentlari bilan aloqasi kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida yuzaga keladi va uning rivojlanishi bilan o‘zgarib boradi. Vositalar tizimi talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadlariga muvofiq hosil bo‘ladi, ular istiqbolli xarakterga ega bo‘ladi, chunki jarayonning o‘zi yillar mobaynida davom etadi. Aynan shuning uchun kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish vositalari sifatida uzoq muddatli xarakterga ega bo‘lgan hayot faoliyatining omillari samarali hisoblanadi.

Kompetensiyalarning muayyan darajasi uchun dolzarb hisoblangan vazifalarni hal etish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rta muddatli maqsadlarni belgilash kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining optimalligini ta’minlovchi vositalar majmuini aniqlashtirishga imkon beradi. O‘qituvchi tomonidan ham, o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi hamda

o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi talaba tomonidan ham belgilanadigan joriy maqsadlar vositalar to‘plamidan eng samaralilarini ajratish va ularni kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida qo‘llash imkonini beradi. O‘qituvchining pedagogik mahorati, pedagogik tolerantligi, madaniyati va muloqoti mazkur jarayonda muhim ahamiyatga ega.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish shakllariga auditoriya ish shakllari (muammoli ma’ruzalar, muammoli seminar mashg‘ulotlari) hamda auditoriyadan tashqari ish shakllarini (everistik suhbatlar, ekskursiyalar, ko‘rgazma, tanlov, badiiy ijod, mehnatning turli ko‘rinishlari va boshqalar) kiritamiz. Bir shaklning o‘zi turli vositalar bilan birgalikda qo‘llanilishi va aksincha bir vositaning o‘zi turli tarbiya shakllarida foydalanilishi mumkin. Masalan, konferensiya (shakl) filologik, pedagogik, matematik va h.k. (vosita) bo‘lishi mumkin. Shuningdek, aksincha, ilmiy bilimning alohida sohasi bazasida (vosita) tadbirlarning turli shaklarini tashkil etish mumkin (ko‘rgazma, tanlov, to‘garak va h.k.). Ifodalangan jarayonni tashkil etishning sanab o‘tilgan shakllarini vositalar bilan umumlashtirishning to‘g‘ri tanlovi kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini optimal boshqarishni ta’minlaydi.

Shu tariqa, mazkur tadqiqot ishimizning ushbu qismida ilmiy izlanishning navbatdagi vazifasi hal etildi, ya’ni talabalarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining tizimli tahlili amalga oshirildi.

Davlat asosiy hujjatlari “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun (1992 yil), “Oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim” to‘g‘risidagi qonun (1996 yil), “Asosiy umumiy ta’limning davlat ta’lim standarti”, shuningdek, Prezident farmonlari qonunchilik bazasini ta’lim tizimining amal qilishi uchun tayyorlaydi. Mazkur hujjatlarning mohiyati davlat ta’lim tizimining rivojlanish strategiyasini belgilashdan iborat. O‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash sohasidagi davlat asosiy hujjatlaridan foydalanishning maqsadi qonunda belgilangan talablarga muvofiq ravishda oliy ta’lim muassasadagi o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etishdan iboratdir.

Ta’lim muassasalarining ishlashi va rivojlanishini boshqarishda

davlat, madaniy va ta’lim muhitining umumiyligini saqlash, ta’limdagi erkinlik va plyuralizm, ta’limning ochiqligi, ta’limni boshqarishning demokratik, davlat-ijtimoiy xarakteri, ona tilida ta’lim olish, ta’limning milliy va hududiy madaniyatlar va an’analar bilan aloqadorligi, ta’lim dasturlarining uzluksizligi, ta’limning variantivligi, tizim subektlari kompetensiyalarining ajratilganligi alohida ahamiyatga egadir.

Yangi tahrirdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunda davlat siyosatini amalga oshirishning prinsiplari, ta’lim tizimini qurish va faoliyatining xususiyatlari belgilangan. Uning bo‘limlarida ta’lim dasturlari va davlat ta’lim standartlarining uzluksizligi qonuniy mustahkamlangan, ta’lim muassasasining davlat akkreditatsiyasi va litsenziyalanishi tartibi, ta’lim oluvchilarni qabul qilish, ta’lim berish va bitiruv tartiblari mustahkamlangan.

Mazkur qonun ta’lim muassasalarini boshqarishni, ta’lim sifati nazoratini amalga oshirishni tartibga soladi, shuningdek, ta’lim sohasidagi iqtisodiy siyosatning asosiy prinsiplarini: ta’lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to‘lash tartibi, ta’lim oluvchilarning va ta’lim tizimi pedagog xodimlarining ijtimoiy kafolatlari tartibini qonuniy mustahkamlaydi, shuningdek ta’lim tizimi pedagog xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish va qayta tayyorlashni boshqarish masalalarini ko‘zda tutadi, ta’lim muassasalari va tashkilotlaridagi metodik ishlarni tartibga soladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-5847-sonli farmoni oliy va oliy ta’limdan keyingi kasbiy ta’lim sohasidagi munosabatlarni huquqiy tartibga solishni amalga oshiradi va fuqarolarning oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy qoidalari va davlat kafolatlarini mustahkamlaydi. Unda oliy ta’lim muassasasining erkinligi va akademik mustaqilligi mustahkamlangan bo‘lib, oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari va talabalarining ijodiy izlanishlari, niyatlarini amalga oshirish uchun muhimdir. Mazkur farmon talabalar, tadqiqotchilar, doktorantlar va OTM xodimlarining huquqlari va majburiyatlariga bag‘ishlangan. Shuningdek, o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash sohasidagi imkoniyatlari

nuqtai nazaridan ayniqsa muhim, chunki oliy ta’lim muassasasi ishidagi yuzaga kelgan munosabatlarni tartibga soladi. Farmonda davlatning oliy va oliy ta’limdan keyingi ta’lim tizimini boshqarish, iqtisodiyoti sohasidagi kompetensiyasi masalalari, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining xalqaro va tashqi iqtisodiy faoliyati masalalari belgilangan.

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-avgustdagi 476-sonli “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2001-yil 16-avgustdagi 343-son qaroriga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimcha masalalarga murojaat etib, quyidagilarni ta’kidlash kerak. Unda gumanitar ta’limning prinsiplari va asoslarini qayta ko‘rib chiqishga ahamiyatli e’tibor qaratilgan. Standartda oliy ta’lim muassasadagi ta’limning mazmuni va metodlari sezilarli o‘zgartirilgan bo‘lib, bu asosiy kasbiy ta’lim dasturlari tuzilishi va mazmunini yangilashni ko‘zda tutadi. Unda oliy ta’lim muassasa bitiruvchisi egallashi lozim bo‘lgan minimal bilim, ko‘nikma, malakalarning darajasiga talablar belgilangan. Standartda keltirilgan fanlar ro‘yxati mutaxassisni tayyorlashda ma’lum darajada gumanitar va tabiiy bilimlar o‘rtasidagi yaqin aloqani o‘rnatishga imkon beradi.

Kiritilayotgan davlat ta’lim standarti ko‘p jihatdan davlatdagi avval yuzaga kelgan oliy pedagogik ta’limning an’analarini inobatga oladi. Shu munosabat bilan ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalaridagi umumkasbiy fanlar blogi kengaytirilgan, talabalarning bosqichlarni tanlashlari uchun sharoitlar yaratilgan, bosqichlar va bloklar o‘rtasidagi yaqin fanlararo aloqalar o‘rnatilgan. Davlat ta’lim standartiga ko‘ra o‘quv rejalardagi nomutaxassislik fanlarini ikki barobar qisqartirishga imkon beradi. Bundan tashqari u oliy ta’lim muassasasiga qo‘shimcha mutaxassisliklar ro‘yxatini, fanlarni o‘rganishga ajratiladigan soatlarning mutanosibligini belgilashda ahamiyatli erkinlik berishini ta’kidlaydi. Umumiy gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar siklidagi yuz bergan tub o‘zgarishlarni ta’kidlash zarur. Mazkur blok umuman yangicha ifodalangan va endilikda o‘z ichiga falsafa, chet tillari, jismoniy tarbiyani kiritadi.

Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlarni o‘qitish mualliflik

bosqichlari, turli-tuman jamoaviy va individual amaliy mashg‘ulotlar ko‘rinishida amalga oshirilishi mumkin. O‘qituvchilar ta’lim standarti talablarini amalga oshirish yo‘llari va metodlarini tanlash imkoniga ega bo‘ladilar, bosqichlarni mustaqil ishlab chiqishlari, shakli bo‘yicha turli-tuman o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishlari mumkin bo‘lib, bu ularning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirishga ko‘maklashadi. Ta’limda pedagogik texnologiyalardan foydalanib, ta’lim samaradorligiga erishish ham talab etilgan.

Ta’kidlangan afzalliklar bilan bir qatorda yangi standartda kamchiliklar ham mavjuddir, ular mutaxassislarni, jumladan, umumta’lim maktabi o‘qituvchisini tayyorlash sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, professor I.A.Kolesnikovaning ishida o‘qituvchilarni tayyorlashning ko‘p darajali modeliga o‘tishda “bakalavr – magistr” tizimida oliy ta’lim muassasalari faoliyatidagi mazmun-ma’noli uzluksizlik buzilgan.

U “tayyorlash tizimi (fan sohasi bakalavri va keyingi pedagogik ixtisoslik) milliy ijtimoiy-madaniy vaziyatning rivojlanish mantig`iga zid hisoblanishini, unda talabada avval “inson-inson” tizimida ishlash sifatida pedagogik faoliyatga qiziqishini shakllantirish va faqat keyin uning qo‘liga kasbiy “qurol” sifatida fan mazmunini va uni amalga oshirish texnologiyalarini berish kerak” deb ta’kidlaydi. I.A. Kolesnikovaning fikriga ko‘ra “oliy ta’lim muassasadagi ta’lim davomida pedagogik ta’limdan o‘quv-fan qismining ustunligi ifodalanadi”, bu esa ta’limning insonparvarligi jarayoni bilan ziddiyatga kirishadi. Shuningdek, davlat ta’lim standartida amaliyotning turli ko‘rinishlariga ajratiladigan soatlar miqdori avvalgi amal qilgan o‘quv rejalariga nisbatan ikki barobarga qisqartirilgan. Bu endilikda nafaqat amaliy, balki nazariy tayyorgarlikning darajasi pasayichiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi, chunki avval maktablarda o‘tkazilgan uzluksiz pedagogik amaliyot pedagogika, psixologiya, xususiy metodika bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlari bilan birgalikda olib borilgan.

Standartda har bir blok materialini o‘rganishning chiziqli izchilligi ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu har bir blok o‘quv materialini aniq o‘rganib chiqishni talab etadi. Standartda an’anaviy kurslarning faqat yirik

bo‘limlari belgilangan. Bu holat har bir kafedradan yangi ishchi dasturlarning chuqur tahlili va batafsil ishlab chiqilishini talab etadi. Bunda e’tibor faqat asosiy kurslar va muammolarga qaratiladi.

Bizning fikrimizcha, standartni o‘quv jarayoniga joriy etish bilan bog‘liq muhim o‘quv materialini o‘zlashtirishga yangi, yanada samarali yondashuvlarni ishlab chiqish, konseptual qoidalarni ishlab chiqish bo‘yicha kafedralararo muvofiqlashtirishni kuchaytirish, alohida mavzularning takrorlanishini bartaraf etish, talabalarda ilmiy bilimni maktab amaliyoti ehtiyojlariga moslashtirish qobiliyatini shakllantirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish kerak.

Masalan, A.A.Shatalov tomonidan ko‘rsatilgan yana bir kamchilik asosiy mutaxassislik bo‘yicha tayyorgarlikni chuqurlashtirish bilan bog‘liq: “... shu bilan birga standart ikkinshi mutaxassislikda o‘qituvchini tayyorlash imkoniyatlarini toraytiradi”.

Shuningdek, direktiv hujjatlarni ko‘rib chiqamiz. Ularga hukumat qarorlari, Xalq ta’limi vazirligi boshqaruv kengashi materiallari, me’yoriy hujjatlar taalluqli. Ular odatda davlat bosh hujjatlarida belgilangan alohida vazifalarni hal etish bo‘yicha ko‘rsatmalarga ega. Pedagogik oliy ta’lim muassasa o‘quv-tarbiya jarayonida direktiv hujjatlardan foydalanishning maqsadini oliy ta’lim muassasasiga qo‘yiladigan yuqori talablarga javob berishga intilish sifatida belgilash mumkin.

Bu esa o‘z navbatida, ta’lim oluvchilarning huquqlarini himoyalaydi, ularning umidlarini amalga oshiradi va ular oliy ta’lim muassasasi ta’lim dasturida ko‘zda tutilgan o‘quv rejasini bajarib, uni tamomlashda yuqori malakali mutaxassis, professionalga aylanadilar.

Ko‘rsatmali hujjatlarga biz metodik tavsiyalar, idoraviy instruksiyalar, axborot-metodik xatlarni kiritamiz. Ularda direktiv hujjatlardagi mavjud ko‘rsatmalarni hayotga joriy etishning yo‘llari, usullari batafsil ifodalanadi. Mazkur hujjatlarni qo‘llashdan maqsad o‘quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, talabalar uchun ta’lim va tarbiyaviy-rivojlantiruvchi topshiriqlarning barcha turlarini, nazariy va amaliy xarakterdagi mashg‘ulotlarni o‘tkazish, talabalarning yangi materialni o‘zlashtirishi va ularning mustaqil ishlari vaqtini tartibga

solishdan iborat. Bunday hujjatlarga misol bo‘lib Xalq ta’limi vazirligining o‘quv fanlari bo‘yicha ko‘p sonli axborot-metodik xatlari xizmat qilishi mumkin. Ular umumta’lim maktablari o‘qituvchilarini yo‘naltiruvchi, shuningdek, xususiy metodika o‘qituvchilarini pedagogik oliy ta’lim muassasada o‘z vaqtida xabardor qiluvchi bo‘lib xizmat qiladi. Boshqa misol – oliy ta’lim muassasa tomonidan yoki boshqa nashriyotlar tomonidan o‘qituvchilarning ishlanmalari, tadqiqot ishlari asosida nashr etiladigan metodik tavsiyalarni keltirish joiz.

Ularda kurs va diplom ishlarining mazmuni va shakliy belgilari bo‘yicha farqlari ko‘rsatilgan, diplom ishini himoya qilish tartibi keltirilgan. Bunday tavsiyalardan ITI tashkil etishda foydalanish bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarning mustaqil va haqiqatda ijodiy ishlarini tashkil etishga va talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatiga sarflaydigan vaqtlaridan maksimal samarali foydalanishga imkon beradi.

Demak, biz tomonimizdan talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoniga imkoniyat berilgan hujjatlar ko‘rib chiqildi.

§ 1.3. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning amaliyotdagi qarama-qarshiliklari va harakatlantiruvchi kuchlari

Texnika yo`nalishi talabalarida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining ziddiyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari majmuini aniqlashdan iborat. Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishi jarayonida ijobiy va salbiy holatlarning doimiy to‘qnashuvi shakllanuvchi o‘qituvchi-tarbiyachi shaxsiga o‘z betakror izini qoldirib, uning ijodiy individualligini va bo‘lajak o‘qituvchining o‘ziga xosligini belgilab beradi.

Tadqiqotning metodologik qismi tayanadigan, dialektikaning qonuniyatlariga mos, o‘z navbatida individning takomillashishi qonunlarini belgilovchi qator ziddiyatlarni ta’kidlab o‘tamiz.

Birinchi ziddiyat individning bilim va amaliy ko‘nikmalarni egallashi, intellektual va axloqiy kuchlarini takomillashtirishi o‘z-o‘ziga yo‘naltirilganligidan iborat, ya’ni talaba kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining bir vaqtda subyekt va obyekt muayyan vaqtga

qadar o‘z mehnatining yagona iste’molchisi hisoblanadi. Bu ziddiyat talaba uchun doim ham ta’lim olish bo‘lajak kasbiy majburiyatlarini malakali bajarish uchun bilimlarga ongli ehtiyoj, ko‘nikma va malakalarni ishlab chiqish sifatida xizmat qilmaydi. Talabalarning ko‘pchilik qismi kundalik ishlarning muhimligi va zaruratini yetarli anglamaydi, o‘qishning joriy va yakuniy maqsad va vazifalarini to‘g‘ri bog‘lashni bilmaydi. So‘rovnomada qatnashgan talabalarning faqatgina 11 foizi semestr davomida tizimli ishlaydilar, fan bo‘yicha barcha topshiriqlarni muntazam bajaradilar. Keltirilgan ma’lumotlar, shuningdek, boshqa tadqiqotchilarning materiallari bilan tasdiqlanadi.

Mazkur ziddiyatni bartaraf etish har yili kafedra majlislari, fakultetlar ilmiy kengashlari, institut ilmiy kengashi muhokamasi davomida o‘tkaziladigan o‘quv rejalari, o‘rganilayotgan fanlar bo‘yicha dasturlariga tuzatishlar kiritish bilan qisman amalga oshiriladi. Shuningdek, birinchi ziddiyat talabalarning o‘qituvchilar bilan hamkorlikda amalga oshiradigan o‘z ustida uzluksiz ishlash hisobiga bartaraf etilishi mumkin.

Ikkinchi ziddiyat – oliy ta’lim muassasasi talabasining yuqori malakali o‘qituvchi bo‘lish istagi va shaxs emotsional-irodaviy sifatlari rivojlanganligining yuqori bo‘lmagan darajasi o‘rtasidagi ziddiyat. Uning mohiyati, talabalarda avvalo bolalarga hamdardlik bildirishni bilish oqibati hisoblangan emotsional muloqot madaniyatining yuqori bo‘lmagan darajasi tufayli nazariy bilimlarni pedagogik amaliyotda egallanadigan ko‘nikmalar bilan birlashtirish qiyinchilik tug‘dirishidan iborat. Mazkur ziddiyatni bartaraf etish talabalarning oliy ta’lim muassasasining o‘qituvchilar tarkibi bilan hamkorlikdagi doimiy o‘z-o‘zlarini takomillashtirishlari hisobiga sodir bo‘ldi. Mazkur holatda psixologik-pedagogik rukndagi fanlarni o‘rganishda qo‘llaniladigan metodlar eng samarali hisoblanadi.

Bu holatda TATU. FF talabalarni yozgi pedagogik amaliyotga tayyorlash tajribasi namunaviydir. Har yili VI semestr oxirida oliy ta’lim muassasalarining barcha fakultetlari yozgi yig‘ilish seminarida ishtirok etadilar.

Yig‘ilish-seminarning tuzilishi uchta blokdan iborat. Birinchi blok

– bu bir nesha ma’ruzalar bo‘lib, ularning o‘quv materiali talabalarning yozgi pedagogik amaliyotlarini o‘tashlari vaqtida yuz berishi mumkin bo‘lgan muammolar va ularni hal etishga qaratiladigan savollarga taalluqli.

Ikkinchi blok – bu seksiya mashg‘ulotlari bo‘lib, ularni tashkil etishda Axborot ta’lim texnologiyalari, O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedralari o‘qituvchilari ishtirok etadilar va talabalar bilan muloqotdagi yuzaga keladigan muammolar, tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishni yoritib beradilar.

Yig‘ilish-seminarning uchinchi blogi – bu “guruhning tashrif kartochkasi”ni taqdim etish, yig‘ilish vaqtida talabalar guruhlari bo‘limlarga aylanadilar. Yig‘ilish-seminarni o‘tkazishda ishtirok etuvchi o‘qituvchilardan tashkil topgan hakamlar hay’ati, o‘z kursdosh-do‘stlari, barcha istaganlar, kichik kurs talabalari oldida bunday otryadning chiqishini maqsadi yozgi sog‘lomlashtirish lagerlarida yozgi pedagogik amaliyotni o‘tashga o‘z tayyorgarliklarini namoyish etishdan iboratdir. Sahnadagi chiqishlar davomida sovrinli o‘rinlarni egallagan g‘oliblar eng ko‘p ballar miqdori bo‘yicha aniqlanadi, bunda artistlik kompetensiyalari , kostyumlar, nutq madaniyati, musiqaviy ohangga egalik, chiqishning mazmuni baholanadi. Diplomlar bilan kasbiy ahamiyatli sifatlarni namoyon etgan alohida talabalar ham taqdirlanadilar. Hakamlar hay’ati tomonidan qo‘yiladigan baho ta’lim oluvchilarning o‘z-o‘zlariga baholariga tuzatish kiritish, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarni o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘nalichiga yo‘naltirish imkonini beradi.

Uchinchi ziddiyat – talabaning shaxsiy kasbiy kutubxonasini to‘ldirish, professional innovatsiyalar bilan tanishishga intilishi va buning uchun yetarli bo‘lmagan ijtimoiy-pedagogik hamda moddiy-moliyaviy ta’minlanganlik o‘rtasidagi ziddiyatdir. Mazkur ziddiyatning yechimi talabalarning mustaqil o‘quv va tadqiqotchilik ishlari hajmi va sifatining o‘sishi orqali kasbiy-pedagogik madaniyat darajasining oshishi, oliy ta’lim muassasasining qoshida, boshqa ta’lim muassasalari qoshida ilmiy konferensiyalar, yalpi yig‘ilishlar, ilmiy sessiyalarni tashkil etish orqali hal etilishi mumkin. Masalan, Toshkent axborot

texnologiyalari unversiteti Farg‘ona filiali o‘qituvchilarining bevosita ishtiroklarida va rektorat tomonidan tashkiliy qo‘llab-quvvatlashda 2022-yildan 20223-yilgacha quyidagi konferensiyalar o‘tkazildi: 2022 yil – “Innovatsion rivojlanish muammolari: ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarish hamkorligi” Vazirlik miqyosida ilmiy-amaliy konferensiya; 2023 yil – “Zamonaviy ishlab-chiqarishning ish samaradorligi va energo-resurs tejamkorligini oshirish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman.

Shuningdek, uchinchi ziddiyat talabalar kasaba uyushmasi tomonidan (kasaba uyushmasiga yozilgan arizalarga asosan muhtoj bo‘lganlarga moddiy yordam), rektorat, tuman hokimiyati (talabalar stipensiyalariga dotatsiyalar) tomonidan ko‘rsatiladigan moliyaviy yordamga ko‘ra hal etilishi mumkin.

To‘rtinchi ziddiyat – kasbiy-ijodiy tayyorgarlikning mavjud imkoniyatlari va texnologik oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘llarining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi o‘rtasidagi ziddiyat. Mazkur ziddiyatni oliy ta’lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda oliy ta’lim muassasalar) o‘qituvchilari tomonidan amalga oshiriladigan ijodiy izlanish orqali, shuningdek pedagogik oliy ta’lim muassasa talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘llarining ilmiy asoslangan tizimini yaratish hamda oliy ta’lim muassasa o‘qituvchilari tarkibining uni o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etishni ta’minlashlash ko‘nikmalari orqali hal etilishi mumkin.

Beshinchi ziddiyat – talabalarni metodik tayyorlashning doimiy yangilanuvchi mazmuni, texnologiyasi va ularni o‘qitish amaliyotida yetarlicha amalga oshirilmasligi o‘rtasida. Beshinchi ziddiyatni oliy ta’lim muassasa umuman butun o‘qituvchilar jamoasining va har bir alohida o‘qituvchining yangilikni qabul qilish, innovatsiyalarni o‘quv-tarbiya jarayoniga joriy etishga tayyorliklari sharti bilan bartaraf etish mumkin. Bunda tarbiyaning o‘zgacha maqsadlari, ta’lim va tarbiyaning yangilangan jarayonlari yoki tarbiyaviy ishning yangi tashkiliy shakllari bilan talabalarni tayyorlashning optimal texnologiyasini tanlashga ratsional, o‘ylangan yondashuv oqlangan hisoblanishini ta’kidlash

lozim. O‘zgarishlar va oldinga intilish illyuziyasini yaratib, tartibsiz innovatsion “kiritmalar” zararlidir va ko‘pincha shundoq ham mustahkam bo‘lmagan pedagogik tizimning asosini buzadi, uning yomonlashishiga olib boradi.

Sanab o‘tilgan ziddiyatlar, tabiiyki, oliy ta’lim muassasa talabalarida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining to‘laqonli kechishi uchun o‘z yeshimini talab etadi. Ziddiyatlarni bartaraf etilishi oliy ta’lim muassasa o‘qituvchilari, oliy ta’lim muassasaning tegishli bo‘limlari rahbarlari, boshqa mas’ul shaxslar tomonidan talabalarning faol hamkorliklari asosida buning uchun zarur sharoitlarni yaratilishi ta’minlanganida muvaffaqiyatliroq kechadi.

Dialektika qonunlariga ko‘ra, o‘rganilayotgan jarayonning ziddiyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik mavjuddir. Bundan tashqari, psixologiyada, masalan inson psixik rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchlari – bu eski va yangi o‘rtasidagi, inson ehtiyojlari va tashqi sharoitlar o‘rtasida, yoshga oid kompetensiyalari va faoliyatning eski shakllari o‘rtasida, yangi faoliyat bilan yuzaga keladigan ehtiyojlar va ularni qondirish imkoniyatlari o‘rtasida, faoliyatning yangi talablari va shakllanmagan ko‘nikmalar o‘rtasidagi dialektik ziddiyatlardir. Psixik rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlarini bunday tushunish S.L.Rubinshteyn, A.N. Leontyevlar tomonidan ifodalangan. U biz talabalarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining harakatlantiruvchi kuchlari ostida tushunadiganlarimizga yaqindir. Bizning nuqtai nazarimizda, mazkur jarayonning ziddiyatlarini inobatga olish uning harakatlantiruvchi kuchlarining amal qilishini optimal tashkil etishning zarur shartidir. Tashqi va ichki omillar o‘rtasidagi ziddiyatlarning mavjudligi bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni mexanizmini harakatga keltiruvchi kuchlarni hosil qiladi.

Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni kechishining muvaffaqiyatliligi nafaqat ziddiyatlarning hal etilganligi darajasi bilan, balki mazkur jarayonning bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarning umumshaxsiy va predmetli-ishbilarmonlik jihatidan

o‘z-o‘zlarini takomillashtirish faolliklarini yuzaga keltiruvchi va qo‘llab-quvvatlovchi boshlang‘ich shart-sharoitlari bilan ham belgilanadi.

O‘rganilayotgan jarayonning *birinchi harakatlantiruvchi kuchi* – oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining metodik va umumpedagogik tayyorgarliklari. U yetarlicha yuqori samara bilan oliy ta’lim muassasaning ko‘pchilik o‘qituvchilari o‘zlari ham pedagogik kadrlarni kasbiy tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi turli pedagogik oliy ta’lim muassasalarning bitiruvchilari hisoblanadilar, bu ularning yuqori umumpedagogik tayyorgarliklari darajasidan guvohlik beradi.

Ikkinchi harakatlantiruvchi kuch – oliy ta’lim muassasadagi o‘quv-tarbiya jarayonining moddiy-texnik va o‘quv-metodik ta’minlanganligi. Oliy ta’lim muassasadagi o‘quv-tarbiya jarayonining moddiy-texnik ta’minoti to‘g‘risidagi g‘amxo‘rlik ma’muriy-xo‘jalik ishlari bo‘yicha prorektor, bevosita uning qo‘l ostidagi xodimlar: elektriklar, farroshlar, qoravullar, oshxona ishchilari, duradgorlarning majburiyatlariga, shuningdek muassasa rahbari sifatida rektorning majburiyatlariga kiradi. Ularning o‘z majburiyatlarini bajarishlarining muvaffaqiyatliligi to‘g‘risida Toshkent axborot texnologiyalar unversiseti Farg‘ona filiali xonalarining o‘z vaqtidagi ta’mirlanishi, yangi binolarning qurilishi ham guvohlik beradi. So‘nggi vaqtlarda ko‘pgina oliy ta’lim muassasalarga, jumladan, Toshkent axborot texnologiyalar unversiseti Farg‘ona filialiga ham moliyaviy masalalarni hal qilishda rahbariyatning oliy ta’lim muassasaning to‘laqonli faoliyat yuritishi uchun moddiy-texnik bazani ta’minlay olishi namoyon bo‘ldi. Oliy ta’lim muassasaning o‘quv-tarbiya jarayonining o‘quv-metodik ta’minlanganligi to‘g‘risidagi masala oliy ta’lim muassasa kutubxonasining, o‘quv zallarining aniq ishlashi, ya’ni talabalar va o‘qituvchilarning kitob fondidan to‘liq foydalana olishlari imkoniyati bilan bog‘liq. Shuningdek, bunda tegishli mutaxassislik kafedralaridagi o‘quv-metodik adabiyotlarning mavjudligi muhim rol o‘ynaydi.

Uchinchi harakatlantiruvchi kuch - umuman jamiyatning, shahar hokimiyatining oliy ta’lim muassasa qoshidagi pedagogik kadrlarni yuqori darajada tayyorlanishidan manfaatdorliklaridir. Toshkent axborot texnologiyalar unversiseti Fargona filialining shahar va tuman

hokimiyati qoshidagi shahar va tuman ta’lim boshqarmasi bilan hamkorligi nafaqat bitiruvchilarni ish bilan ta’minlash, balki ilmiy seminarlar, konferensiyalarni tashkil etishdagi qo‘llab-quvvatlashdan iborat yordamlari talabalarni yuqori darajada tayyorlashdan manfaatdorlik to‘g‘risida guvohlik beradi.

To‘rtinchi harakatlantiruvchi kuch – oliy ta’lim muassasa rahbariyatining, uning bo‘linmalarining oliy ta’lim muassasadagi o‘quv-tarbiya jarayonining tashkiliy tomonini ta’minlay bilishidir. Institut rahbariyati va uning bo‘linmalarining muvofiqlashtirilgan ishi Toshkent axborot texnologiyalar unversiseti Farg‘ona filialiga o‘quv-tarbiya jarayonining borishi sharoitlarini ta’minlovchi alohida muvaffaqiyatlarni namoyon etishga imkon beradi. Bu haqida oliy ta’lim muassasaning 2021 yilda muvaffaqiyatli o‘tgan akkreditatsiyasi guvohlik beradi.

Beshinchi harakatlantiruvchi kuch – talabalarning doimiy kasbiy-ijodiy o‘z-o‘zini takomillashtirishning ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatiga ishonchlari va ularning o‘z-o‘zini takomillashtirish metodlarini egallaganliklaridir. Ko‘pincha amaliyotda biz ikki qarama-qarshi holatlar ya’ni talabalarda bunday ishonchning mavjudligi va uning boshqalarida butunlay yo‘qligi bilan duch kelamiz. Bunda oliy ta’lim muassasalariga tabaqalashtirilgan to‘lov asosida abituriyentlarni talabalikka qabul qilishning parametrlari haqida aytib o‘tish joizdir. Ta’lim oluvchilarning ikki guruhda ishlashda ham o‘qituvchilar jamoasi va talabalarning o‘zlarining bunday ishonchni ulardan birlarida saqlash va boshqalarida tarbiyalash bo‘yicha ishlari zarurdir. Butun o‘quv-tarbiya jarayoni davomida bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarni o‘z-o‘zini takomillashtirish metodlarini egallash sodir bo‘ladi. Shuning uchun biz tomonimizdan ajratilgan shart dinamik va qat’iy individualdir.

Oltinchi harakatlantiruvchi kuch – umuman oliy va pedagogik ta’limni insonparvarlashtirish bo‘lib, uning maqsadi talabani axborotni passiv iste’molchisidan shaxsga, ijodkorga aylantirish hisoblanadi. Ta’limni insonparvarlashtirish uzluksiz ta’lim yagona tizimida asosiy sifatidagi umumiy ta’lim konsepsiyasida ilgari surilgan asosiy prinsiplardan biri hisoblanadi va har bir ta’lim oluvchining shaxsiga e’tiborning kuchayishi bilan bog‘liq. Zamonaviy oliy ta’lim talabadan

o‘quv materialini eslab qolish emas, balki bilimlarni idrok etish va tanlash, umumiy metodlar va bilimlarni egallashga tayyorlik, uzluksiz ta’lim olish va ijodiy izlanish istagi talab etiladigan tarzda qurilishi kerak. Chunki ta’limni insonparvarlashtirishning asosiy maqsadi alohida talabalar o‘zlarini nafaqat bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvshilari sifatida, balki haq to‘langan vaqtni qat’iy ishlab beruvchi, undan bir daqiqa ham ortiq ishlamaydigan, tarbiyachi vazifasi sinf rahbariga yuklatiladigan va bu bilan o‘quv-tarbiya jarayonining yaxlitligi buziluvchi pedagogik oliy ta’lim muassasalardagi mavjud texnokratik va tor kasbiy fikrlashni yengish hisoblanadi.

Yettinchi harakatlantiruvchi kuch – talabalar jamoasidagi umuminsoniy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan va talaba shaxsini shakllantirishga tarbiyaviy-rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatuvchi shaxslararo munosabatlar hisoblanadi. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining yettinchi harakatlantiruvchi kuchining muhimligini tasdiqlab, quyidagilarni ta’kidlash mumkin. Eng yaxshi talabalar guruhlarining tajribalari o‘z-o‘zini takomillashtirishda eng yuqori natijalarga talabalarning o‘z ustilaridagi ishlari jamoaviy o‘z-o‘zini tarbiyalash asosida amalga oshirilganida erishishlarini ko‘rsatadi.

Haqiqatda, guruhning umumiy maqsadlari va qiziqishlarining mavjudligi har bir talaba uchun o‘z-o‘zini tarbiyalash motivatsiyasining shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. O‘zida kerakli kasbiy ahamiyatli sifatlar talabalar davrasidagi muhokama obyektiga aylanganida ularni rivojlantirish zaruratini anglash osonlashadi. Ammo alohida shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalashga ta’sir etuvchi asosiysi – bu guruhdagi axloqiy-qadrli shaxslararo munosabatlarni tashkil etishdir. Shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalashga ta’sir etish beixtiyoriy (xulq namunasi, qiziqishlar, baholar bilan qo‘zg‘atish va h.k.) hamda maxsus tashkil etilgan (ishonch, tanqidiy fikrlar, shaxsga talablar) bo‘lishi mumkin. Ta’sir etishning ikki usuli ham shaxsning o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonida samarali va amaliyotda yuzaga keladigan vaziyatga ko‘ra qo‘llaniladi. Shunday qilib, biz tomonimizdan kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining ziddiyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari ajratildi. Sanab

o‘tilgan harakatlantiruvchi kuchlarning majmui OTM o‘qituvchilarining talabalarda o‘z-o‘zini takomillashtirish ehtiyojini uyg‘otish va rag‘batlantirish bo‘yicha olib boradigan ishlarining muvaffaqiyatliligiga ko‘maklashuvchi tashkiliy-pedagogik sharoitlarning kompleksini tashkil etadi.

Pedagogik oliy ta’lim muassasalar asrlar to‘qnashuvida uchinchi ming yillik maktablarida ishlashlari, yosh avlodni hayot va mehnatga samarali tayyorlashga ko‘maklashuvchi yangi ta’lim-tarbiya texnologiyalarini amaliy yaratishlari kerak bo‘lgan o‘qituvchilarni tayyorlaydilar. Pedagogik oliy ta’lim muassasalarning o‘qituvchilari kasbiy-ijodiy kompetensiyalar rivojlanganligining yuqori darajasini ifodalaydigan bitiruvchilarni tayyorlashlariga ishonch bilan ishlaydilar. Mazkur bitiruvchilar malakali mutaxassisning yuzaga keladigan o‘quv-tarbiya vazifalarini hal etishning samarali metodik usullarini izlash va amaliy foydalanishda faollikni namoyon etishga undovchi sifatida xizmat qiladilar.

Biz tomonimizdan o‘tkazilgan ilmiy-pedagogik tadqiqot talabalar kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning kasbiy idealga maqsadga yo‘naltirilgan va intensiv yaqinlashtirilgan yo‘nalishidagi kam o‘rganilgan sohasini batafsil ko‘rib chiqishga imkon berdi.

Pedagogik oliy ta’lim muassasaning har bir o‘qituvchisi o‘z talabalariga qator manbalarni izlab topishi va tavsiya etishi mumkinligi, ularning imkoniyatlaridan foydalanish shug‘ullanuvchilarga o‘zlarining pedagogik arsenallarini, kasbiy-ijodiy madaniyatlarini sezilarli boyitishga imkon berishi aniqlandi.

Bizning institutimiz uchun bunday manbalarning taxminiy ro‘yxati umuminsoniy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mazmuni; san’at; hudud, mamlakat va umuman dunyoning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy. ijtimoiy-pedagogik, madaniyat hayot sohalari; ommaviy axborot vositalari; o‘sib kelayotgan avlod ustozining ideali; umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasa o‘qituvchilarining o‘quv-tarbiya faoliyatlari; o‘quv-metodik adabiyotlar; ilmiy-pedagogik adabiyotlardan tashkil topgan. Har bir alohida vaziyatda bunday ro‘yxatga mos ravishda tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining ichki mexanizmlarining tahlilini amalga oshirishga urinishlari turli yo‘naltirilgan tendensiyalarning mavjudligi, bir vaqtda mavjudligi va doimiy kurashishni aniqlashga yordam berdi. Masalan, talabaning faqat birgina yuqori malakali o‘qituvchi bo‘lishga intilishiga shaxsning emotsional-irodaviy sifatlarining qator turlarini rivojlanishining yetarli bo‘lmagan darajasi qarshi chiqishi aniqlandi.

Tadqiqot ishida ziddiyatli tendensiyalarning doimiy to‘qnashuvi tashkiliy-pedagogik sharoitlar sifatida oliy ta’lim muassasa o‘qituvchilarining mazkur yo‘nalishdagi olib boradigan kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muvaffaqiyatiga ko‘maklashadigan harakatlantiruvchi kuchlarining ta’sirini optimal tashkil etishning zaruriy shartidir.

Olib borilgan tadqiqot ishlari orqali yettita bunday harakatlantiruvchi kuchlar aniqlandi: oliy ta’lim muassasa o‘qituvchilarining metodik va umumpedagogik tayyorgarliklari, oliy ta’lim muassasadagi o‘quv-tarbiya jarayonining moddiy-texnik va o‘quv-metodik ta’minlanganligi, umuman jamiyatning, shahar hokimiyatining oliy ta’lim muassasa qoshidagi pedagogik kadrlarni yuqori darajada tayyorlanishidan manfaatdorliklari, oliy ta’lim muassasa rahbariyatining, uning bo‘linmalarining oliy ta’lim muassasadagi o‘quv-tarbiya jarayonining tashkiliy tomonini ta’minlay olishi, talabalarning doimiy kasbiy-ijodiy o‘z-o‘zini takomillashtirishning ijtimoiy, shaxsiy ahamiyatiga ishonchlari, ularning o‘z-o‘zini takomillashtirish metodlarini egallaganliklari, maqsadi talabani axborotni passiv iste’molchisidan shaxsga, ijodkorga aylantirish bo‘lgan umuman oliy va pedagogik ta’limni insonparvarlashtirish, talabalar jamoasidagi umuminsoniy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan, bo‘lajak o‘qituvchi shaxsini shakllantirishga tarbiyaviy-rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatuvchi shaxslararo munosabatlar.

Talabalarni izchil va tizimli kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirishning ilg‘or tajribalarini o‘rganish orqali kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining tuzilmaviy tavsifi tuzilgan.

Institutning ta’lim-tarbiya amaliyotidan ajratish orqali talabalarning kasbiy-ijodiy rivojlantirishdagi ehtiyojlarini uyg‘otish va rag‘batlashtirishning metodik usullarining majmui tajriba-sinovda tekshirildi va keng sinovdan o‘tkazildi, ularni biz ratsional sifatida klassifikatsiyalashga xaqlimiz deb hisobladik. Auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda, pedagogik amaliyot vaqtida umuminsoniy ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga murojaat etish, talaba shaxsiga, uning hayotiy va kasbiy qiziqishlari, ehtiyojlari, uning his-tuyg‘ulariga, uning shaxsiy tajribasiga yo‘naltirilgan o‘qitish mazmuni va metodlarini tanlash, oliy ta’lim muassasa o‘qituvchisi tomonidan materialni bayon etish davomida talabalarga o‘z qarashlarini, his-tuyg‘ularini, o‘zining takrorlanmas individualligini yetkazishni amalga oshirildi. Ideal o‘qituvchi-tarbiyachining aniqlashtirilgan obrazini shakllantirish, talabalarning ilmiy-pedagogik, o‘quv va metodik adabiyotlarni tizimli o‘rganishlari va talabalarni u bilan ishlashda tanqidiy, tahliliy-baholash yondashuviga o‘rgatish, bo‘lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini aniqlashining imkoniyatlarini, ijodiy individualligini rivojlantirish lozim. Yoshlarni kasbiy tayyorlashda shahar, hudud, mamlakat, umuman dunyoning tarbiyaviy-rivojlantiruvchi imkoniyatidan foydalanish hamda fakultet va umuminstitut miqyosida o‘qituvchi-talabalar jamoasining ta’lim va hayot faoliyatining ma’naviy boyituvchi uslubini tashkil etish talab etiladi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Talabalar kasbiy-ijodiy o‘z-o‘zlarini rivojlantirish manbalarining ro‘yxati aniqlandi va ilmiy taqdim etildi. Natijada kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining tizimli tahlili amalga oshirildi.
2. Bizning tajriba-sinov bazamiz uchun xos bo‘lgan pedagogik oliy ta’lim muassasasi talabalarida kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining ziddiyatlari va harakatlantiruvchi kuchlari aniqlandi va tavsiflandi.
3. O‘qituvchi-tarbiyachilarni kasbiy tayyorlash sohasidagi davlat asosiy, direktiv va instruktiv hujjatlari

ko‘rsatmalarining maqsadga yo‘naltirilgan imkoniyatlarining tavsifi, ularning umumpedagogik va maxsus-fanga oid takomillashtirish amalga oshirildi.

4. Tajriba guruhlari talabalari uchun darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining tarbiyaviy-rivojlantiruvchi imkoniyatining ijodiy boyituvchi asosini kuchaytirish xususiyatlari ochib berildi.
5. Zamonaviy nazariya va oliy ta’lim muassasasi ta’lim-tarbiya amaliyoti jihatidan talabalarning kasbiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishdagi ehtiyojlarini uyg‘otish va rag‘batlantirishning ratsional metodik usullarining optimal majmui tahlil qilindi.

II BOB. TEXNIKA OLIY TA’LIM MUASSASASALARI TALABALARINING KASBIY-IJODIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

§ 2.1. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari

Oliy ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish va rag‘batlantirish usullari ostida biz kasbiy-ijodiy kompetensiyalar rivojlanishi jarayonining optimal kechishini ta’minlaydigan, o‘quv-tarbiya jarayonining aniq sharoitlariga mos metodlarni takomillashtirish, xususiy o‘zgarishlar va qo‘shimshalarni tushunamiz. Shu tariqa, usul – umumiy metodning bir qismi, alohida harakat (ta’sir), ma’lum takomillashuvdir. Shuning uchun bizning talqinimizda kasbiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishning ratsional usullari – bu ma’lum kasbiy ta’lim vaziyatlarida qo‘llaniladigan talabalar ongi va xulqini o‘z mohiyati bo‘yicha uzluksiz mustaqil nazariy va amaliy kasbiy-ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirish usullaridir.

Mazkur tadqiqot ishimizning pedagogik-metodik majmuidagi mavjud turli xil usullardan biz tahliliy-tanqidiy anglash uchun o‘zining umumiyligida mualliflik metodik yaxlitligini tashkil etuvchi faqat sakkizta usullarini ajratib chiqdik. Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini amalga oshirishda qo‘llaniladigan usullarni talabalarning haqiqiy amaliy va nazariy pedagogik faoliyatlariga asoslanadigan asosiy hamda tabiiy va sun’iy vaziyatlardan foydalanishni ko‘zda tutadigan, kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish uchun shart-sharoit sifatida xizmat qiladigan qo‘shimcha usullarga ajratish o‘rinlidir.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini amalga oshirishda o‘zining samaradorligini isbotlagan asosiy ratsional metodik usullarni ko‘rib chiqamiz. Oliy ta’lim tizimini insonparvarlashtirish ruhida qaraladigan usul – kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida umuminsoniy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mazmunidan foydalanish tushuniladi. Uning mohiyati pedagogik oliy ta’lim

muassasasi talabasining kasbiy-ijodiy madaniyati chegaralarini kengaytirishdan iborat bo‘lib, u umuminsoniy qadriyatlarga tayanuvchi ma’naviy boy shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

Azaliy qadriyatlarga murojaat etish o‘qituvchi va talabaning nafaqat verbal darajasida, balki hamkorlikdagi faoliyatida ham sodir bo‘ladi va bunda insonning ta’lim, tarbiya, o‘z-o‘zini rivojlantirishdagi ustuvor pedagogik qadriyatlar tahliliga aksiologik yondashuvni amalga oshirish amaliyotda, kundalik ijtimoiy hayotda namoyon bo‘ladi. Masalan: burch hissi, mas’uliyat, mehnatsevarlik kabi qadriyatlarning ustunligi o‘qituvchilar va talabalar jamoasiga hamkorlikdagi ishlariga yordam beradi. Ta’lim oluvchilarning kasbiy tafakkuri va kasbiy-texnologik kompetentlikni rivojlantirish bo‘yicha tadqiqot ishlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Ratsional metodik usullardan biri o‘qitish mazmuni va metodlarining talaba shaxsiga, uning hayotiy va kasbiy qiziqishlari hamda ehtiyojlariga, uning hissiyotlari va shaxsiy hayotiy tajribasiga yo‘naltirilganligi hisoblanadi. Uning mohiyati o‘qituvchi nafaqat ma’lumotni bayon etishi kerakligi, balki mazkur bilimlar sohasiga qiziqishni uyg‘otishni bilishi, shu tariqa ta’lim oluvchi bilan hamkorlikda ishlash metodini topishi kerakligidan iborat. Uni qo‘llashdan maqsad pedagogik oliy ta’lim muassasasidagi ta’lim, tarbiya mazmuni va metodlarini insonparvarlashtirish hisoblanadi.

Faol, ijodiy mutaxassisni tarbiyalash uchun faol, ijodiy o‘qitish jarayonini tashkil etish zarur. Talabalarning ijodiy bilishga oid faoliyatlarini ilmiy tashkil etish bilishga oid qiziqishlari va yangi bilimlarga ehtiyojlarining shakllanmagan, yangi bilimni egallashning muayyan mexanizmlarisiz o‘ylangan maqsadga erishib bo‘lmaydi.

Ehtiyojlar va motivlar toifasi qiziqish bilan bevosita bog‘liq, bu esa insonning emotsional sohasidan ayrilmasdir. “Bilishga oid qiziqishning psixologik tuzilishi inson emotsional-irodaviy va fikrlash jarayonlarining o‘ziga xos qorishmasini ifodalaydi”. Bunda bilish jarayonining irodaviy va intellektual tomonlari alohida qismlarni emas, balki uning yaxlitligini tashkil etadi. So‘nggi o‘n yillikdagi psixologik va pedagogik adabiyotlarda bilish jarayonida emotsional va intellektual

tomonlarning ayrilmas birligi umumiylikning o‘qitish jarayonida ifodalanishi, emotsional-irodaviy va bilishga oid tomonlarning o‘zaro singishini inobatga olish to‘g‘risida fikrlar ta’kidlanadi (P.I.Pidkasisty). Mazkur umumiylikni bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatini rivojlanishidagi roli beqiyosdir.

Ta’lim oluvchilarning mustaqil ijodiy faolliklari, uni shakllantirish va har tomonlama rivojlantirish oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilari pedagogik faoliyatlarining diqqat markazida turadi. Hozirgi vaqtda kasbiy fanlarni o‘qitish jarayonida shaxs faolligi muammosini hal etishda ikki xil yo‘nalish mavjud:

1) P.Ya.Galperin, A.I.Leontyev, N.A.Menshinskaya, N.F.Talizina ishlarida o‘rganilgan bo‘lib, o‘qitish jarayonini boshqarish;

2) ta’lim oluvchilarning bilishga oid faolliklarini rivojlantirish, ularda bilimlarni mustaqil egallash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘lib, V.Okon, B.Skipper, K.Tomashevski, A.M.Matyushkin, V.M.Kudryavsev, Z.I.Kalmikova, V.I.Kostyuk ishlarida o‘rganilgan.

Talabalarning aqliy kompetensiyalarni rivojlantirib, fikrlashining sifat tavsiflarini yaxshilab, uning kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammolarning mazmunini to‘g‘ri va to‘liq tushunishga, ularni muvaffaqiyatli hal etish va bunday yechimlarning noan’anaviy yo‘llarini topish uchun kasbiy-pedagogik malakalar turkumini aniqlash talab etiladi.

Kasbiy-pedagogik malakalar turkumini aniqlash uchun esa vazifa(masala)larni yechish yo‘llarini ko‘rib chiqamiz. Masalan, o‘quv-tarbiyaviy jarayonni loyihalash quyidagi malakalarning mavjudligini talab etadi: istiqboldagi va joriy maqsadlarni aniqlash, perspektiv o‘quv rejalarini ishlab chiqish, o‘quv dasturlarini tahlil qilish, o‘quv materialnni tanlab olish va bir tizimga keltirish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklarni oldindan bilish, dars turlarini, uning strukturasini, shaklini, o‘qitish vositalari va metodlarini tanlash, o‘quv tarbiyalash jarayonini baholash. Shunday qilib, biz talabalar pedagogik faoliyatini amalga oshirish uchun malakalar turkumini quyidagicha aniqladik:

1. Talabalar shaxsini shakllantirish malakalari - pedagogik

bilimlarni targ‘ibot qilishda ta’lim oluvchilar o‘rtasida siyosiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish bo‘yicha ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan malakalar.

2. Talabalarning o‘quv-kasbiy faoliyatini shakllantirish malakalari - ta’lim oluvchi shaxsining kasbiy yo‘nalishini shakllantirish, o‘z-o‘zini boshqarish va tarbiyalashni tashkil etish hamda o‘zaro harakatlarning vositalarini tanlash, tarbiyaviy jarayonni rivojlantirish bo‘yicha umumpedagogik malakalar.

3. Shaxs kasbiy yo‘nalishini shakllantirish malakalari ta’lim berishning aniq maqsadlarini aniqlash, o‘qitishning shakl, metod va vositalarini tanlash, pedagogik muammolarni hosil qilish, o‘quv ishlab chiqarish materiallarini tushuntirish, texnik obyektning shu usullarni namoyish etishn bo‘yicha umumpedagogik malakalardan iborat.

4. Ta’limning shakl va metodlarini tanlash malakalari o‘quv-tarbiyaviy pedagogik malakalar: o‘qishni anglashni shakllantirish, ta’lim oluvchilarning o‘quv-kasbiy faoliyatini tashkil etish, o‘zini oqlaydigan pedagogik aloqalarni o‘rnatish, jamoani tashkil etishni shakllantirish, o‘z- o‘zini boshqarishni tashkil etish.

4. Pedagog-rejissiorlik malakalari notiqlik va pedagogik rejissior malakalarini o‘z ichiga oluvchi umumpedagogik malakalar.

5. Turli nostandart pepagogik holatlarni tahlil qilish malakalari o‘quv-tarbiya jarayonga kiruvchi shaxsni va jamoani diagnostika-tashxis qilish: pedagogik holatlarni tahlil qilish; pedagogik faoliyatning muqobil modellarini tuzish, jamoa va shaxs rivojlanishini loyihalash, ta’lim va tarbiya jarayonini hamda ularning natijalarini nazorat qilishni oldindan aytib berish bo‘yicha umumpedagogik malakalar.

6. Ilg`or pedagogik tajribalarni umumlashtirish malakalari. Ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish va bir tizimga keltirish, undagi asosiylarini ajratish, pedagogik, ishlab chiqarish va muhandislik sohasidagi malakalarni hosil qilishdagi bilim malakalari.

7. Muhandislik-texnik malakalar - o‘zida 5 ta guruhdagi malakalarni umumlashtiradi: umummuhandislik, konstruktiv - texnikaviy, tashkiliy- texnologik, maxsus malakalar hamda ishlab chiqarishdagi operatsion malakalar.

8. Umummuhandislik malakalari - chizma, shakl o‘lchamlarini

o‘qish va tuzish, texnik tashxis hisob grafik ishlarini bajarish, ishlab chiqarishni iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha politexnik malakalar.

9. Konstruktiv-texnikaviy malakalar - talabalarning kasbiy ta’limini loyihalash, texnik qurilmalarning texnologik jarayonini loyihalash va konstruksiyalash.

10. Maxsus malakalar - ishlab chiqarishning biror sohasi bo‘yicha mutaxassislikning muhandislik-texnikaviy malakalari.

Shaxsning aqliy kompetensiyalarni rivojlantirish, insonning ijodiy imkoniyatlarini ochib berish uchun “Pedagogika. Psixalogiya” fani tushunchalar, xulosalar va qoidalarning tizimliligi, aniqligi va tushunarliligiga ko‘ra katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Bunda “Pedagogika Psixologiya” fanini o‘z-o‘zidan avtomatik ravishda egallash ta’lim oluvchilarning tafakkurlarini shakllantirmaydi.

Fikrlashni bilishga, fikrlash madaniyatini ifodalovchi sifatlarni rivojlantirishga maxsus o‘rgatish zarur: fikrlashning mustaqilligi, uning tanqidiyligi va o‘z-o‘ziga tanqidiylik, zakovatning maqsadga muvofiqligi, kengligi va moslashuvchanligi, xotiraning mustahkamligi, nutq va yozuvning tushunarliligi, aniqligi, ixshamligi. Faoliyat usullarini keng almashtirish, izlash yo‘nalishini qo‘yilgan vazifaga bo‘ysundirish, tanqidiy fikrlashga xos bo‘lgan, qabul qilingan fikrlashning borishini rad etish ko‘nikmasi, muammoli o‘qitishda tanqidiy fikrlashni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishimizning tajriba-sinov davomida Toshkent axborot texnalogiyalar unversiseti Farg‘ona filiali, Toshkent axborot texnalogiyalar unversiseti Samarqand filiali, Toshkent axborot texnalogiyalar unversiseti Qarshi filiali “Pedagogika. Psixologiya” fani o‘quv dasturiga “ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish” bo‘limi kiritildi. Mazkur tanlov tabiiy-ilmiy nazariyani egallash o‘z-o‘zidan yaxlit ilmiy dunyoqarashni kafolatlamaydi – buni bizga o‘rta maktab ta’limi, oliy ta’lim muassasasi fan tarixi isbotlaydi.

Shuning uchun o‘qituvchining maqsadi naqafat ta’lim oluvchilarga yosh va individual xususiyatlarni inobatga olib, chuqur bilimlarni yetkazish, materialni bayon etishni tushunarli, qiziqarli, ta’lim


oluvchilarni hayajonga soluvchi, ularning aqllariga ta’sir etuvchi qilish, balki ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash istaklarini shakllantirish va rivojlantirishga intilish hisoblanadi. Bunday yangiliklar faollikni, mustaqil fikrlashni, mustaqil ta’lim, o‘z-o‘zini tarbiyalashga intilishni qo‘zg‘atuvchi va rivojlantiruvchi fanga umumiy qiziqishni uyg‘otadi.

Ifodalangan metodik usulning samaradorligi, shuningdek, “Ta’lim falsafasi va tarixi” bo‘yicha seminarlar davomida isbotlandi, unda fanga qiziqishni uyg‘otuvshi va bilimlarni o‘zlashtirishni rag‘batlantiruvchi o‘yinli ish shakllaridan foydalanildi. Masalan, “Buni kim aytdi?” o‘yini nafaqat talabalarning bilimlarini tizimlashtiradi, balki psixologik-pedagogik rukndagi hamda umummadaniy tayyorgarlik fanlari kabi boshqa fanlar bilan aloqalarni o‘rnatib, ularni chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi. Ixtiyoriy, jumladan, yuqorida keltirilgan o‘yin muhokama etilayotgan muammoga shaxsiy elementni kiritadi. Mazkur alohida holatda, g‘oyalarga mualliflikni belgilab, masalan, talabalar fan to‘g‘risida o‘z qarashlarini, o‘rganilayotgan muammoga o‘z munosabatlarini bildiradilar va bu ehtimol oxir -oqibatda ularning pedagogik qarashlarining bir qismiga aylanishi mumkin.

Kreativlikni rivojlantiruvchi metodlar asosida talabalar kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-metodik ta’minotini ishlab chiqishni taqozo etadi. Mazkur metodik ta’minotda ratsional metodik usullar loyihalashtirildi.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini qo‘zg‘atish va rag‘batlashtirishning asosiy ratsional metodik usullari majmuidan biri – bu *oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi tomonidan materialni bayon etish davomida o‘z qarashlari, hissiyotlari, o‘zining betakror individualligini yetkazishdir*. Usuldan foydalanishning mohiyati o‘qituvchining pedagogik texnikani mukammal egallaganida mumkin bo‘lgan inson bilimlarining mahsulini ko‘rish imkonini beradigan materialni tanlashdan iborat. Mazkur usulni qo‘llashdan maqsad oliy ta’lim muassasadagi ta’limni insonparvarlashtirish hisoblanadi. Usulni qo‘llashda nafaqat ta’lim standartiga mos bo‘lgan, balki o‘qituvchining ilmiy va hayotiy qiziqishlarining mahsulini ifodalaydigan ma’ruza, seminar, laboratoriya-amaliy mashg‘ulotlar

materiallarini tanlash maqsadga muvofiq. Aynan shu D.I.Mendeleyev ma’ruzalarining talabalar orasidagi mashhurligini belgilab bergan edi. Masalan, “Pedagogika. Psixalogiya” fanini o‘qishda TATU FF “Iqtisodiyot va kasb ta’limi” kafedrasi o‘qituvchilaridan har biri talabalarga tarbiya metodlarining qaysi tasnifini keltirishni o‘zi hal etadi. Ayrim o‘qituvchilar tasniflashga turlicha yondashuvlarni keltirib, ularning fikrlariga ko‘ra optimal bo‘lganini ko‘rsatadilar, ammo bunda talabalar uchun ham bunday fikr zarurligini hisobga olmaydilar. Bunday yondashuv individual o‘qituvchilik uslubi to‘g‘risida fikr bildirishga imkon beradi.



Ideal o‘qituvchi-tarbiyachi aniqlashtirilgan obrazini shakllantirish usuli aniq bo‘lgan inson ongida mavhumlashtirish yordamida to‘liq ochib beriladi. Ideal o‘qituvchi-tarbiyachi obrazini shakllantirishning mohiyati mavhum model sifatida ideal obraz o‘qituvchi cheksiz ko‘p qirrali shaxsidagi faqat ahamiyatli tomonlarini aks ettiradi va uning aniq kompetensiyalarni aniqlash uchun yo‘l ochadi. Shuning uchun Texnika OTM talabalari uchun undan foydalanishning maqsadi o‘z-o‘zlarini, ijtimoiy-pedagogik vazifalarni bajarishga o‘z tayyorgarliklarini chuqurroq va to‘liqroq anglash hisoblanadi. Fan mashg‘ulotlarida o‘qituvchi-tarbiyachining aniqlashtirilgan ideal obrazini shakllantirish bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan ishlar samarali bo‘ldi.

O‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini takomillashtirish jarayonlarini tashkil etishda yordam ko‘rsatish maqsadida talabalarning anketa so‘rovi, test, intervyu o‘tkazilib, qiziqarli natijalarni berdi. Talabalar o‘quv yili davomida referatlar, kurs ishlari va diplom ishlari ustida

ishlaydilar. Shubhasiz, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari talabalarning o‘z-o‘zlarini takomillashtirishlari maqsadidagi ishlarning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Shunga ko‘ra biz tomonimizdan A.I.Koshetov metodikasi bo‘yicha aniqlangan pedagogik oliy ta’lim muassasasi talabalarining psixik o‘z-o‘zlarini boshqarishlari dinamikasini ko‘rsatish o‘rinli.

Shaxsning shakllanishi va rivojlanishi omillari

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tizimli o‘rganishlari, o‘quv va metodik adabiyotlar bilan ishlash hamda talabalarga uni o‘rganishda tanqidiy, tahliliy-sintetik yondashuvni o‘rgatish usulda bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarning institut pedagogik jamoasi va kutubxona fondlarida materiallarning saqlanishi va o‘z vaqtida taqdim etilishiga mas’ul xodimlari bilan hamkorliklarida to‘laqonli amalga oshadi. Bunday xususiyatdagi adabiyotlar bilan ishlashning tizimliligi talabalarning o‘zlariga, o‘qituvchilarga samarali fikrlash, tahliliy-sintetik faoliyatga qobiliyatni shakllantira olish mahoratlariga bog‘liq. Bu esa ta’lim-tarbiyaviy jarayonga va tarbiyalanuvchilarga haqiqiy ustozning insonparvarlik munosabati bilan bog‘liq. Bunda pedagoglarning ta’kidlangan ko‘nikmalari bilan bog‘liq V.A.Suxomlinskiyning pedagogik qarashlariga e’tibor qaratish o‘rinlidir.

1972 yilda nashr etilgan “Haqiqiy insonni qanday tarbiyalash kerak” qo‘llanmasida hamkasb-izdoshlarga quyidagi nasihatlarni topish mumkin: “O‘qituvchining axloqiy “Men”ning markazida uning bilimlar, aqliy mehnatga, savodxonlikka, o‘qishga, kitobga munosabatlari turadi. Ta’lim oluvchilar o‘z tarbiyachilarida aqliy faoliyatga, fanga cheksiz vafodorlikni ko‘rishlari kerak. Ta’lim oluvchilarni o‘qituvchining bilimlarga bo‘lgan mehri jalb etadi. Agar siz hurmatli bo‘lishni istasangiz, bolalarning haqiqatga yetaklovchisi bo‘ling (uni bolalar bilan birgalikda oshasiz, bolalarga esa kashfiyotchilar – ular, siz faqat ularning yordamchisi bo‘lib ko‘rinasiz). Bolalar sizning mehnatingizni ko‘proq sizning yordamingiz bilan fikrlaganlarida, haqiqatni ochganlarida his etadilar. Bolalarda bilimlarni tayyor ko‘rinishda beradigan va yodlash, yodlashni talab etadigan pedagog xafalik hissini, so‘ngra esa ichki norozilikni tug‘diradi”.

V.A.Suxomlinskiy 1970-1971 o‘quv yili uchun o‘z jamoasining umummaktab o‘quv-tarbiya ishlari rejasini tuzishda “O‘z tarbiyalanuvchilarida doimiy ravishda fikrni, ularning dunyoga shaxsiy munosabatlarini uyg‘otish lozim” deya qayd etgan. Materialga fikrlashsiz, hissiyotlarsiz (yanada yomonrog‘i befarq) munosabat, materialni o‘rganish jarayonida dalillarni chuqur shaxsiy axloqiy-hissiy baholashsiz eslab qolish katta xavfni tug‘diradi – bilimlar ong yuzasidan o‘tib ketadi, insonda qarashlar shakllanmaydi, uning boshi – shaxsning o‘ziga xos, barqaror, prinsipial, ishonchga ega aqli emas, balki bilimlarning saqlovchisiga aylanadi.

V.A.Suxomlinskiyning o‘zi – yuqori ma’naviy me’yorlar va prinsipial fuqarolik qarashlariga ega inson, bularni u o‘qituvchining tarbiyalanuvchilarga munosabatida ifodalaydi: “Insonning daxlsizligi, ta’sirchanligini asra va avayla”, “O‘z xulqing bilan haqoratlash, og‘riq, xavotir yetkazma”. Insonlar faol faoliyatdagi hatti-harakatlarga e’tibor bermay qo‘ysalar, bu mohiyati faoliyat bilan cheklanadigan amallarning miqdori ortadi. Bu insonni tarbiyalash uchun salbiy sharoitlarni yaratadi. Maktab direktori va pedagogik jamoasi tomonidan ilgari suriladigan axloqiy me’yorlar prinsipial qarashlarga aylanadi: “Bizning prinsipimiz bolani bilmasligini aniqlash emas. O‘qitishning asosiy maqsadi – bola bilishga intilishiga erishishdir”.

O‘quv-tarbiya ichiga bunday yondashuvning talqini ilmiy jihatdan haqlidir. V.A.Suxomlinskiyning ta’kidlashicha “Agar bola o‘qituvchi uning ikki bahosi to‘g‘risida ota-onalari bilishlarini va qat’iy qarorlar qabul qilishlarini istayotganligini sezganida, u o‘qituvchi va maktabga qarshi g‘azablanadi, ta’lim olish u uchun og‘ir bo‘ladi. Bundan his-tuyg‘ularning kuchayishi, achchiqlanish yuzaga kelib, ko‘pincha uning atrofdagilar bilan munosabatlariga ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘p sonli jarohatlar oxir-oqibatda shifo topadi, ammo emotsional befarqlikka olib keladi. Bolalar o‘ziga nisbatan befarq yoki adolatsiz munosabatni his qilib, yaxshilik va yomonlikka nisbatan sezgirlikni yo‘qotadilar”.

Oliy ta’lim muassasasining pedagogik jamoasi tomonidan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish, boshqarish muammosining muhimligini yana bir

bor ko‘rsatishga undaydi.

Pedagogikada innovatsion yondashuvni joriy etishda ijodkorlik faoliyatining ma’naviy, didaktik, texnologik, tashkilotchilik kabi turlaridan keng foydalanish mumkin.

Ma’naviy ijodkorlik – o‘qituvchi va o‘quvchilar orasida ma’naviy-axloqiy sohada yangi sifatli natija beruvchi takrorlanmas, o‘ziga xos yondoshuvga asoslangan faoliyat turidir.

Didaktik ijodkorlik – o‘quv materialini tanlash, loyihalash hamda o‘quvchilar o‘zlashtirishining yangi yo‘nalishlarini ishlab chiqishga asoslangan faoliyat turidir.

Texnologik ijodkorlik – yuqori natijalarga erishish imkonini beruvchi yangi tizimlar, jarayonlar va vaziyatlarni izlash hamda yaratish bilan bog`liq faoliyat turi bo‘lib, u o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini butunlay qamrab oluvchi ijodkorlikning eng murakkab turi hisoblanadi. Ushbu ijodkorlik turining o‘ziga xosligi yangilik elementlarini aniq texnologiyaga o‘tkazish, uning samaradorligini tubdan o‘zgartirishga qaratilganligi bilan izohlanadi.

Tashkilotchilik ijodkorligi – rejalashtirnsh, nazorat, resurslarni taqsimlash va safarbar qilish, tashqi muhit bilan aloqa, o‘quvchilar va o‘qituvchi orasidagi bog`lanishning yangi usullarini yaratishni tashkil qilish va boshqarishdagi ijodkorlikdir.

Sh.Sharipov tomonidan ijodkorlik tajribasi asosida kasbiy ijodkorlikning quyidagi bosqichlarda shakllantirishni ta’kidlab o‘tilgan:

1. Dastlabki (o‘quv dasturidagi ko‘rsatilgan ish-harakat usullarini bajarish davomida shakllantiriladi; namuna tariqasida, taxminiy harakatlar asosida: ko‘nikmani bajarish to‘g‘risida axborot talab etiladi).
2. Analitik (harakatlar alohida amalga oshiriladi, amalga oshiriladigan harakatlarning har tomonlama hissiy tahlili o‘tkaziladi).
3. Sintetik (dastlab alohida amalga oshirilgan harakatlar umumlashtirilgan holatda takrorlanadi va harakatlarning umumiy obrazi hosil qilinadi).
4. Avtomatlashtirish (ortiqcha harakatlar bartaraf etiladi, diqqat-e’tibor faoliyat jarayonidan natijaga qo‘shadi).

Oliy ta’lim muassasasalari talabalarining kasbiy-ijodiy


kompetensiyalarni rivojlantirishning akmeologik modeli kasbiy kompetensiyani shakllantirish strategiyalarini kreativ yo‘l xaritasiga optimallashtirish asosida takomillashtirishni taqozo etdi. Kasbiy kompetensiyani muammoli, interfaol, ijodiy, amaliy, refleksiv kabi shakllantirish strategiyalari mavjud. Kreativ yo‘l xaritasi loyiha, texnologiya hamda nazariya va amaliy kabi komponentlardan iborat.

Kasbiy kompetensiyani shakllantirish strategiyalari va kreativ yo‘l xaritasi

№	Kasbiy kompetensiyani shakllantirish strategiyalari	Kreativ yo‘l xaritasi	Kreativ yo‘l xaritasida bajariladigan harakatlar
1.	muammoli interfaol	Loyiha	Kasbiy mazmundagi muammoli vaziyat talabalarga topshiriladi, mazkur vaziyat asosida loyiha ishlab chiqiladi. Natijada talabalar o‘rtasida iterfaol munosabatlar kuzatiladi
2.	ijodiy imitasion	texnologiya	Muammoli vaziyat asosida ijodiy topshiriqlar ishlab chiqiladi, ijodiy topshiriqlarni bajarishning texnologik bosqichlarida imitasion shaklda taqdimotlar bajariladi
3.	amaliy	nazariya va tarix	Muammoli vaziyatga oid pedagogik nazariyalar bilan tanishtiriladi, tarixi tahlil etiladi, refleksiv xatti-harakatlar umumlashtirilib, xulosa qilinadi

Kreativ pedagogik texnologiyalarni joriy etishda hamkorlik va hamjihatlik; avtodidaktikaning ustuvorligi; rivojlantiruvchi ta’lim tamoyillarga rioya etiladi. Taklif etilayotgan texnologiyani ikki yo‘nalishdagi yondashuv asosida joriy qilish mumkin:

Amaliy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondashuvi. Bunday yondashuv doirasida ta’lim oluvchilar kasbiy ijodkorligini tashkil etish va rivojlantirishning kreativ pedagogik texnologiyalari yangi amaliy-tatbiqiy ma’lumotlarni yig‘ish bilan tavsiflanadi.



Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning akmeologik modeli zaruriyati

Nazariy bilishga asoslangan izlanuvchanlik yondashuvi. Ushbu yondashuvda asosiy e'tibor a'lim oluvchilar kasbiy ijodkorligi yangi nazariy bilimlarni hamda bilim sohalarini qidirishga qaratiladi. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini bu taxlitda amalga oshirish ta'lim oluvchilarni kasb-hunar olami to'g'risidagi tasavvurlarini o'stirishga, o'z izlanishlarini to'g'ri tanlash bilan tavsiflanadi.

Akmeologik modelda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Davlat ta'lim standartlari Malaka, ish beruvchi tashkilotlar, bozor

iqtisodiyotining o‘zgaruvchan zamonaviy talablari asosida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadi belgilandi.

Talabalar kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik jarayoni yondashuvlar (komponentli, akmeologik, faoliyatli), omillar (kompetentlilik yo‘nalganlik tipi, qobiliyat darajasi) hamda tamoyillar (insonparvarlik, fundamentallik, idrok qilish, natijalarda yaxlitlik) asosida loyihalashtirildi.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tayyorgarlik, asosiy va yakunlovchi bosqichlarda rivojlantirildi. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida zamonaviy innovatsion ta’lim texnologiyalaridan Smart, Sase-study, o‘quv loyiha, o‘yin texnologiyasidan foydalanildi. Reproduktiv, produktiv, kreativ kabi rivojlantirish mezonlari orqali kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlanganlik darajasi aniqlandi. Natijada kasbiy-ijodiy kompetensiyalarga ega kompetentli shaxs shakllanishi rejalashtirildi.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining dinamikasini ifodalovchi bosqichlar quyidagicha ekanligiga ishonch hosil qildik:

1) o‘qituvchi vaziyatida tasdiqlanish bosqichi;

2) bo‘lajak o‘qituvchi-tarbiyachi shaxsidagi o‘zgarishlarni dasturlashtirish bosqichi;


3) o‘zgarish bo‘yicha haqiqiy xatti-harakatlar bosqichi (amaliyotda, haqiqiy xatoliklarda shakllantiriladi);

4) nutq va tasavvur bosqichi (“agar... bo‘lsa”);

5) mashq qilish bosqichi (ko‘nikmalar, hatti-harakatlar, odatlar, shaxs sifatlarining hosil bo‘lishi).

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini tashkil etish vositalari talabalar va o‘qituvchilar faoliyatlarining barcha komponentlari bilan aloqadordir. Ular qo‘yilgan maqsad bilan, ifodalayotgan jarayonni tashkil etish metodlari, shakllariga bog‘liq va shaxsning rivojlanishiga ahamiyatli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur vositalar faoliyatning boshqa komponentlari bilan aloqasi kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida yuzaga keladi va uning rivojlanishi bilan o‘zgarib boradi. Kompetensiyalarning muayyan


darajasi uchun dolzarb hisoblangan vazifalarni hal etish bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rta muddatli maqsadlarni belgilash kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining optimalligini ta’minlochi vositalar majmuini aniqlashtirishga imkon beradi. O‘qituvchi tomonidan ham va o‘z-o‘zini takomillashtiruvchi va o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi talaba tomonidan ham belgilanadigan joriy maqsadlar vositalar to‘plamidan eng samaralisini ajratish va ularning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida qo‘llash imkonini beradi. Shu bilan birga insonning tug‘ma sifat kompetensiyalarni quyidagi rasm asosida ko‘rib chiqish mumkin.



Shaxsning tug‘ma sifat kompetensiyalari

Kompetensiyalar – bu har odamning biron-bir faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi yuzasidan shaxsiy pedagogik-psixologik xususiyatlari hisoblanadi. Bu kompetensiyalar shaxsning bilim, ko‘nikma va malakalariga mansub emas, ammo ularni hosil qilish tezligi va osonligiga aniq bir darajada yo‘l beradi. Kasbiy-ijodiy kompetensiyalar to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish va o‘z ustida ishlash, katta mehnat qilish natijasida shaxs yuqori darajalarga chiqishi mumkin. Pedagog uchun asosiy kasbiy-me`yoriy ko‘rsatkich – bu birinchi navbatda o‘z holatini pedagogik jarayonda bunyodkor sifatida his etishi va anglab yetishidir. Pedagog o‘zining ish faoliyatiga xususiy kasbiy yaroqliligini, pedagogik voqelikdagi o‘z o‘rnini baholay olmas ekan, undan hech qachon ijodkorlikni talab qilib bo‘lmaydi. Demak, pedagogik faoliyatga kirib kelayotgan har bir talaba unga moslashuchanligini, shu kasbga layoqati, qiziqishi borligini to‘liq tasavvur etishi kerak.

Ta’lim – boshqariladigan jarayon bo‘lib, uning natijasi ko‘p jihatdan tayyorlangan didaktik loyihaga bog‘liq. Didaktik loyiha esa ta’lim texnologiyasining mahsulidir. O‘quvchi-talabalarning bilish faoliyatini didaktik loyihaga ko‘ra boshqarish ta’lim texnologiyasining pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari mavjud. Didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo‘lgan masofada ta’limning samarali usullari va vositalari ko‘p topiladi. Didaktik loyihani tayyorlash va uni amalga oshirish jarayonlarini chizma shaklida ko‘rishimiz mumkin.



Didaktik loyihani tayyorlash va uni amalga oshirish jarayonlari

Ijodiy individuallikni, bo‘lajak pedagogning shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini aniqlashi imkoniyatlarini rivojlantirish usulini qo‘llashdan maqsad talabalarning kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishdan iborat. Mazkur usulni amaliyotda qo‘llash talabalarning ijodiy faolliklarini uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutadi. AndMIda har yili o‘tkaziladigan fan kunlari mazkur usulning samaradorligi to‘g‘risida guvohlik beradi. Deyarli har bir kafedrada o‘n nafardan ziyod talabalar qatnashadilar, ularning har biri ilmiy rahbar bilan hamkorlikda tanlangan mavzularning ijodiy ishlab chiqilishini amalga oshiradilar va buning natijasida o‘rganilgan muammo bo‘yicha seksiyada ilmiy xabar yoki ma’ruza bilan qatnashadilar.

Yozgi sog‘lomlashtirish lagerlaridagi pedagogik amaliyot mazkur usulni amalga oshirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. Masalan, maktab qoshidagi yozgi lagerning rahbari hisoblanib, “talabalarning qanday ishlari, kichik bolalarga qanday g‘amxo‘rlik qilishlari, kattalarni nazorat qilishlarini ko‘rib, biri ishlashni istashini,

boshqasida haqiqiy pedagogik iqtidor, bunisi esa – shunchaki foydasizligi va bolalarga u bilan zerikarli ekanligini darhol payqash mumkin” kabilarni ta’kidlaydi.

“Ta’lim oluvchi gazeta, ilmiy-ommapob adabiyotni qanchalik kam o‘qisa (yodlab olish maqsadida emas), u shunchalik kam o‘ylaydi, fan asoslarini egallashi qiyinlashadi”. Aksincha, agar ta’lim oluvchi uchinchi sinfdan bolalar gazetalari, jurnallarini o‘qisa, agar u to‘garakda qiziqish bilan ishlasa, bolalar texnika seksiyasidagi ma’ruzalarni tinglasa, masalan, sinfdan tashqari ishlarda kundalik yuritsa, tajribalar o‘tkazsa, modellar ishlab chiqsa, unda bunday o‘quvchiga bilish olish oson bo‘ladi, u uy vazifalarini tayyorlashga boshqalarga nisbatan kamroq vaqt sarflaydi, darslarda doim dastur doirasidan chiquvchi savollar beradi.

Rasmiy yondashuv va talaba-yoshlarning intellektual imkoniyatlari darajasining pasayishi holatini tasdiqlanishi o‘rtasidagi aniqlangan bog‘liqlikni anglash maktab direktorini quyidagi xulosalarga olib keladi: “Ajoyib holat yuz beradi, ta’lim oluvchi qanchalik ko‘p ishlasa – o‘qisa, fikrlasa, kuzatsa – u o‘quv mehnatining mashaqqatini shunchalik kamroq his etadi; ortiqcha yuklama esa o‘quvchi haqiqiy aqliy mehnat bilan kam mashg‘ul bo‘lganligi uchun yuzaga keladi. Shunga ko‘ra, ortiqcha yuklama o‘zlashtirish shart bo‘lgan bilimlar doirasining mexanik ravishda ortishi yoki kamayishi tufayli yuzaga kelmaydi. Ortiqcha yuklamani bartaraf etish dasturdan u yoki bu bo‘limlarni olib tashlashda va ayniqsa haftaning qaysidir kunlari topshiriq bermaslikda emasdir. Ortiqcha yuklamani bartaraf etish hal etuvchi darajada o‘quvchi shug‘ullanadigan aqliy faoliyatning mazmuni, xarakteriga bog‘liq”.

V.A.Suxomlinskiy dolzarb hisoblangan muammo yechimining ko‘rinishidan sodda va shu bilan birga umumdavlat miqyosida o‘quv-tarbiya vaziyatini tubdan o‘zgartiruvchi o‘z yo‘nalishini taklif etadi: maktabning ta’lim-tarbiya faoliyatining oldiga o‘quvchilarnining ehtiyojli-motivatsion, intellektual-dunyoqarashli, emotsional-irodaviy hamda faoliyatli-xulqiy sohalarini bir usulda qamrab oluvchi umumshaxsiy takomillashtirishni umumiy, maqsadga yo‘naltirilgan va

muntazam ravishda olib chiqish kerak. Bunday mustahkam asosda ta’lim oluvchilardagi mavjud ijtimoiy-tarixiy sharoitlar talab etadigan shaxs sifatlarini, birinchi navbatda – moslashuvchan va ta’sirli fikrlash qobiliyatini osonlik bilan shakllantirish mumkin.

Buyuk pedagog “Ta’lim oluvchi yodlab olish va eslab qolish uchun emas, balki shunchaki qiziqishi tufayli – unga majburiy o‘zlashtirish uchun taklif etiladiganidan o‘n, yigirma marta ko‘proq o‘qishi, tinglashi, fikrlashiga erishish lozim. Fizika darslarida atomning tuzilishi to‘g‘risida ilk bor tinglashdan avval, u elementar parchalar to‘g‘risida qiziqarli maqolalarni o‘qishi kerak. Bu maqolalardagi ko‘pgina ma’lumotlar uning uchun tushunarli bo‘lmaganda darslarda o‘rganiladigan materialga qiziqish shunchalik chuqur bo‘ladi. Adabiyot darsida badiiy asarni o‘rganishdan avval o‘quvchi uni o‘qib chiqishi va asosiysi unda bu axloqiy va estetik his-tuyg‘ularni uyg‘otishi kerak” deb ta’kidlaydi. Uning o‘z tajribasidan kelib chiqqan xulosalari va ular asosida tuzilgan amaliy-metodik qoidalar P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, S.L.Rubinshteyn, Yu.A.Samarin, S.T.Shaskiy kabi psixologlarning tegishli g‘oyalari bilan bog‘lanadi.

U “O‘qishning asosi sifatidagi boy aqliy hayot shaxsning maxsus aqliy qiziqishi, individual layoqatlari, moyilliklari, kompetensiyalarni ochish bilan bog‘liq qiziqishsiz mumkin emas. Har bir o‘quvchida uning aqli va qalbini egallaydigan o‘z qiziqishlari, o‘z kitoblari, u o‘z fikrlari bilan o‘rtoqlasha oladigan katta do‘sti bo‘lishi kerak. Agar pedagogik jamoa ta’lim oluvchilar majburiy materialni o‘rganib ortiqcha yuklamani his qilmasliklarini istasa, u ta’lim oluvchilarning aqliy qiziqishlarini shakllantirish va rivojlantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishi kerak”.

Bizning bugungi kundagi ta’lim tizimining turli bo‘g‘inlaridagi ta’lim-tarbiyaviy amaliyotimiz buyuk pedagog qarashlarining haqqoniyligi va ularning dolzarbligini to‘liq tasdiqlaydi. Ta’lim oluvchilarning intellektual rivojlanishlarini takomillashtirishga oid uning umumlashgan xulosasi quyidagilardan iborat: “O‘qitish jarayonini qayta qurish vaqti keldi – bunda aqliy urinishlarning ahamiyatsiz qismi eslab qolish va asosiy urinishlar bilimlarni anglash, mustaqil izlab topishga, bilimlarni egallash jarayoni aqliy mehnatning yakuniy maqsadi bo‘lib

qolmasligi, olamni bilish va uni o‘zgartirish vositasiga aylanishiga yo‘naltirilishi kerak. O‘qitishning mazkur ijodiy, tadqiqotchilik tomoni qanchalik yorqin ifodalansa, o‘quvchining xotirasi shunchalik yaxshi rivojlanadi, mustahkamlanadi va boyib boradi”.

U tomonidan mazkur muammo bo‘yicha e’lon qilingan tavsiyalarning namunasi bo‘lib quyidagilar xizmat qilishi mumkin: “Bizning kunlarimizda mavjud bo‘lgan bir tomonlama, eskirgan bilimlarni tekshirishdan – ta’lim oluvchi o‘qiganini yoki o‘qituvchidan eshitganini qaytaradigan, o‘qituvchi esa o‘quvchi kitobga qarab aytmayotganligi diqqat bilan kuzatadigan so‘rovdan voz keshish lozim. Ta’lim oluvchining bilimlarini kitob bilan ishlash jarayonida tekshirish, bir masala bo‘yicha bir neshta kitoblarni berish kerak – u insoniyatga allaqachon ma’lum bo‘lgan ko‘pgina haqiqatlardan, bilimning zarrasini topsin va aynan mazkur zarrani izlab topish ko‘nikmasi tekshirilishi kerak. Ko‘pgina haqiqatlar ta’lim oluvchining ongidan o‘tadi, ammo quruq esda qolishi uchun emas, balki o‘quvchi izlayotganini – o‘z fikrini ajratishi uchun o‘tadi. Agar inson bu tarzda ta’lim olsa, u hozirgi vaqtda anglaganidan ko‘ra o‘n barobar ko‘proq anglashi mumkin va hech qanday ortiqcha yuklama yuz bermaydi”.

V.A.Suxomlinskiy o‘quv-tarbiya jarayonini qayta qurishning ikkinchi jihatini o‘quvchilarning emotsional-irodaviy sohalarini shakllantirishga o‘qituvchi-tarbiyachi munosabatining ustunligida ko‘radi. S.Soloveyshik “Fuqaroning tug‘ilishi” kitobining mazmunini tahlil qilib, ishdan parchalarni keltiradi: “His-tuyg‘ularni tarbiyalash – bu his-tuyg‘ular to‘g‘risida so‘zlash yoki ularni bilishga o‘rgatishgani kabi boshdan kechirishni o‘rgatish emas... his-tuyg‘uga olib borish kerak...., hissiyotni uyg‘otish kerak”. Bu haqidagi qisqacha xulosa: “Sodda, dastlabki ijtimoiy his-tuyg‘ular asosida butun bino quriladi. Haqiqatda, agar bola butun tirik va go‘zal mavjudotga rahm qilmasa, agar boshqalarning tashvishlari va qiyinchiliklari uning qalbiga ta’sir qilmasa – uni qanday tarbiyalash mumkin? His qilishga o‘rgatish uchun – uni hamdardlikka o‘rgatish kerak” hamda his-tuyg‘ularni tarbiyalash uchun bolani o‘rab turgan adolatlilik muhiti ayniqsa muhimdir. Adolatlilik – dunyodagi eng yaxshi tarbiyashi. Suxomlinskiy “Adolat

bolaning ko‘zi va yuragini go‘zallika ochish ajoyib xususiyatiga ega. Maktab agar unda adolat hukm surmasa, yaxshi his-tuyg‘ular maktabi bo‘lmay qoladi” deb yozadi.

Yuqorida ifodalangan tavsiyalar, ko‘rsatmalarni maktab va oliy ta’lim muassasa darajalarida qo‘llash ta’lim oluvchilarimizning o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishlarida umumiy kasbiy tayyorgarliklarini yaxshilashga ko‘maklashadi.

Shahar, hudud, mamlakat, umuman dunyoni o‘rab turgan tarbiyaviy-rivojlantiruvshi imkoniyatidan foydalanish, shuningdek, OAV taqdim etadigan imkoniyatlarni amalga oshirish usulining mohiyati qator kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida talabalarni o‘rab turgan sharoitlar, hududning ijtimoiy hayotida ishtirok etish bilan taqdim etiladigan materialdan foydalanishdan iborat. Masalan, OAVda hududning hayotiga taalluqli bo‘lgan va talabalarning manfaatlariga aloqador bo‘lgan bahsli masalalarni muhokama etish talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni, shuningdek, muhokama etiladigan masalaning xususiyatiga ko‘ra tadqiqotchilik va ilmiy-bilishga oid kompetensiyalarni rivojlantiradi.

Talabalarning pedagogik amaliyotga chiqishlari shaharning ko‘pgina maktablarida xursandchilik bilan qabul qilinadi. Asaka shahri litsey direktori, xalq ta’limi a’lochisi D.Mo‘minov bu haqida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Ularning tashriflari bilan ta’lim muassasasining hayoti xuddi yangi quvvat oladi va ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ishlashda faollashadi”. Shu bilan birga bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarning o‘zlari kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishda yangi turtki oladilar va ularning kelishlari bilan shunday o‘zgaradigan maktab hayotidagidan ham serg‘ayratliroq bo‘ladilar.

O‘*qituvchi-talabalar jamoasining umuminstitut va fakultet miqyosidagi ta’lim olishi va hayot faoliyati uslubini ma’naviy boyituvchi tashkil etish usulining* mohiyati bugungi kunda shaxsiy yondashuv asosida oliy ta’lim muassasasi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdan iboratdir. Maqsadi yoshlarni umuminsoniy, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni egallashga yo‘naltiradigan shaxslararo munosabatlar

xarakterini o‘rnatish hisoblanadi. Mazkur masala P.V.Konanixin, N.P.Lyashkolarning ishlarida o‘rganilgan.

Shu tariqa, biz tomonimizdan tadqiqot davomida o‘zini kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishni qo‘zg‘atuvchi va rag‘batlantiruvchi sifatida namoyon etgan ratsional metodik usullar ajratildi.

§ 2.2. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning usul va vositalari

Inson – murakkab dinamik tuzilishga egadir. U butun umri davomida o‘zgaradi, ammo u bilan yoshlik davrida sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar haqiqatda ahamiyatli. K.D.Ushinskiy ta’kidlaganidek: “Biz inson hayotidagi 16 yoshdan 22-23 yoshgacha bo‘lgan davrni eng hal qiluvchi deb hisoblaymiz. Bunda aynan alohida tasavvurlar izchilligining davri yakunlanadi va agar ularning barchasi bo‘lmasa, unda insonning fikrlash tarzi va uning xarakteridagi muayyan yo‘nalishning ustuvorligini hosil qilish uchun ahamiyatli qismi yetarlicha keng bir tarmoqqa guruhlanadi”. Shuning uchun ham pedagogning roli bu qadar muhim bo‘lib, uning vazifasi bu davrni talabalarda mukamallikka intilishni uyg‘otish uchun foydalanishdan iborat bo‘ladi.

Shaxsni takomillashtirish – insoniyat ma’naviy hayotining azaliy muammosidir. Bu muammo ustida barcha davrlarning atoqli namoyondalari fikrlaganlar, ular orasida Sokrat, Platon, Aristotel, Mark Avreliy, J.J.Russo, Gelvesiy, Didro, G.Gyote, F.Bekon, I.Kant, Gegel, A.Kamyu, Sartr, Xaydegger, N.A.Berdyayev, F.M.Dostoyevskiy, V.V.Zenkovskiy, I.A.Ilin, V.O.Klyushevskiy, N.I.Lobashevskiy, M.V.Lomonosov, N.O.Losskiy, B.S.Solovyev, L.N.Tolstoy, K.D.Ushinskiy, P.A.Florenskiy, S.L.Frank va boshqa buyuk mutafakkirlar, pedagoglardir.

Shaxsni takomillashirish atamasi pedagogikadagi tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi asosiy tushunchalar bilan bevosita o‘zaro bog‘liqlikda yotadi. Uzoq vaqt davomida mazkur ilmiy atamalar faqatgina maktab va avvalo maktab yoshidagi o‘quvchilarga taalluqli muammolarga aloqador ravishda foydalanildi. Ijtimoiy-psixologik va yoshga oid kategoriya sifatida talabalik muammosi B.G. Ananyevning psixologik maktabi tomonidan qo‘yilgan. Ammo boshqa mualliflarning ishlarida ham mazkur muammo bo‘yicha kuzatishlarning katta empirik materiallari, eksperimental va nazariy umumlashtirishlarning natijalari to‘plangandir.

Bu mutaxassislarni tayyorlashni takomillashtirish sohasidagi

muhim qadam bo‘ldi, chunki jamiyatning alohida kategoriyasi sifatida o‘zining maxsus psixofiziologik ma’lumotlari bilan talabalikning yuzaga kelgan dastlabki tavsifi talabalikning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni qo‘zg‘atish va rag‘batlantirishning samarali metodlari, usullarini izlash va ratsional foydalanish zaruratini ko‘rish imkonini berdi.

“Talabalik – alohida ijtimoiy kategoriya bo‘lib, oliy (institut yoki universitet) ta’lim muassasasiga tashkiliy birlashtirilgan insonlarning o‘ziga xos birligidir”. Bu tarixiy ijtimoiy-kasbiy kategoriya XI-XII asrlarda dastlabki universitetlarning yuzaga kelishi bilan paydo bo‘lgan.

Ijtimoiy-psixologik jihatdan talabalik yuqori ta’limiy daraja, madaniyat mahsulotlaridan faolroq foydalanish, bilishga oid motivatsiyaning yuqoriroq darajasi bilan farqlanadi. Shu bilan birga – ko‘proq ijtimoiy faollik, yetarlicha uyg‘un ijtimoiy va intellektual yetuklikning umumiyligi bilan tavsiflanuvchi birlikdir. Bu xususiyatni inobatga olish o‘qituvchining har bir talabaga – pedagogik muloqot bo‘yicha hamkorga, o‘qituvchi uchun qiziqarli shaxsga hurmatli munosabat asosida yotishi kerak. Shaxsiy-faoliyatli yondashuvga ko‘ra talaba o‘qitishning passiv obyekti sifatida emas, balki pedagogik muloqotning faol subyekti sifatida qaraladi. Talabalikka psixofiziologik tavsif berib, yoshlikning – 17 yoshdan 25 yoshgasha erta yetuklikning alohida davri ekanligini ta’kidlash lozim. Mazkur davr, o‘z navbatida V.Selivanovning fikriga ko‘ra, ikki davrga ajratiladi: 17 yoshdan 19 yoshgacha (odatda, 1 va 2 bosqich) hamda 19, 20 yoshdan 25 yoshgacha (yuqori bosqich talabalari).

“Ko‘pgina tadqiqotchilar insonning rivojlanishi jarayonini bu yoshda funksional ishlash qobiliyati va samaradorligining uzluksiz o‘sib borishi, biror-bir pasayish va funksiyalarning barqarorsiz progressiv harakatlanish dinamikasi sifatida tavsiflaydilar”.

Bu vaqtda egallanadigan bilimlarni tartibga solish, to‘plash, saqlash, mantiqiy qayta tasniflashtirish, ularni amaliy faoliyatga ko‘chirish jarayoni jadal sodir bo‘ladi.

B.G.Ananyevning psixologik maktabining ma’lumotlariga ko‘ra, intellektning tuzilmasi butun yosh davrida rivojlanish jarayonida emas, balki talabalik yosh davrida ham dinamik ravishda o‘zgaradi. 18-21

yoshda turli xil psixik funksiyalarning korrelyasion guruhi (xotira, tafakkur, idrok, diqqat) aloqalar zanjiri koʻrinishida xizmat qiladi, 22-25 yoshda esa ikki - mnemologik (xotira – tafakkurning yagona tuzilishi) va diqqat omili markazlar atrofida guruhlanadigan murakkab tarmoqda kompleks hosil boʻladi.

Oliy ta’lim muassasadagi ta’lim olish intellektning tuzilmaviy hosil boʻlishiga koʻmaklashib, shu bilan bir vaqtda uning ishlashining xususiyatlariga asoslanadi. Shunday qilib, talabalik yillarida diqqat omilining roli oʻsishi koʻrsatilgan (18-21 yoshda u korrelyasion aloqalarning soni, kuchi boʻyicha toʻrtinchi oʻrinni, 20-25 yoshda esa ikkinchi oʻrinni egallaydi). 18-21 yosh davri xotira hajmining eng kishik hajmi bilan, uning konsentratsiyasi darajasining oshishi bilan tavsiflanadi. 22 yoshdan boshlab diqqatning barqarorligining kuchayishi oshadi. Bu oʻquv jarayonida talabalarning diqqatlarini tashkil etish ustida maqsadga muvofiq ishlashning muhimligi toʻgʻrisida guvohlik beradi.

Tafakkur va xotiraning rivojlanishi yaqin va bilvosita bogʻliqdir. 19-24 yoshda xotira funksiyalari mantiqiylaridan ilgarilaydi, 20, 23, 25 yoshda esa aksincha holat kuzatiladi. 22 yoshda va 26 yoshda ikkala funksiyalarining sezilarli pasayishi kuzatiladi. 28-29 yosh davri fikrlash funksiyalarining nisbatan barqarorlashishi bilan tavsiflanadi.

B.G.Ananyevning psixologik maktabi tadqiqotchilari tomonidan olingan ma’lumotlar talabalik yosh davri – bu intellektning murakkab tasniflash vaqti boʻlib, u juda individual va variativligidan guvohlik beradi. Intellektning yoshlikda rivojlanishi esa, ijodiy kompetensiyalar bilan bogʻliqdir. Yuqorida bayon etilgandan oliy ta’lim muassasasi oʻqituvchisining oʻquv faoliyatining subyekti sifatida talabani shakllantirishdagi mas’uliyatli roli aniq namoyon boʻladi.

Tadqiqot ishimizning vazifalariga koʻra bizni koʻproq qiziqtiruvchi talabalarning kasbiy-ijodiy qobilitlarini rivojlantirish muammosi zamonaviy oʻqituvchining idealini koʻrish toʻgʻrisidagi masalaga bevosita bogʻliq boʻlib, uni turli davrlarda turlicha izohlaganlar. Oʻqituvchining jamiyatdagi ahamiyati toʻgʻrisida barcha davrlardagi faylasuflar, pedagoglar, buyuk insonlar yozganlar. Bunda ular alohida

shaxs tavsiflarini ajratishga intilganlar, ularning fikrlariga koʻra bu shaxs tavsiflarisiz taʼlim va tarbiya ishida muvaffaqiyatga erishib boʻlmaydi.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida yopiq imtiyozli jamoani tashkil etgan ruhoniylar oʻqituvchilar boʻlganlar. Qadimgi Gresiya davlatlarida oʻqituvchilar etib eng tajribali va hurmatga ega fuqarolar, faylasuflar va sofistlar tayinlanganlar. Suqrot oʻqituvchining ishini farzandni dunyoga keltirish sanʼati bilan qiyoslagan, chunki tarbiyalanuvchi oʻqituvchi oʻzining ikkinchi tugʻilganligi bilan qarzdor. Rim pedagogi Kvintilian yuqori maʼlumotli inson va bolalarni sevadigan, ularni oʻrganadigan inson boʻlishi mumkin deb yozgan. Oʻqituvchi bosiq, odobli boʻlishi, maqtov va jazolashning meʼyorini bilishi kerak boʻlgan. Oʻrta asrlardan oʻqituvchilarni universitetlar tayyorlay boshladi. Boʻlajak oʻqituvchilarga bolalarni maktabda oʻqitishning muvaffaqiyati qatʼiylik va dangasa hamda quloqsizlarni jazolashni bilishga bogʻliqligi toʻgʻrisidagi fikrni singdirganlar. Universitetni bitirishda oʻqituvchiga novdani taqdim etishgan.

Uygʻonish davrida yaxshi oʻqituvchining namunasi insonparvar-pedagog, donishmand ustozga aylandi. Vittorino da Feltrening (1378-1446) “Quvonch uyi”da shunday boʻlgan. Hayotdan ajralgan va jismoniy jazolash bilan tarbiyalovchi oʻqituvchi- satiralar – insonparvar-yozuvchilarning asarlaridagi takrorlanuvchi motiv boʻlgan.

Oʻsha davrdagi ideal oʻqituvchining yorqin obrazi buyuk pedagog Ya. A.Komenskiyning ishlarida ifodalangan. U oʻqituvchi lavozimini “quyosh ostidagi boshqa hech bir kasbda boʻlmaganidek eng yaxshi” deb hisoblagan. Bunda oʻqituvchi tartib-intizomni “qatʼiy saqlashi, ammo kulgi va nafrat emas, balki qoʻrquv va hurmat uygʻotishi uchun hazilomus yoki gʻazabli boʻlmasligi kerak. Oʻqituvchining asosiy vazifasi oʻquvchilarni yaxshi namuna bilan jalb etishdan iborat”.

XVIII asr maʼrifatparvarlari oʻqituvchining ideal obraziga oʻz tuzatishlarini kiritganlar. J.J.Russo “Emil yoki tarbiya haqida” nomli romanida oʻzining obrazi boʻyicha oʻquvchining qiyofasini tasvirlayotgan ideal tarbiyashini ifodalaydi. Russoning fikriga koʻra, oʻqituvchi insoniy kamchiliklardan holi boʻlishi va axloqi jihatdan jamiyatning barcha aʼzolaridan yuqori turishi kerak boʻlgan.

Shvetsariyalik pedagog I.G.Pestalossi o‘z g‘oyalarini amaliy faoliyatda amalga oshirib, tarbiyada tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning mehrlari va hamjihatliliklari ustunlik qilishi kerakligini isbotlashga intilgan. Ortiqcha cheklashlar va bolaga zo‘ravonlik bilan avtoritar tuzumga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. O‘qituvchining zaruriy sifatlari orasida u topqirlik, quvnoqlik, kamtarinlik, axloqiy poklikni ta’kidlagan. Insonni shakllantirish ichiga “tarbiyasidan hunarmandlarni” kiritish mumkin emas, balki o‘qituvchilarni maxsus muassasalarda tayyorlash lozim.

O‘qituvchiga talablar nemis pedagogi A.Disterveg ishlarida ham bayon etilgan. Uning fikricha o‘qituvchi o‘z fanini mukammal bilishi, kasbini, bolalarni sevishi, mehribon, serg‘ayrat, irodali, qat’iy bo‘lishi, o‘z ustida doimiy ishlashi lozim. O‘qituvchi uchun qat’iylik, talabchanlik, adolatlilik muhimdir. U fuqaro bo‘lishga majbur, ilg‘or g‘oyalarga ega, ularni himoyalay olishni bilishi kerak.

Buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy o‘qituvchi shaxsiga katta ahamiyat qaratgan: “O‘qituvchi shaxsining yosh qalbga ta’siri shunday tarbiyaviy kuchni tashkil etadiki, uni na darsliklar, na ma’naviy tushunchalar, na jazolash va rag‘batlantirish tizimi bilan almashtirib bo‘lmaydi”.

O‘qituvchi shaxsiga, uning axloqiy qiyofasiga qarashlarning rivojlanishidagi sifatli yangi bosqich A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, F.M.Dostoyevskiy nomlari bilan bog‘liq. Insonni ijodiy takomillashtirishning beqiyos imkoniyatlariga, ya’ni shaxs sifatida o‘qituvchiga N.A.Berdyayev, B.S.Solovyev, P.A.Florenskiylarning ishlari bag‘ishlangan. Shaxsga kasbiy-etik qarashlarni kelgusi ishlab chiqilishida A.S.Makarenko, keyinchalik V.A.Suxomlinskiy tomonidan o‘qituvchining axloqiy qiyofasiga talablar aniqlashtirilgan.

A.S.Makarenko tarbiyachining tarbiyalanuvchilar jamoasi bilan hamkorligi g‘oyasini asoslab bergan, bunda o‘qituvchining maqsadga intiluvchanlik, pedagogik axloq, talabchanlik, shaxsga hurmat, do‘stona o‘zaro yordam, o‘zaro ishonch va mas’uliyat kabi shaxs sifatlari zarur deb hisoblagan.

V.A.Suxomlinskiy ijtimoiy ta’lim muassasasining tarbiyaviy faoliyatining muvaffaqiyati bolalar, tarbiyalanuvchilarga o‘z yuragini

beruvchi, bolalarni sevuvchi va har bir boladan haqiqiy insonni, o‘z mamlakatining fuqarosini tarbiyalash mumkin deb ishonuvchi o‘qituvchiga bog‘liq deb hisoblagan. O‘qituvchi o‘z tarbiyalanuvchilarini jamoaviy o‘z-o‘zini tarbiyalash tizimiga jalb qilishni bilishi, ularni o‘z-o‘zlarini tarbiyalashga o‘rgatishi kerak – Suxomlinskiyning fikriga ko‘ra, maktab hayotining markaziy muammolaridan biri shundan iboratdir.

Pedagogik ta’lim nazariyasi rivojlanishining zamonaviy bosqichi o‘qituvchi muammosi bo‘yicha monografik tadqiqotlarning yuzaga kelishi bilan tavsiflanadi. Shaxs psixologiyasi va o‘qituvchini tayyorlashga bag‘ishlangan qator yirik tadqiqotlar amalga oshirilgan (F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina, V.A.Slastenin, A.I.Sherbakov).

Bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash nazariyasiga ma’lum hissani O.A.Abdullina, Yu.P.Azarov, N.V.Aleksandrov, N.I.Boldirev, E.A.Grishin, T.A.Ilina, E.G.Kostyashkin, A.A.Lyublinskaya, I.G.Ogorodnikov, A.V.Ososkov, F.N.Panashin, A.I.Piskunov, V.K.Rozov, N.V.Savin, I.A.Solovkov, R.I.Xmelyuk, N.M.Navayshik va boshqalarning tadqiqotlari kiritgan.

Bo‘lajak o‘qituvchini tayyorlash, uning kasbiy mahorati masalalari B.R.Aymambetova, L.M.Axmetzyanova, B.N.Bondarevskaya, G.I.Gusev, A.A.Derkash, T.S.Derkash, V.K.Yelmanova, G.P.Kolev, V.N.Kotlyar, I.I.Naximov, S.S.Ovshinnikoa, V.I.Pilipenko, O.N.Rufina va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Mazkur o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha B.G.Ananyev, L.I.Bojovish, T.V.Dragunova, A.G.Kovalev, V.A.Kruteskiy, N.D.Levitov, A.V.Petrovskiy, K.K.Platonov, I.V.Straxov, D.B.Elkonin va boshqa psixologlarning ishlari ahamiyatli hisoblanadi.

O‘qituvchi amalga oshiradigan tarbiyaning mazmuni turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda turlichadir. Ammo o‘qituvchi doim jamiyatning ma’naviy rivojlanishi tarixida muhim bo‘g‘in bo‘lgan. O‘qituvchining faoliyati – eng murkkab va qiyindir. O‘qituvchining mehnatiga bola bilimlar olamiga, mehnat va hayot olamiga qanday kirib borishi ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

O‘qituvchilarga nafaqat o‘rgatish va tarbiyalash, balki ko‘pincha

qayta tarbiyalash, oilada, bolaning atrofidagi muhitda orttirilgan kamchiliklarni tuzatishga ham to‘g‘ri keladi. Bunga bizni qamrab olgan turli xil axborotlar oqimi tufayli bolalar yildan yilga yanada zakovatli, qiziquvchan bo‘lib borayotganliklari, ularning madaniy talablari ortib borayotganligini qo‘shimcha qilish lozim. Bularning barchasini inobatga olib, o‘qituvchi unga hayot tomonidan qo‘yilayotgan doimiy o‘zgarib boruvchi talablarga javob berishi borgan sari qiyinlashmoqda. Pedagogning ishi shaxsda katta kuch, katta imkoniyatlarni talab etadi, hech bir boshqa kasb o‘zida idealni amalga oshirish talablarini bunchalik yaqqol qo‘ymaydi.

O‘qituvchiga zamonaviy talablar ko‘pgina tadqiqotchilarning ishlarida bayon etiladi. Ular ideal pedagogning mavhum obrazida to‘liqroq aks etadi, bu o‘qituvchini tayyorlashning maqsadini yaxshiroq tushunishga imkon beradi. Misol bo‘lib L.F.Spirin tomonidan taklif etilgan umumpedagogik professiogramma xizmat qilishi mumkin bo‘lib, unda kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun, ya’ni ixtiyoriy pedagogik tizimda ta’lim-tarbiyaviy vazifalarni yechish uchun zarur bo‘lgan o‘qituvchi shaxsining eng ahamiyatli sifatlari umumlashtirilgan.

A.Avazboyev tomonidan olib borilgan tadqiqot ko‘rsatdiki, oliy pedagogika o‘quv yurtlarida nazariy va ishlab chiqarish ta’limini integratsiyalash bir vaqtning o‘zida nazariy bnlimlar bilan birga amaliy ko‘nikma hamda malakani egallashni talab qilar ekan. Bunday aralash mashg‘ulotlarni o‘tkazish uchun quyidagi talablarni bajarish kerak:

1) muxandis-pedagoglarning nazariy va amaliy ishlab chiqarish ta’limi uslubiyotini egallashlari bilan bog‘liq bo‘lgan maxsus tayyorgarligi;

2) aralash mashg‘ulotlar o‘tkazish talabiga javob beradigan moddiy-texnika bazasining mavjudligi.

Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘llari orqali “Assesment” texnologiyasi asosida kasbiy-ijodiy layoqatlikni ifodalovchi malakalarni baholash metodikasi takomillashgan. Mazkur baholash metodikasi kasbiy ta’lim hamda ijodiy sifatlarning tasnifi asosida takomillashtirish ishlari olib borildi. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mezonlari (reproduktiv, produktiv,

kreativ) kasbiy bilimlarni o‘qitishning variativ va invariativ didaktik funksiyalarini “Assisment” texnologiyasi bo‘yicha ijodiy loyoqatni ifodalash asosida takomillashtirish imkonini berdi. Talabalarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mezonlari quyidagi kasbiy-ijodiy kompetensiyalar tuzilmasini hosil qiluvchi bloklar orqali ishlab chiqildi.

Talabalarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mezonlari

№	Mezon	Mezon mazmuni	Bloklar	Mezon asosida baholanuvchi bilim, ko‘nikma va malakalar
1	**Reproduktiv**	Kasbga oid axborot bilan ishlash ko‘nikmalarni hosil qilish uchun reproduktiv darajadagi topshiriqlarni bajarish talab etiladi	1-3	-ta’lim oluvchilarni birlashtirish, ularni mashg‘ul qilish, majburiyatlarni taqsimlash, ishni rejalashtirish, amalga oshirilganlarga yakun yasash; -o‘quv materialini, ko‘rgazmali materiallar, jihozlarni tanlash va tayyorlash, o‘quv materialini tushunarli, aniq, ifodali, ishonchli va izshil bayon etish, bilishga oid qiziqishlar va ma’naviy ehtiyojlarning rivojlanishini rag‘batlantirish, o‘quv-bilishga oid faollikni oshirish; -ta’lim oluvchilarning ma’naviy olamlariga kirib borish, ularning emotsional holatlarini obyektiv baholash, psixikalarining xususiyatlarini aniqlash haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirish.
2	**Produktiv**	Kasbiy muloqotni amalga oshira olishga qaratilgan topshiriqlar tuplamidan iborat bo‘lgan produktiv darajaga mansub vazifalarni barajarish talab etiladi.	4-6	-ta’lim oluvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblar, ta’lim muassasasi rahbarlari bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlarni o‘rnatish; -ta’lim oluvchilarga emotsional-irodaviy ta’sir etish; -pedagogik vaziyatlar va jarayonlarni bilish va obyektiv baholash haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalar

3	**Kreativ**	Kasbiy-pedagogik faoliyatga oid muammoli vaziyatlarni hal qila bilishga oid ijodiy yondashuvni talab qiladigan kreativ darajadagi topshiriqlar tizimidan iborat.	7-8	-tanlangan sohadagi ilmiy bilimlarni o‘zlashtirish, tahlil qilish, xulosalar chiqarish; -kasbiy faoliyat mohiyatini o‘zlashtirish sohasida yuzaga kelgan muammoning o‘z noan’anaviy yechimini ko‘ra olish haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalaridan tashkil topadi

Kasbiy ta’lim tasnifi o‘z ichiga quyidagilarni kiritadi:

1) o‘qituvchi shaxsining xarakterologik xususiyatlari, bular:

a) o‘qituvchining fuqarolik va kasbiy yo‘nalganligi, yo‘nalganlik ostida “pedagogning kasbiy faoliyatga va uning asosiy obyekti – bolaga faol munosabatlari tizimini belgilovchi dunyoqarashi” tushuniladi.

L.I.Bojovish, L.I.Umanskiy, A.N.Lutoshkin, N.V.Kuzmina, V.B.Uspenskiy, M.I.Rojkovlarning ishlariga keltirilgan qoidalarga asosan yo‘nalganlik – o‘qituvchi shaxsining asosiy va integrativ xarakter sifatidir. Psixologlar shaxs tuzilmasida (L.I.Bojovish, G.T.Golubev, A.G.Kovalev, V.A.Kruteskiy, K.K.Platonov va boshqalar) uni yetakchi komponentlardan biri sifatida ajratadilar. Asosida xulq va faoliyatning ustun tizimi yotadigan ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar va ishonchlarning ifodasi sifatida o‘qituvchi shaxsining kasbiy yo‘nalganligi qator ma’nolarga ega. Birinchidan, u pedagogik faoliyat mohiyatining o‘zi bilan bog‘liq. Ikkinchidan, kasbiy yo‘nalganlik pedagogik faoliyatga ongli va psixologik tayyorlik sifatida xizmat qiladi. Uchinchidan, u pedagogik layoqat va kompetensiyalar asosidagi o‘qituvchi-tarbiyachi kasbiga har tomonlama ahamiyatga, barqaror qiziqishga ega. To‘rtinchidan, bu o‘zining pedagogik majburiyatlariga mas’uliyatli munosabat. Beshinchidan, maktabdagi o‘quv-tarbiyaviy vazifatlarni hal etishga kasbiy tayyorgarlik.

b) xarakterning intellektual sifatlari, shuningdek, ilmiy fikrlash xususiyatlari;

v) xarakterning axloqiy xususiyatlari;

g) xarakterning irodaviy va emotsional xususiyatlari;

2)*kasbiy-pedagogik bilimlar* ahamiyatli bilimlar blogidan tashkil topadi (pedagogik jarayonning mazmuni, metodlari, rejalashtirish shakllarini bilish, innovatsion jarayon yo‘nalishlarini bilish);

3)*umumpedagogik malakalar* (ifodali nutq bilan ta’sir etish malakasi, hisoblash malakasi, muloqot malakasi, vaqtda mo‘ljal olish malakasi va boshqalar);

4)*umumpedagogik ko‘nikmalar:*

a) pedagogik diagnostika va maqsadni belgilash bosqichi ko‘nikmalari (o‘quvchilarni kuzatish, o‘quvchilar bilan suhbat, tarbiya maqsadlarini aniqlash ko‘nikmasi va boshqalar);

b) pedagogik vazifalarni o‘quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish darajasida yechish bosqichi ko‘nikmalari (aniq vaziyatda bosh vazifani aniq belgilash ko‘nikmasi, tarbilanuvchilarning variativ rivojlanishlari imkoniyatlarini prognozlash ko‘nikmasi va boshqalar);

v) belgilangan rejani hayotda amalga oshirish bo‘yicha amaliy ishlash bosqichi ko‘nikmalari;

g) bajarilgan pedagogik ish tahlili, tarbiyalanuvchilarning yangi holatlarini aniqlash va yangi pedagogik maqsadlarni belgilash bosqichi ko‘nikmalari (qo‘yilgan maqsadga erishish darajasini belgilash ko‘nikmasi, pedagog ta’sir etish zaifligining sabablarini aniqlash ko‘nikmasi va boshqalar).

Inson kasbiy faoliyati tavsifida motivlar muhim o‘rin egallaydi. V.A.Slastenin abituriyentlarning pedagogika institutiga kirishlaridagi uch guruh motivlarni belgilagan:

1) haqiqatda pedagogik yo‘nalganlik to‘g‘risida guvohlik beruvchi motivlar (bolalarni o‘qitish va tarbiyalash istagi); 2) qisman pedagogik yo‘nalganlikni ifodalovchi motivlar (o‘zida pedagogik kompetensiyalarni anglash, pedagogik kasbning muhimligi va obro‘si to‘g‘risidagi tasavvurlar); 3) pedagogik yo‘nalganlikka ega bo‘lmagan motivlar (o‘quv faniga qiziqish, oliy ma’lumot egallash istagi, moddiy ta’minlanganlikka intilish, tasodifiy sharoitlar).

A.M.Kuxarshuk ta’lim oluvchilarning kasbiy afzalliklarining

motiv- determinantlarini quyidagicha tasniflaydi:

1) kasbning ijtimoiy, davlat miqyosidagi ahamiyati;
2) kasbning bilishga oid ahamiyati;
3) tanlangan ishiga qiziqishi;
4) tegishli sohadagi ish tajribasi bilan kasbga tayyorgarligi;
5) tanlanadigan kasbning ta’lim muassasidagi o‘zlashtirish bilan aloqadorligi;
6) kasbga qobiliyatliligi;
7) moddiy niyatlari;
8) kasbning tarbiyaviy ahamiyati;
9) ishga joylashishning osonligi;
10) yaqinlar, pedagoglar, do‘stlarning maslahatlari, oilaviy an’analar.

Shu munosabat bilan pedagogik kompetensiyalar to‘g‘risida, ular zamonaviy o‘qituvchiga qanchalik zarurligi, ularni shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatlari to‘g‘risida masala yuzaga keldi. Pedagogik kompetensiyalar muammosi N.V.Kuzmina, V.A.Kruteskiy, N.D.Levitov, I.V.Straxov, V.G.Kusenko, N.V.Kuxarev va boshqalarning tadqiqotlari va nashrlarida yoritib berilgan.

F.N.Gonobolin tomonidan pedagogik kompetensiyalarning tasnifi berilgan. U o‘qituvchi sifatlarini pedagogik kompetensiyalar va ularga hamroh bo‘lgan xususiyatlarga ajratadi. Pedagogik kompetensiyalar strukturasiga u quyidagilarni kiritadi: 1) o‘quv materialini o‘quvchilar uchun tushunarli yetkazish qobiliyati; 2) ishdagi ijod; 3) o‘qituvchining o‘quvchini tushunishi; 4) bolalarga pedagogik irodaviy ta’sir etish; 5) bolalar jamoasini tashkil qilish qobiliyati; 6) bolalarga qiziqish; 7) nutqning mazmunligigi va yorqinligi; 8) uning obrazliligi va ishonchliligi; 9) pedagogik axloq; 10) o‘quv materialini hayot bilan bog‘lash qobiliyati; 11) kuzatuvchanlik (bolalarga nisbatan); 12) pedagogik talabchanlik.

Bu talqin N.D.Levitov, V.A.Kruteskiy va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan. Pedagogik kompetensiyalar ostida N.D.Levitov o‘qituvchi shaxsining turli tomonlariga aloqador bo‘lgan qator sifatlarni tushunadi. Bunda avvalo uning aqliy faoliyatiga aloqador bo‘lgan

sifatlarni ajratadi. Pedagogik kompetensiyalar qatoriga u quyidagilarni kiritadi: 1) bolalarga bilimlarni qisqa va qiziqarli shaklda yetkazish qobiliyati; 2) kuzatuvchanlikka asoslangan holda o‘quvchilarni tushunish qobiliyati; 3) mustaqil va ijodiy tafakkur; 4) topqirlik; 5) o‘qituvchining o‘z ishi tizimini ta’minlash uchun hamda yaxshi o‘qituvchilar jamoasini tuzish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy kompetensiyalar.

V.A.Kruteskiy kompetensiyalarning quyidagicha tasnifini keltiradi: didaktik, akademik, perseptiv, nutqiy, tashkiliy, avtoritar (o‘quvchilarga bevosita emotsonal-irodaviy ta’sir ko‘rsatish), kommunikativ, pedagogik tasavvur (prognostik kompetensiyalar), diqqatni taqsimlash qobiliyati.

N.V.Kuzmina pedagogik kompetensiyalarni pedagogik faoliyat talablariga javob beruvchi va mazkur faoliyatni yengil egallash, unda yuqori ko‘rsatkichlarga erishishni ta’minlovchi inson shaxsi xususiyatlarining majmui sifatida ta’riflaydi.

Pedagogik kompetensiyalar tuzilmasiga u turli komponentlarni kiritadi: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, xarakter xususiyati sifatidagi talabchanlik, pedagogik axloq, taqsimlangan diqqat, tashkiliy kompetensiyalar.

Pedagogik kuzatuvchanlikni kichik, bir qarashda sezilmas hodisa va ta’lim oluvchining rivojlanish tendensiyalarining belgilarini ko‘rish qobiliyati, uning bilimlari, ko‘nikma va malakalari, iroda va xarakterini shakllantirish, xulqidagi o‘zgarishlar bo‘yicha uning holatini tushunish, unda yangi ehtiyojlar va qiziqishlarning yuzaga kelishi sifatida ochib beradi.

N.V.Kuzmina pedagogik tasavvurda o‘ziga xos mazmunni, o‘zining yo‘nalganligi va o‘ziga xos vaqt omilini ta’kidlaydi. Pedagogik tasavvurning o‘ziga xos xususiyati tarbiyaviy ishning yakuniy natijalari juda kech aniqlanishi va yakuniy natijada ta’lim oluvchi o‘qituvchining ta’siridan chiqib ketganida va hayotning yangi sharoitlariga dush kelganida u hatti-harakatlarda mustaqillikni namoyon etishi kerak bo‘lganida hayot bilan tekshirilishida namoyon bo‘ladi.

Xarakter xususiyati sifatida talabchanlik ostida o‘quvchi shaxsiga

hurmat asosida o‘quvchilarga qat’iy talablar qo‘yish qobiliyati tushuniladi. Pedagogik kompetensiyalarning komponenti sifatida taqsimlangan diqqatni o‘qituvchining o‘quv va tarbiyaviy faoliyati talab etadi. U o‘qituvchi, butun sinf jamoasining, har bir o‘quvchining faoliyatini nazorat qilishga yo‘naltirilgan. Turli faoliyat turlarini tashkil etish uchun tashkiliy kompetensiyalar: o‘quv, mehnat, ijtimoiy foydali, o‘yinli va h.k. N.V.Kuzmina pedagogik kompetensiyalarning barcha komponentlari bir-biri bilan bevosita bog‘liq va ixtiyoriy pedagogik vazifani yechishda u yoki bu darajada ishtirok etishini ta’kidlaydi.

N.V.Kuzmina tadqiqotlarining natijalari kompetensiyalar tuzilmasida o‘qituvchi pedagogik faoliyatining o‘ziga xos aksini ko‘rishga va shu bilan pedagogik ta’lim muassasalarida pedagogik mahorat asoslarini o‘qitish metodikasini yaratishga jiddiy kirishishga imkon beradi.

Kompetensiyalar, jumladan, pedagogik kompetensiyalarni shakllantirish to‘g‘risidagi masalaning yechimini izlash yo‘lida K.K.Platonov tomonidan taklif etilgan shaxs dinamik funksional tuzilmasi konsepsiyasi hisoblanib, unda shaxs “yadro”sini tashkil etuvchi biogen, psixogen va sosiogen elementlarning integratsiyasi kuzatiladi. Mazkur konsepsiyada shaxs o‘z ichiga to‘rtta tuzilma ostini kiritib, unga shaxsning barcha ma’lum xususiyatlari (sifatlari) kiradi:

birinchi tuzilma osti – bu shaxsning ijtimoiy bog‘liq sifatlari (yo‘nalganlik, munosabatlar, ma’naviy sifatlar);

ikkinchi tuzilma osti – shaxsning tajribasi yoki individual madaniyati (bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va odatlar);

uchinchi tuzilma osti – voqelikni aks ettirish shakllari sifatida individual psixik jarayonlarga bog‘liq shaxs sifatlari;

to‘rtinchi tuzilma osti – biologik bog‘liq xususiyatlar (temperament, yosh xususiyatlari, jins xususiyatlari, patologik yoki organik o‘zgarishlar).

K.K.Platonov mazkur tuzilma ostilarning iyerarxiyasi, ularning bo‘ysunganligini ko‘rsatadi va ularning shakllanishi ko‘rinishlari orqali aloqasi g‘oyasini rivojlantiradi – mashq qilish, o‘rgatish va tarbiyalash. K.K.Platonovning konsepsiyasi kompetensiyalarning shakllanishi

to‘g‘risidagi masalani nazariy muhokamalar sohasidan amaliy asosga ko‘chirishga, mutaxassislarni, jumladan, bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashning samarali usullarini izlashni osonlashtirishga imkon beradi.

Tadqiqotlarda alohida mavzu bo‘lib shaxsning ijodiy sifatlarini shakllantirishga taalluqli masalalar o‘rganilgan. Pedagogik ijodni rivojlantirish muammosiga V.I.Andreyev, D.B.Bogoyavlenskaya, S.M.Bondarenko, V.I.Zagvyazinskiy, I.A.Zyazyun, V.A.Kan-Kalik, T.V.Kudryavsev, Yu.N.Kulyutkin, A.N.Luk, Yu.A.Lvova, Ya.A.Ponomarev, N.Yu.Postalyuk, M.M.Potashnik, R.Z.Tagariyev, N.M.Yakovleva va boshqalarning tadqiqotlari bag‘ishlangan. Bo‘lajak o‘qituvshida ijodiy individuallikni shakllantirish muammolari Yu.A.Gribova, V.I.Zagvyazinskogo, N.G.Osuxova va boshqalarning ishlarida muhokama etilgan. Talabalarda ijodiy ko‘nikmalarni, shaxsning ijodiy yo‘nalganligini shakllantirish masalalariga A.P.Akimova, L.N.Alekseyeva, N.M.Brujukova, Ye.N.Glubokova, S.Davlatshev, S.N.Zayseva, L.A.Kabanova, V.G.Karsha, P.F.Kravshuk, S.V.Kupriyanov, Z.S.Levshuk, N.V.Maklakova, M.K.Naydenko, N.P.Obuxova, V.P.Podvoyskiy, N.G.Rudenko, O.G.Suщyenko, S.Ye.Tokarev va boshqalarning tadqiqotlari bag‘ishlangan. Psixologiya nuqtai nazaridan mazkur masalalar O.S.Anisimov, I.V.Galaktionov, E.V.Gabidullina, I.N.Semenov, N.V.Xazratovalarning ilmiy ishlarida ochib berilgan. Masalan, I.V.Galaktionovning tadqiqotida pedagogik oliy ta’lim muassasasi talabasi shaxsining ijodiy sifatlarining tasnifi keltirilgan bo‘lib, u quyidagicha ko‘rinishga ega:

1) bilish jarayonlarining xususiyatlari bilan bog‘liq sifatlar guruhi. Uni quyidagilar tashkil etadi: a) muammolarga ta’sirchanlik, yuqori sezgirlik, o‘z-o‘zini anglashning mustaqilligi va uning o‘z-o‘zini tartibga solishi; b) muammoda e’tiborni jamlash, kuzatuvchanlik; v) yaxshi tizimlashtirilgan ma’lumot katta hajmi bilan ishlash, yaqqol assosiativ aloqadorlik bilan bog‘langan hodisalar va predmetlarni xotirada saqlash qobiliyati; g) fikrlashning divergentligi; turli-tuman g‘oyalarni ishlab chiqish ko‘nikmasi; fikrlashning ravonligi, moslashuvchanligi, o‘ziga xosligi; fikrlashning tanqidiyligi va mustaqilligi; ziddiyatlarni ko‘ra

olish; bir sohadan olingan bilimlarni boshqa fikrlash sohasiga ko‘chirish qobiliyati, fantaziya; ijodiy jarayonga kiritilgan intuisiya; o‘z ijodiy faoliyatining pedagogik refleksiyasi; prognozlash qobiliyati;

2)motivasion-shaxsiy sifatlarning alohida guruhi, ya’ni: xatarga moyillik; qiziqarli ishga intilish; qiziquvchanlik; ijodiy yutuqlarga intilish; o‘z-o‘zini aktuallashtirish; o‘z-o‘zini bilish; pedagogik maqsadni belgilash;

3)emotsional-irodaviy sifatlar: rivojlangan o‘z-o‘zini nazorat qilish va intensiv mehnatga tayyorlik; o‘z-o‘zini tashkil etish; qat’iyatlilik; o‘ziga ishonch; maqsadga erishishda izchillik; mustaqillik; hayratlanish qobiliyati; yangiga duch kelganda ijobiy emotsional ohang; empatiyaga moyillik; qo‘rquv hissi va frustratsiyani yengish;

4)estetik sifatlar: go‘zallik hissi; olamni badiiy anglash; artistlik kompetensiyalari ;

5)kommunikativ sifatlar: ijodiy faoliyatda hamkorlikka qobiliyatlilik; o‘zining nuqtai nazarini himoyalash, boshqalarni ishontirish ko‘nikmasi; nizolarni hal qilish qobiliyati; pedagogik axloq; muloqot bo‘yicha hamkorlar bilan o‘yinli o‘zaro munosabatlarga moyillik; hazil-mutoyiba hissi.

Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari rivojlanish motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar va o‘zlashtirish darajasi ko‘rsatkichlarini optimallashtirish asosida takomillashtirilgan. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari quyidagilardan iborat.

Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlari

Bosqichlar	**Rivojlantirish bosqichlari nomi**	**Rivojlantirish bosqichlarining mazmun-mohiyati**
1-bosqich	Moslashuvchan	odatda oliy ta’lim muassasasidagi 2-bosqichlarni qamrab oladi va talabaning hozirgi vaqtda u bajarishi kerak bo‘lgan yangi ijtimoiy rolni anglashi bilan bog‘liqdir. Mazkur bosqich pedagogik voqelikka barqaror bo‘lmagan

		munosabat bilan ifodalanadi, pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalari aniq belgilanmagan. Bunda tashkiliy-faoliyatli vazifalar hal etiladi va shuning uchun ham bu kommunikativ, perseptiv, ilmiy-bilishga oid kompetensiyalarni shakllantirish uchun eng maqbul vaqtdir
2-bosqich	reproduktiv-ijodiy	oliy ta’lim muassasasidagi 2-bosqichlarni qamrab oladi va talaba oliy ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiyaviy jarayonining faol ishtirokchisi bo‘lishga intilishiga asoslanadi. Mazkur davrda pedagogik voqelikka barqaror qadriyatli munosabat yuzaga keladi, psixologik-pedagogik bilimlarning roli yanada yuqori baholanadi, pedagogik jarayon ishtirokchilari o‘rtasida subyekt-subyekt munosabatlarni o‘rnatishga intilish namoyon bo‘ladi (talabalar o‘qituvchida o‘z hamkasblarini ko‘ra boshlaydilar), pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalari umumiy ko‘rinishda belgilangan, ammo bunda faoliyatning yo‘nalishi va mezoni hisoblanmaydi
3-bosqich	ijodiy-reproduktiv	oliy ta’lim muassasasining 3 bosqichlarida ta’lim olish vaqtida kechadi va talabalarning bu vaqtda asosiy xususiyatlarida shakllangan o‘qituvchi idealiga muvofiqlik istaklari bilan bog‘liq. Talabalar nazariy va amaliy pedagogik faoliyat jarayonida yuzaga keladigan axborot-baholash, konstruktiv-prognostik vazifalarni yecha oladilar. Ijodiy faoliyat, standart pedagogik vaziyatlarda yangi yechimlarni izlash elementlari bilan reproduktiv xarakterga ega. Mazkur davr didaktik, tashkiliy, ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun optimal hisoblanadi
4-bosqich	ijodiy	uning quyi shegarasi oliy ta’lim muassasasining 4-bosqichi bo‘lib, bu davr kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni cheksiz rivojlantirish davri bo‘lib, u maqsadga yo‘nalganlik, kasbiy faoliyatning yo‘llari va usullarini anglash, psixologik-pedagogik bilimlar bilan tavsiflanadi. Bunda shaxsiy faoliyat ta’lim va tarbiyaning yangi texnologiyalarini doimiy izlash, joriy etishga intilish bilan ajralib turadi. Ijodiy faollikning turli shakllari – pedagogik improvizatsiya, pedagogik intuitsiya va h.k. namoyon bo‘ladi

Shaxsning rivojlanish jarayoni bir qancha omillar ta’sirida sodir bo‘ladi. Bular irsiyat, ya’ni biologik omil, ta’lim-tarbiya va shaxs faolligi (ijtimoiy omil) shaxsni shakllantirishning asosiy omillari deb tushuniladi. Faoliyatning ixtiyoriy ko‘rinishi motivatsiya bilan bog‘liq hisoblanadi. Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish motivatsiyasi oliy ta’lim muassasasini tanlash motivlarida yotishiga amin bo‘ldik, ular orasida quyidagilar ham mavjud:

a) fanni sevish;

b) fanni sevish bilan birgalikda kasbga muhabbat;

v) bolalarni sevish;

g) oliy ma’lumot egallashning rasmiy ehtiyoji.

Shaxsning rivojlanish darajasiga ko‘ra kasbiy-ijodiy qobiliyatning rivojlanishi motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillarning uch guruhini



ajratishni talab qiladi.

Kasbiy-ijodiy qobiliyatning rivojlanish motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar

Sanab o‘tilgan tadqiqotlar natijalarining tahlili, pedagogik kasbni egallash uchun faqatgina bilim, ko‘nikma va malakalarning o‘zi yetarli emasligi, shuningdek, alohida – kasbiy va ijodiy kompetensiyalar zarurligini ko‘rsatadi va ularning mavjudligi kasbiy tayyorlash jarayonini jadallashtiradi hamda pedagogik mahoratning asosi bo‘lib

xizmat qiladi.

Kasbiy pedagogik faoliyat shunchalik xilma-xil va ko‘p qirraliki, mazkur faoliyat bilan alohida shaxs sifatlari va xususiyatlariga ega bo‘lmay turib muvaffaqiyatli shug‘ullanish mumkin emasdir. Shuning uchun ham biz tomonimizdan tanlangan – pedagogik ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning samarali usullarini izlash muammosi obyektiv yuzaga keldi va o‘zining yechimini talab etadi.

Kelajakda texnika oliy ta’lim bitiruvchisining kasbiy raqobatbardoshligi atamasi ostida, biz muvaffaqiyatli va kafolatlangan kasblar bo‘yicha professionallik va muayyan mutaxassisliklar sohasida o‘ziga xos shaxsiy moslashish qobiliyati, madaniy va ijtimoiy normalar va jamiyat an’analari, samarali ijodni amalga oshirish va uzluksiz o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun tayyor, qiyinchiliklarni bartaraf eta olish, ijodiy faollik, kasbiy determinasiyaga qarshi tura olish va kasbiy faoliyat subyekti sifatida shaxsning o‘zligini saqlab qola olishligini tushunamiz.

Oliy ta’limni modernizasiyalash jarayoni talablariga javob beradigan ta’lim tizimini yaratish davr talabi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, yondashadigan bo‘lsak, biz tizim ostida pedagogik voqelikning tarkibiy va funksional elementlarining muayyan munosabatlarini tushunamiz hamda ularning o‘zaro munosabatlari talabalarning o‘quv faoliyati davomida fan orqali kelajakdagi vazifalarini yanada mustaqil, ijodiy va samarali hal qilish, shaxsni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan. Shu munosabat bilan, kompetensiyaga asoslangan ta’limning asosiy maqsadi, zamon talablari va ta’lim o‘rtasidagi uzilishdan o‘tishdan iborat. Bu talabalardan o‘quv jarayonida ma’lum bir bosqichdagi egallangan bilimlarni kelajakda mutaxassislar oliy ta’limning o‘quv jarayonida olingan kompetentliklar jamlanmasini amalga oshirish uchun, kasbiy faoliyat, o‘z sa’y-harakatlarini jamoada ko‘rsata olishi, jamoaviy o‘zaro munosabatga kirishish qobiliyati, mehnat bozorida raqobatlasha olishi zarur. Chunki bugungi kunga kelib, shaxs faqatgina bilim tashuvchisi sifatida qadrlanmaydi, balki uning faoliyati muhim hisoblanadi.

Talabalarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida kompetentlik

yondashuvining dolzarbligi ham ichki ta’limning xalqaro ta’lim makoniga kirib borishi bilan bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Tadqiqot ishimizning maqsadini aniqlash, asoslash texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarini kasbga tayyorlashda xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning mazmun va shartlarini amalga oshirish, aytib o‘tilgan toifalarni nazariy aniqlash va ularning munosabatlari tahlilidan iborat. Bizning fikrimizcha, bu ko‘p madaniyatli muhitda boshqa mamlakatlar mutaxassislari bilan madaniyatlararo muloqotni amalga oshirish uchun shaxsni shakllantirishning asosiy xususiyatlarini ko‘rib chiqish zarur. Shu munosabat bilan, ushbu kategoriyalarning o‘zaro bog‘liqligini oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari shaxsining kasbiy rivojlanish darajasini xarakterlovchi xususiyat deb qarash lozim.

Kasbiy kompetensiya tuzilmasi maxsus, shaxsiy, lingvistik, ijtimoiy va alohida komponentlar birligida tahlil qilinadi hamda ta’lim berish jarayonida kompetentlik yondashuvini amalga oshiradi. Bu bo‘yicha turli nuqtai nazarlarni chuqur tahlil qilish, “kelajakdagi oliy ta’lim muassasalari bitiruvchisining kompetentliklari” konsepsiyasining tarkibida quyidagi shaxsiy fazilatlarni (kompetensiyalarini) ajratish imkonini beradi:

kasbga yo‘naltirilgan vaziyatlar bo‘yicha yetarli tahlilni amalga oshirish uchun, umumiy shakllangan kompetensiyalarni ishga solish (qarashlar, ijtimoiy munosabatlarga kira olish qobiliyati, xarakter xususiyatlari majmui, o‘rganishga tayyor bo‘lish) va maxsus (kasbga yo‘naltirilgan) kompetensiyalar;

jamoa a’zolari bilan yaqin hamkorlikda aloqa o‘rnatish hamda o‘z faoliyati davomida qaror qabul qilishda mas’uliyat ko‘rsatish;

mavjud muammolarga mustaqil yechim topa olish;

ma’lumot kompetentligi darajasini doimiy ravishda oshirib borish;

muloqotni amalga oshirish, muloqotning empatiya, chidamlilik, konstruktivlik, refleksiya, tolerantlik va milliy madaniyat an’analariga hurmat kabi muhim fazilatlarini ko‘rsatish kabilardir.

Kasbiy kompetentlik mutaxassisning kasbiy faoliyati bilan xarakterlanadi, texnika oliy o‘quv yurti bitiruvchisi sifatida, uning

bo‘lajak ish faoliyatidagi lavozim bilan belgilanadi, deb ta’kidlash lozim. O‘z navbatida, mutaxassisligi va umumiy mehnat tajribasi ish tajribasi bilan bog‘liq bo‘lgan, tanlagan kasb tarmog‘i va mehnat faoliyati turi sohasi bilan ham bog‘liqdir.

“Professionalizm” tushunarli insonning qobiliyati, layoqati hamda uzluksiz bilim olishga tayyor bo‘lishi, mustaqil, uzluksiz o‘quv va o‘zini-o‘zi takomillashtirishi, jamiyatdagi mavjud standartlar va obyektiv talablarga mos keladigan kasbiy faoliyatning psixologik tuzilishini o‘zlashtirish darajasida aks etadi.

Tadqiqotimiz muammolaridan kelib chiqib, kasbiy kompetentlik inson kasbiy mahoratining zarur tarkibiy qismi ekanligini ta’kidlashimiz qatorida, mahalliy va xorijiy olimlarning ishlarida kasbiy kompetentlik masalalarini batafsil ko‘rib chiqdik. Kasbiy kompetentlikning mohiyatini aniqlashga doir tahlillarimiz asosida zamonaviy yondashuvlar turlicha ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Kasbiy kompetentlikning “chuqur bilim”, “haqiqiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati”, “yetarli vazifani bajarish holati” kabi mavjud talqinlari ushbu tushuchaning mazmunini to‘liq ochib bermaydi. Ko‘pincha, bu konsepsiya yuqori darajadagi malaka va professionallikni ifodalash uchun intuitiv ravishda ishlatiladi.

Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining malaka va ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida talabalarning umumkasbiy tayyorgarligi bosqichida kompetentlik shakllanadi. Biroq agar texnika oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish kasbiy kompetentlikning asoslarini shakllantirish jarayoni sifatida qaralsa, uzluksiz ta’lim va hayot davomida o‘zini-o‘zi tarbiyalash-shaxsning kasbiy kompetentligi va kasbiy mahoratini rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida kasbiy rivojlanishning zarur sharti sifatida qaraladi.

Bugungi kunda mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosi uning murakkabligi, turli xizmat vazifalarini bajarish bo‘yicha mas’uliyati tahlil qilinishini talab qiladi hamda tavsiflanadi.

Hozirgi sharoitda har qanday faoliyat turi, shu jumladan, muhandislik ham o‘zining mazmuni, shakli va amalga oshirish usullari

bilan boy va murakkab hisoblanadi.

“Inson faoliyatining o‘ziga xos bo‘lgan xususiyati shundan iboratki, u ongli va maqsadlidir, shu orqali u o‘z maqsadlarini amalga oshiradi, shakllantirayotgan voqelikdagi reja va g‘oyalarini obyektivlashtiradi” degan fikrni S.L.Rubinshteyn ta’kidlaydi.

Muhandisning kelajakdagi faoliyati ongli maqsadlarga erishish va kasbiy mas’uliyatni bajarishga qaratilgan ehtiyojlar bilan bevosita bog‘liqdir. Uning kasbiy faoliyati maxsus harakatlardan iborat bo‘lib, ularning har biri aniq bir vazifani, ya’ni muayyan maqsadni hal qilish va maqsadga yaqinlashtiruvchi oraliq natijani olishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu harakatlar natijalari maqsadga erishishni ta’minlaydi, uni harakatlarni amalga oshirish yo‘llari deb aytishimiz mumkin. Shuningdek, muhandislik faoliyati moddiy va ishlab chiqarish faoliyati bilan o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, mutaxassislikning xususiyatlari – uning bilimlari, g‘oyalari, loyihalari va rejalarini ishlab chiqarish amaliyotida bevosita amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyat, mavzu, mahsuldorlik va amaliy yo‘nalish, ijodiy va transformatsion mohiyat kabilar orqali amalga oshiriladi.

Keng ma’noda olib qaraydigan bo‘lsak, muhandislik kasbi qator muammolarni, loyihalashni o‘rganish va hal qilishga qaratilgan bo‘lib, muhandislik bilimlariga asoslangan bilim va texnologiyalarni keng qo‘llashni, faoliyatning samarali hamkorligini boshqarish va ta’minlashni, muhandislik faoliyatining ta’sirini tushunishni, shuningdek, iqtisodiyot va ijtimoiy sohada muhandislik faoliyatining huquqiy, moliyaviy va boshqa jihatlarini, muhandislik kasbi vakillarining javobgarlik hissini anglashi va axloq kodeksiga rioya qilishi kabilar tushuniladi.

Tashkiliy-boshqaruvli faoliyat muhandislik faoliyatida muhim o‘rin tutadigan tashkiliy masalalarni hal etish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, uni hal etish tashkilotning samaradorligiga bog‘liqdir. Odamlar bilan birgalikda ishlash qobiliyatiga egalik muhandisning eng muhim sifatlaridan biri hisoblanadi. Bu faoliyat o‘z lavozimiga ko‘ra, boshqaruvchi muhandis uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lib, rasmiy va shaxslararo aloqalarni o‘rnatishdan tashqari, qo‘l ostidagilarning shaxsiy

psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ular o‘rtasida vazifa va mas’uliyatni to‘g‘ri taqsimlashi, rasmiy vazifalarining borishini muvofiqlashtirishi va nazorat qilishi lozim. Shuning uchun ham ko‘pgina muhandis-texnik xodimlar chuqur kasbiy bilim va tajribadan tashqari tashkilotchilik, mustaqil fikrlilik, mas’uliyat kabi tashkiliy sifatlarga ega bo‘lishlari ham zarur.

Bugungi kunga kelib, ta’limda yangi ijtimoiy-ta’limiy g‘oyalar nuqtai-nazaridan kompetentlik tushunarli yuqori darajada rivojlanib bormoqda. Kompetentlikni rivojlantirishning birinchi bosqichi – uning tarkibiy qismlari doirasini subyektning kasbiy faoliyati uchun muhim bo‘lgan kompetensiyalarning qo‘shimcha sohalarini kiritish hisobiga kengaytirish bilan bog‘liqdir.

Kompetentli yondashuvning asoschilaridan biri hisoblangan J.Raven buning muhimligini “biz ko‘proq va kamroq kompetentli fermerlar, o‘qituvchilar, menejerlar va harbiy ofitserlar, haydovchilar, temirchilarni solishtirganimizda, har bir holatda o‘z ishining ustalarini namoyish qilgan siyosiy xulq-atvor, aynan, eng muhimi bo‘lib chiqdi” deb tushuntiradi [100].

Kompetentlikni psixologik jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, atrofdagi olamni tushunish mezoni va u bilan o‘zaro ta’sirining mutanosibligi sifatida belgilanadi. Yanada batafsilroq ta’riflansa, u faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir, yoxud insonning atrof-muhitga va o‘z-o‘ziga ta’sir etish metodlarini mukammal egallaganligidir.

Muhandislar kasbiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qismi muloqot faoliyati bo‘lib, uning sifati kasbiy muammolarni hal qilish samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi, ammo bu tuchuncha hali ilmiy yakunga ega emas deb qaraladi. Shu munosabat bilan “Bo‘lajak muhandisning kasbiy kompetentligi” tushunchaga aniqlik kiritishimiz maqsadga muvofiq. Biz tomonimizdan “Bo‘lajak muhandisning kasbiy kompetentligi” kasbiy vazifalar doirasida kommunikativ bilim, ko‘nikma va shaxsiy sifatlar majmui sifatida belgilangan.

Muhandislar dasturchilar kasbiy faoliyati davomida turli odamlar bilan muloqot qilishlariga to‘g‘ri keladi. Chunki muloqot kasbiy

faoliyatning maxsus, mustaqil turi hisoblanadi. Biroq muhandislik tayyorgarligiga ega bo‘lgan bo‘lajak mutaxassislar muloqot qilish sohasida anchagina jiddiy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Biz tomonimizdan o‘rganilayotgan kompetensiyaning mazmuni va tuzilishini ishlab chiqishda “kasbiy kompetensiya” va “kommunikativ kompetensiya” tushunchalarini bir-biridan farqlashga harakat qildik.

N.I.Gez “Kommunikativ kompetentlik, nafaqat, talabalarning til haqidagi axborotni bilish va egallashi, balki, til vositalarining ijtimoiy me’yorlarini va muloqotning kommunikativ maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda, nutqiy muloqotni tashkil etish vazifalari va shartlari bilan bog‘lash qobiliyatini ham nazarda tutadi” deb ta’kidlaydi.

G.S.Trofimovaning fikriga ko‘ra, birinchi marta “kommunikativ kompetentlik” atamasi tilshunoslikda generativ grammatikaga oid tadqiqotlar tarkibida paydo bo‘lganligini ta’kidlaydi. Bunda aniq til egasi bilan “og‘zaki yoki yozma ravishda muloqot qilish qobiliyati” deb belgilanadi. Shu sababli faqat til shakllarining to‘g‘riligiga emas, so‘zlashishning ma’no tomoniga ham alohida e’tibor beriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib biz, ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilishimiz asosida, kelajakda kommunikativ kompetensiya muammosi, nafaqat, tilshunoslik va sotsiolingvistikada, balki pedagogika, psixologiya, kasbiy pedagogikaga oid tadqiqotlarda ham muhokama mavzusiga aylanishi tabiiy holatdir.

Bo‘lajak mutaxassislarning malaka va ko‘nikmalarini oshirish muammosiga bag‘ishlangan tadqiqotlarni tahlil qilish asosida shuni ta’kidlash lozimki, kasbiy mahorat va kasbiy kompetentlik masalalari so‘nggi o‘n yillikning e’tiborli mavzusiga aylandi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bu masala bilan ko‘plab olimlar shug‘ullanmoqda. Biroq bir qator amaliyotchilarning ishlarida kasbiy muhim fazilatlar, ularning shakllanishi va baholash majmuini o‘rganish, shaxsning kasbiy faoliyat subyekti sifatida qarashga e’tibor berilmayotganligi ko‘rsatilgan.

Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarining faoliyati bilan bog‘liq kasbiy mahorat va professionallik tushunchalari yetarli darajada farqlanmayapti, ya’ni, “kasbiy kompetensiya” tushunchasi ba’zan

“professionalizm” tushunchasining sinonimi sifatida talqin etilmoqda.

Bizning fikrimizcha, “professionalizm” tushunarli faqat yuqori malakali ish xususiyatlari bilan cheklanib qolmaydi, bu insonning shaxsiy xususiyati, uning dunyoqarashi sifatida ham qaraladi. Shuning uchun ham kasbiy ahamiyatli sifatlarni egallash maqsadida talabalarning tegishli kompetensiyalarni, ularning shaxsiy sifatlarini, uzluksiz ta’lim olishi va doimiy o‘z-o‘zini tarbiyalash motivlarini rivojlantirib borish maqsadga muvofiq sanaladi.

Bugungi kunda kasbiy kompetensiya tushunarlidan quyidagi muhim komponentlarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Kasbiy malaka: ta’limni raqamlashtirish sharoitida kasbiy sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalar, oliy ta’limda kasbga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy axborot kommunikasiya texnologiyalarini ta’limda samarali o‘zlashtirish qobiliyati.

2. Kasbiy tayyorlik: zamonaviy bilimlar, texnika, istiqbolli axborot texnologiyalari va vositalarini faoliyat darajasida o‘zlashtirish, ilmiy axborotlarni muvaffaqiyatli qidirish, o‘zlashtirish va ulardan foydalana olish, mustaqil o‘rganish va boshqalarga o‘rgatish qobiliyati.

3. Kommunikativ tayyorlik: asosiy fanlar va sanoat konseptual apparatida so‘zlarni qo‘llay bilish qobiliyati, shu jumladan, xorijiy tillarda ravonlik, mualliflik huquqi, huquq sohasi, mehnat munosabatlari, kommunikativ va axborot texnologiyalari bilimlariga ega bo‘lish, kasbiy axloqi, kasbiy aloqa va jamoani boshqara olish, ularni optimal ravishda demokratiya va avtoritarizm kombinatsiyasida qo‘llay olish, muhokama qila olish va o‘z qarorlarini himoya qilishda artikulyar ko‘nikmalarga asoslangan - kasbiy faoliyat sohasida o‘zaro madaniy muloqotni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kasbiy yo‘naltirilgan mazmunning og‘zaki, majoziy yoki boshqa yetarli darajada anglangan ifodasidan foydalanish.

4. Kreativ tayyorlik: ijodiy va kasbiy sohada fan, texnika va ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan bog‘liq sohalarda ham innovatsion muammolarni hal qilishda tubdan yangi yondashuvlarni qidirish, tanqidiy fikrlash qobiliyati.

5. Uni insonparvarlashtirish va ratsionallashtirish maqsadida ishlab

chiqarishni texnik- ekologik, iqtisodiy jihatdan tahlil qilish usullarini bilish.

6. Kasbiy sohada muhandislikka ongli ijobiy munosabat, xususan, mutaxassislik doirasida, ehtiyoj, kasbiy takomillashish uchun tayyor korporativ hisobga olish hamda joylashishni aniqlash.

7. Kasbiy sohaning ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy va iqtisodiy jarayonlar bilan birgalikda rivojlanish tendensiyalari va asosiy yo‘nalishlarini tushunish qobiliyati.

8. Mas’uliyat, maqsadga muvofiqlik, empatiya, talabchanlik, qat’iylik, tolerantlik va o‘z-o‘zini tanqid qilish kabi kasbiy jihatdan muhim shaxsiy fazilatlarni barqarorlashtiradi va rivojlantiradi.

Kasbiy kompetensiyaning mazmun-mohiyatiga qaratilgan ta’riflarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, uni aniqlash usullarining xilma-xilligiga qaramasdan, integrativ sifatni ta’minlovchi muayyan bilimlar, ko‘nikmalar va shaxsiy xususiyatlar majmuini ifodalovchi bu hodisa haqida yagona tuchuncha mavjud. Shu bilan birga, har qanday pozitsiyalardan va har qanday mazmundagi kommunikativ kompetentlikdan qat’iy nazar, u har doim kasbiy faoliyat bilan chambarchas bog‘liq holda insonning olam bilan faol o‘zaro ta’siri shakli, ehtiyojlari bilan birga namoyon bo‘ladi va uning obyektlariga maqsadli ta’sir ko‘rsatadi.

An’anaviy ravishda kommunikativ kompetentlik hissiy va motivatsion-ijobiy muloqotlarda, malaka va ko‘nikmani rivojlantirish motivlarida, muloqotli qadriyatlarda, o‘zaro hamkorining semantik nuqtai nazariga bo‘lgan ehtiyojlarini shakllantiradi, kognitiv qabul qilishga - tasavvur va fikrlash jarayoni kiradi, kognitiv uslubga esa– refleksiv baholash kiradi, ijtimoiy-idrokli kompetensiyalarga shaxsning kommunikativ salohiyatini shakllantirish va shaxsiy xususiyatlari kiradi, tahliliy kompetensiyalarga – inson o‘zaro munosabatlari to‘g‘risidagi bilimlar, o‘quv jarayonida olingan psixologik bilimlar kiradi hamda xulq-atvorli o‘zaro ta’sirning optimal modellarining individual tizimi, kommunikativ xulq-atvorni subyektiv nazorat qilish kabilar kiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, kasbiy kompetensiya talabalarning egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy

faoliyatlarida amalda qo‘llash imkoniyati bo‘lsa, kommunikativ kompetensiya esa jamiyatda o‘zaro muloqotga kirishish uchun zarur bo‘lgan barcha elemantlarni qamrab oladi, shuning uchun ikkita kompetensiya bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq.

Muloqot qilish malakalariga matnni adekvat shaklda tashkil etish qobiliyati, nutq malakalarining ichki va tashqi ko‘rinishlarini uyg‘unlashtirish, kommunikativ to‘siqlarni bartaraf etish, qaytar aloqa va boshqalar kiradi.

O.A. Abdullina, N.V. Kuz’mina, A.V. Mudrik kabi olimlarning ishlarini o‘rganishimiz asosida, ular muloqot ko‘nikmalarini beshta asosiy yangi kommunikativ vaziyatlar nuqtai nazaridan muloqot, metodlar, bilim, ko‘nikma uning alohida holatlarda o‘ziga xos muvofiqlikda transformasiyalashtirish, kommunikativ vaziyat uchun ma’lum g‘oyalar, bilim, ko‘nikma va texnik birlashmasidan yangi yechim topish, kommunikativ muammoning yechimini topishda yangi usullarni yaratish qobiliyati hamda hamkorlar borasidagi turli vaziyatlarga moslashish va guruhda muloqot qilish qobiliyati kabi bloklarini ajratib ko‘rsatadilar.

Bizning ilmiy-nazariy tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, barcha tadqiqotchilar talabalarning kasbiy kommunikativ kompetentligi motivatsion, kognitiv, operatsion - texnologik, shaxsiy va refleksiv kabi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga olgan tashkiliy tuzilmadir.

Muhandisning kasbiy kommunikativ kompetentligi komponentlari

Shunday qilib, psixologik-pedagogik va ilmiy manbalar va adabiyotlarni tahlil qilishimiz bizga quyidagi xulosalarni qilishimizga imkon berdi:

1. Muhandislik-o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali ta’lim hisoblanadi.

2. Yuqorida muhokama qilingan sifatlar bilan bog‘liq holda “Kommunikativ kompetensiya” ta’rifiga berilgan ijobiy yondashuvlarning tahlili uning mazmunini noto‘liqligini ochib berdi, ularda mavjud ta’riflarning yo‘qligi va bu tushunchaning cheklangan talqini bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyat, bilim, ko‘nikma va malakalarni

o‘z ichiga oladi.

3. Bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy kommunikativ kompetentligi deganda kasbiy vazifalar doirasida bilim, ko‘nikma, malaka a shaxsiy sifatlar majmui sifatida belgilangan kasbiy muhandislik faoliyati subyektini tushunamiz.

4. Bo‘lajak muhandis mutaxassislarning kasbiy komepetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari motivatsion, kognitiv, operativ-texnologik, refleksiv va shaxsiy komponentlar hisoblanadi.

Komponentlar	**Muhandisning kasbiy kommunikativ xususiyatlari**
Motivatsion	Kasbiy faoliyat uchun ijobiy ahamiyatga ega bo‘lgan motivlarni aks ettiradi, kelajakdagi kasbiy faoliyat maydonini qurishda o‘z shaxsiy imkoniyatlarini anglash va tizimlashtirishni, bilimlarni o‘zlashtirishga undaydi. Muloqotda va kasbiy faoliyat jarayonida kommunikativ kompetentlikni shakllantirish hal qiluvchi omil hisoblanadi.
Kognitiv	Muhandisning samarali kasbiy faoliyati uchun kommunikativ bilim va ko‘nikmalarni puxta o‘zlashtirishni o‘zida ifodalaydi.
Operatsion-texnologik	Bilim va ko‘nikmalarni amaliyotda qo‘llash, izlanuvchanlikni o‘zlashtirish va kasbiy faoliyatda olgan bilimlarini qo‘llash ko‘nikmalarini egallashni ifodalaydi.
Refleksiv	O‘zini o‘zi tahlil qilish, tadqiq qilish, bilish va uning namoyon qilish darajasini aks ettiradi.
Shaxsiy	Mutaxassisning kommunikativ yo‘nalganligining uzluksiz o‘zini o‘zi takomillashtirishga bo‘lgan ehtiyoj darajasini ifodalaydi. Kasbiy muhim kommunikativ sifatlar: tolerantlik, dilkashlik, empatiya, tashkilotchilik va boshqalar majmuini ifodalaydi.

Oliy ta’lim muassasalarida kommunikativ kompetentli mutaxassisni shakllantirish bilan bog‘liq bo‘lgan, kasbiy bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan kasbiy kompetensiya o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi, balki shakllanish va uni o‘zlashtirish hamda u oliy ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonidagi turli vazifalarni loyihalaydi va kasbiy faoliyatini aks ettiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilishimiz mumkinki, oliy kasbiy ta’limning dolzarb vazifalaridan biri, oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirish tadbirlari tizimi orqali

shakllantirishdan iborat. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kommunikativ kompetentligini shakllantirish muammosi ularning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish modelini ishlab chiqish va ta’lim jarayonida uni yechish uchun zarur bo‘lgan tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni aniqlab olishni o‘z ichiga oladi.

Oliy kasbiy ta’lim sifatini aniqlash uchun mahorat yondashuvining dolzarbligi, ahamiyatliligi, shuningdek, bitiruvchi talabalar “kasbiy kompetentligi” tarkibida asosiy kompetensiyalar majmuini ko‘rish lozimligi ta’kidlanadi. Kelajakda bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy mahoratini oshirish va tayyorlashda zamonaviy, ichki va xalqaro talablarni hisobga olishni ham nazarda tutadi.

Muvaffaqiyatli ishlash va oliy ta’limni egallash uchun zarur bo‘lgan asosiy kompetensiyalar Yunesko xalqaro hamjamiyatining materiallari asosida aniqlandi:

- ko‘p madaniyatli jamiyatda hayot bilan bog‘liq kompetensiyalar: irqchilik va tolerantsizlik muhitini rivojlantirishni nazorat qilish uchun yoshlarni boshqa millatlarni tili va madaniyatini hurmat qilish asosida o‘zaro madaniy kompetensiyalar bilan ta’minlash;

- siyosiy va ijtimoiy kompetensiyalar – bu mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, guruh qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish, ziddiyatlarni hal qilish, demokratiya institutlarini qo‘llash va takomillashtirishda ishtirok etish;

Ish va ijtimoiy hayot uchun muhim bo‘lgan og‘zaki va yozma muloqotni egallash bilan bog‘liq kompetensiyalar, ularga egalik qilmaydigan odamlar ijtimoiy izolyatsiya xavfi ostida ekanligiga e’tibor qaratish. Asos sifatida, hayoti davomida shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy hayotiy faoliyatida uzluksiz o‘rganish qobiliyati.

Yuqorida ta’kidlanganidek, zamonaviy muhandislarning kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo‘llaridan biri, kasbiy tayyorgarlik jarayonida talabalarning xorijiy tildagi kommunikativ kompetentligini, muloqot madaniyatini shakllantirishdir. Bu dolzarb muammoni hal qilish uchun, bizningcha:

- bo‘lajak muhandislarda xorijiy tilda muloqot qilish kompetentligini rivojlantirishning pedagogik tizimini loyihalash

kompetensiyasini ishlab chiqish;

- oliy ta’limda kasbiy muhandislik faoliyatining nazariy tahlili asosida, zamonaviy texnik mutaxassisning auditoriya va auditoriyadan tashqari sharoitda xorijiy tillarni o‘rganishi orqali kasbiy kompetentligining mohiyati va mazmunini ochib berish;

- talabalarning xorijiy tilda so‘zlashishi orqali kasbiy kompetentligini shakllantirishning nazariy modelini ishlab chiqish ;

- ishlab chiqilgan nazariy modelni amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash va belgilash.

Bo‘lajak texnik mutaxassislarning kasbiy faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlarini, ularning kasbiy kompetentligiga qo‘yiladigan talablarni, xorijda va mamlakatimizda o‘qitiladigan chet tili ta’limining tajribasini tahlil qilish asosida biz tadqiqotning umumiy konsepsiyasini shakllantirdik.

1. Oliy ta’lim muassasasi talabalarida xorijiy tillarni o‘rganish orqali kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning maqsadga muvofiq jarayonini ta’minlovchi shart-sharoitlar yaratish uchun pedagogik tizimni loyihalash, hal qilinayotgan muammoning o‘ziga xos xususiyatlariga javob beradigan umumiy metodlar, ilmiy yondashuvlar va usullar kombinatsiyasiga asoslanishi talab qilinadi. Bizning fikrimizcha, ularga quyidagilarni kiritish maqsadga muhimdir:

• o‘quv faoliyatini tashkil etish qonuniyatlarini ochib beruvchi shaxsiy-faoliyatli yondashuvi va fikrlarni shakllantirish, sharhlash jarayonini boshqarish usullarini vosita va usullar bilan tanlash, u chet tili jamiyatida ishlab chiqilgan bo‘lib, uning natijasida nutqiy muloqot sharoitida yo‘nalganlik natijalariga qarab, nutqiy faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirish va uning o‘z-o‘zini nazorat qilish subyektiv ko‘nikmalari shakllanadi, boshqacha qilib aytganda, talabaning xorijiy tildan kasbiy kompetentligi, ularning individual kompetensiyalarni rivojlantirish asosida shakllanadi;

• kommunikativ-kompetentli yondashuv, bo‘lajak mutaxassisning chet tilidan kommunikativ kompetentligi strukturasini yakuniy (kutilayotgan) natija asosida ta’lim tizimlari maqsadlarini shakllantirishning nazariy asosi sifatida aniqlash imkonini beradi, shu

jumladan, lingvistik, kommunikativ va pragmatik kompetensiyalar;

• tizimli yondashuv, u ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari yagona, maqbul faoliyat ko‘rsatuvchi va jadal rivojlanayotgan pedagogik tizimga tashkil etilishi mumkin bo‘lgan kontekstda, mazmunni tanlash esa, chet tili kommunikativ kompetentligini bir butun va alohida qismlar yig‘indisidan ortiq narsa deb hisoblash mumkin bo‘lgan tarzda amalga oshirilishi lozim; talabaning kasbiy va shaxsiy rivojlanishi hamda o‘z-o‘zini rivojlanishini ta’minlaydi, uning subyektiv salohiyatining barcha boyliklarini, o‘z-o‘zining munosabatlarini va madaniyatlararo muloqotning boshqa ishtirokchilariga munosabatlarni ochib beradi;

• texnika oliy o‘quv yurtlari talabalarining xorijiy tildan kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning muammoli-loyihaviy yondashuvi va loyihaviy yondashuvga asoslangan hamda unda chet tili ta’limi jarayonini tashkil etish uchun asos bo‘lib xizmat qiluvchi yetakchi, ustuvor ta’lim strategiyasini amalga oshirish jarayoni tushuniladi, unda talabalar mustaqil maqsadli izlanadilar hamda xorij tilida lingvistik va kommunikativ vazifalarni bajarish jarayonida bilimlarni qayta ishlash va dolzarblashtirishni va kasbiy yo‘naltirilgan muammo - turli darajadagi murakkablikdagi loyiha vazifalarini bajaradilar;

• madaniyatshunoslik yondashuvi, boshqa millatlar madaniyatlari muloqoti sifatida oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning xorijiy tilni chuqur o‘zlashtirishi orqali ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni qurilishini ta’minlaydi, unda talaba dastlab, faol pozitsiyani egallab, o‘zini tillararo, millatlararo, madaniyatlararo, o‘zaro muloqot subyekti sifatida namoyon etadi.

2. Talabalarning xorijiy tilni o‘rganishi orqali kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik tizimi everistik va reproduktiv usullarning uyg‘unligi, uzluksizlik, uzviylik, fanlararo integratsiya, ijtimoiy-madaniy va kasbga yo‘naltirish hamda guruhiy o‘zaro ta’sirning o‘zgaruvchanligi tamoyillariga asoslanishi talab etiladi.

3. Bo‘lajak mutaxassisning xorijiy tilda muloqot kompetentligini shakllantirish rasmiy va noan’anaviy xorijiy til ta’limi shaklida, ya’ni talabalar amalga oshirilayotgan til dasturlarida faol ishtirok etishi,

tanlovlarda ishtirok etishi, ilmiy anjumanlarida taqdimotlar qilishi, viktorinalar va olimpiadalardagi faolligi va noformal ya’ni, til olimpiadalarida ishtirok etish uchun tayyorgarlik, insholar tanlovi, talabalar kundaligi va til kundaligini yuritish va boshqalar tarzida amalga oshiriladi;

4. Xorijiy tilni o‘rganish orqali talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonida ularning rol pozitsiyalari ta’lim beruvchi – guruh – ta’lim oluvchi ko‘rinishida o‘zgaradi.

5. Mamlakatimizning qadriyatlari, madaniyati, urf-odatlari, oliy ta’limda xulq-atvor normalari madaniyati tizimini qabul qilishga qaratilgan madaniy-ma’rifiy muhitni oliy ta’limda amalga oshirish bu jarayon samaradorligining zaruriy sharti hisoblanadi.

6. Oliy o‘quv yurtining talabasi xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyasining shakllanish jarayoni o‘quv va mustaqil ta’lim faoliyatining birligi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin, bunda talaba faol pozitsiyani egallab, o‘zini madaniyatlararo, shaxslararo va kommunikativ faoliyat subyekti sifatida anglaydi, bu esa uzluksiz xarakterda bo‘lishi ham mumkin.

7. Oliy ta’lim bosqichlarining olingan taassurotlardan bilimga, bilimdan ko‘nikma va malakalarga, so‘ngra kompetentlikka qarab harakat qilish ketma-ketligiga amal qilinsa, talabalarning xorij tilini o‘rganishda kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni yanada samarali bo‘ladi:

8. Bo‘lajak muhandislarning xorijiy til orqali kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayoni loyihalash texnologiyalari yordamida ham amalga oshiriladi.

Til o‘rgatishga nisbatan muammoli-loyihaviy yondashuv amaliy mashg‘ulotlarda muammoli masalalarni chet tilida yechish jarayonida talabalarning reproduktiv va ijodiy faoliyatini optimal tarzda birlashtiruvchi ta’lim strategiyasidir.

Kommunikativ kompetentlik yondashuvining mantiqda xorijiy til kommunikativ kompetentligini shakllantirish talabalarning kasbiy kompetensiyalari, motivatsiyasi, ijodkorligi va xorijiy til muloqotiga tayyorligi, kognitiv faoliyati, lingvistik, gumanitar, semantik yo‘nalish,

adaptiv qobiliyat, kommunikativ va ijtimoiy-madaniy kompetentliklar, tajriba va transformatsion faoliyat usullaridan muayyan mahsulotni olish.

Muammoli yondashuvga asoslangan o‘qitishning asosiy tushunarli chet tili muloqoti til materialini va muammoli xarakterdagi vaziyatlar asosida chet tili nutqining ko‘nikma hamda malakalarini o‘zlashtirishni o‘z ichiga oladi. Muammoli o‘qitishning asosiy tushunchasi muammoli vaziyat bo‘lib, ko‘pchilik mualliflar tomonidan zabt etilmagan bilim cho‘qqisi sifatida va harakat usullarini yengish uchun ko‘plab izlanishni talab qiladigan fikriy qiyinchilik sifatida tushuniladi. Muloqot sharoitida bilish jarayonlarining ortishi, turli fikrlar, qarashlar va yondashuvlarning ziddiyati natijasida muammoli vaziyatlarning mavjudligiga bog‘liq ekanligini psixologlar allaqachon isbotladilar, ularning fikricha, yanada ko`proq, foydali va qo‘shimcha axborotni jalb qilish zarurati muhokama jarayonlarining ko‘payishiga olib keladi. Bu esa, tushunishning aniqlik darajasiga yordam beradi. Shu bilan birgalikda xorijiy tilda olib boriladigan ta’lim-tarbiya ishlarining mahsuldorligiga chet tilidan foydalanib o‘yin faoliyati va ijodiy o‘quv faoliyati ustunlik qiladigan vaziyatlar ham ta’sir ko‘rsatadi.

Bugungi zamonaviy globallashuv va integrallashuv sharoitida mehnat bozorida vujudga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o‘zida kasbiy kompetentlik va unga xos jihatlarni tarkib toptirishga va rivojlantirishga undaydi.

Lug‘aviy jihatdan “qobiliyat”, mazmunan esa “faoliyatda nazariy va amaliy bilimlardan imkon qadar unumli foydalanish, yuqori saviyadagi ilmiy va kasbiy malaka, professional mahorat va iste’dodni yuzaga chiqara olish” mazmunini anglatuvchi kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus, psixologik, metodik, axborotli, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ, shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi qator sifatlar aks etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi ish jarayonini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta’minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lish uchun, mutaxassis o‘z-o‘zini izchil rivojlantirib borishga e’tiborni qaratishi zarur. O‘z-o‘zini

rivojlantirishda mutaxassisga “Individual rivojlanish dasturi” qo‘l keladi. Zero, ushbu dasturda mutaxassisda mavjud bo‘lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo‘lgan sifatni aniq, xolis ifodalash mumkin.

Bizning fikrimizcha, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirish uchun eng muhim va dolzarb vaziyatlar kommunikativ muammolarini hal qilishda bilimlarni to‘g‘ri yo‘nalishda tanlash, taqsimlash, amalda qo‘llash muammosini yaratadigan va mavjud bilimlar bazasidan amalda foydalanish uchun yangi nostandart sharoitlar yaratilgan vaziyatlardir.

Talabalar xorij tilini o‘rganishida eng samarali yondashuv bu inson hayotining har qanday sohasini tahlil qilishni ta’minlovchi nazariy va metodologik qoidalar majmui sifatida belgilangan madaniy yondashuvni hisoblanadi. Madaniyatning turli namunalari, qadriyatlar, urf-odat, turmush tarzi, shaxs va jamiyat, madaniy faoliyat va boshqalar kabi madaniy tushunchalarni shakllantirish tizimi orqali ham bu faoliyat sezilarli natija berishi metodistlar tomonidan ko‘rib chiqilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida talabalarning ta’lim-tarbiya muhitini madaniy yondashuv shakli ko‘rinishida qurish zarurligini asoslab, quyidagi taxminlardan kelib chiqamiz, bunda xorijiy tilda o‘qitish jarayonini tashkil etishdagi yana bir muhim jihati shuki, o‘rganilayotgan til mamlakatlarning ham, mamlakatimizning ham ijtimoiy-madaniy muhitini dastlab o‘rganib chiqilishiga e’tibor qaratish lozim. Fanlararo baza sifatida o‘rganilayotgan til mamlakatga xos belgili madaniyatshunosligi, bo‘lishi kerak, bu orqali talabalar o‘rganilayotgan mamlakatlarning ham tarixiy, ham ijtimoiy-madaniy hayoti haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.

Bu tushuncha asosida bo‘lajak muhandislarning xorijiy tildan oliy texnik ta’lim mutaxassislarining kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonining samaradorligi ta’lim jarayonining madaniy-ma’rifiy muhiti maydonida o‘zini aniqlash, o‘zini rivojlantirish va lingvistik o‘zlikni anglash uchun maqsadga muvofiq sharoit yaratilganligiga bog‘liqdir.

Madaniyatlar almashinuvi hozirgi kunda oliy texnik ta’lim tizimidagi mutaxassislarning xorijiy til orqali kasbiy kompetentligini

shakllantirish va madaniy muloqot aloqalarini yaxshilash jarayoni sifatida namoyon bo‘lishi mumkin. Unda talaba faollikni egallab, o‘zini tillararo, millatlararo, madaniyatlararo va shaxslararo munosabatlarning bir a`zosi sifatida namoyon etadi. Bunday yondashuv ijtimoiy, ahloqiy, madaniy, lingvistik va madaniyatlararo axborotni yetarli tarzda madaniyatshunoslik darajasidagi kasbiy muloqotni amalga oshirish imkonini beradi. Xorijiy tilni o‘rganishlari asnosida talabalar kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogik tizimlari uzluksizlik, bir birini to‘ldirib turuvchi komplementarlik, everistik va reproduktiv usullar uyg‘unligi, fanlararo o‘zaro integratsiya, ijtimoiy-madaniy va kasb-hunarga to‘g‘ri yo‘naltirish, hamda guruhiy o‘zaro ta’sirning o‘zgaruvchanligi jihatlariga asoslanishi lozim. Boshqacha qilib aytganda, bo‘lajak mutaxassisni tayyorlash samaradorligi talabaning mustaqil ta’limi qanday sifat darajada tashkil etilganligi, mutaxassislikka qanchalik tayyor ekanligi, bu ishga qanchalik pedagogik yondashishiga bog‘liq. Mustaqil ta’lim uning o‘qitish va o‘zlashtirish sifatini belgilovchi asosiy belgisi deb hisoblaymiz.

Talabaning har qanday erkin o‘quv faoliyatini biz mustaqil ish atamasi deb atashimiz mumkin. Chunki u insonda asosiy funksiyalarni bajaruvchi xotira, fikrlash, eshitish, ko‘rish va nutq apparatining mexanizmiga tayangan bo‘ladi. Biz talaba faoliyatining tabiatini emas, balki uni boshqarish usulini asos qilib olamiz, ya’ni o‘qituvchining o‘zi uni boshqaradimi, talabalar bilan bevosita aloqada bo‘ladimi yoki taqdim etilgan o‘quv materiallari orqali bilvosita boshqariladimi, buni aniq bilishimiz kerak. Mustaqil ish nisbiy bo‘lgani uchun, talaba faoliyatini bilvosita boshqarish uning butun muddati davomida saqlanib turganligi sababli, mustaqil ishni tashkil etishda eng muhim momentlardan biri boshqaruvdir. O‘qituvchi mustaqil ishning ko‘lami va yo‘nalishini rejalashtirishi, muvofiqlashtirishi va nazorat qilishi zarur.

Muvaffaqiyatli vaziyatni yaratishda o‘qituvchi o‘qitishni qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega. O‘qituvchi muvaffaqiyat vaziyatini yaratadi, busiz har qanday mashg‘ulotning unumi va natijasi haqida gapirish mumkin emas. Mustaqil o‘rganish talaba faoliyatining ijodiy va asosiy elementi hisoblanadi. O‘qituvchining roli, o‘qitish motivlarini

shakllantirish, kelajakda yorqin va omadli kasbiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat.

Turli shakllarda amalga oshirilishga qaratilgan talabalarning interfaol ta’limi nafaqat amaliy va nazariy mashg‘ulotlar uchun tayyorgarlik sifatida, balki til olimpiadalarida faol ishtirok etish uchun tayyorgarlik sifatida, talabalar ilmiy-nazariy anjumanlarda ma’ruza qilishi uchun xorijiy tilda hisobot va tezislarni tayyorlashi, talaba kundaligini yuritishi, til portfeli va boshqalar. Rasmiy bo‘lmagan ta’limda amalga oshirilayotgan til dasturlarida talabalarning ishtiroki, til o‘rganayotgan xalqning adabiyoti,ijtimoiy hayoti, tarixi va madaniyati bilan ko‘proq tanishish imkonini beradi.

Ikki asosiy vazifani hal etuvchi noan’anaviy va rasmiy ta’lim birinchidan, mazkur xorijiy fan bo‘yicha talabada qiziqishni rivojlantirish, bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va chuqurlashtirish; ikkinchidan, talabalarning bo‘sh vaqtlarini umumiy, axloqiy, estetik va madaniy rivojlantirish maqsadida tashkil etish, ularning umumiy va filologik ufqlarini kengaytirishdan iborat. An’anaviy va noan’anaviy ta’limda bu muammolarni oliy ta’lim tizimida o‘qitishning umumiy o‘quv maqsadi va vazifalariga muvofiq ravishda chet tili vositasida hal etadi.

Oliy ta’lim muassasasi talabalariga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatish, ularni lingvistik dasturga o‘qituvchi tomonidan yaratiladigan ijodkorlik muhiti va sog‘lom axloqiy-psixologik iqlimga kirgizishdan boshlanadi. Talabalar barcha tadbirlarning faol ishtirokchilariga aylanadilar, bayramlar, mini-konferensiyalar, loyihalarda ishtirok etish va boshqalar. Agar boshida talaba hayajonli bo‘lgan, hech narsa bilan tenglashmaydigan rang-barang talabalik oltin davrini his etsa, bilim olish sirlari uzluksiz bo‘lsa, tashabbus va ijodkorlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan joyda, albatta, talaba bu tadbirlarning ishtirokchisi bo‘lishni istaydi.

Norasmiy ta’lim jarayonida xorijiy til orqali talabalarning kasbiy kompetentligini shakllantirishda talabalarning rol pozitsiyalari o‘zgaradi: ta’lim oluvchi – mustaqil ta’lim oluvchi – ta’lim beruvchi, tarqatuvchi.

Bu jarayonda rollar quyidagicha o‘zgartiriladi. Birinchidan, bo‘lajak mutaxassis til dasturida o‘quvchi sifatida ishtirok etadi, chunki unga tayyorgarlik auditoriyada boshlanadi. Noan’anaviy va norasmiy ta’lim xorij tiliga asoslangan darslarida yaratilgan texnika va ko‘nikmalarini egaligi haqida (rasmiy ta’lim), unda talabalar yanada keng bilm ko‘nikma va qobiliyatdan foydalanishi muhim ahamiyatga ega. Bir vaqtning o‘zida ularni noan’anaviy va norasmiy ta’lim sharoitlarida takomillashtirish xususiyatlariga muvofiq ularni rivojlantirish kerak, bu esa umuman talabalar o‘quv faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Loyihaviy tayyorgarlikni tashkil etishda o‘qituvchi muammoli vaziyatlarni yaratishi, talabalarga esa, yangi bilim yoki harakatlarni kashf etishi lozim bo‘lgan amaliy yoki nazariy vazifa berilishi kerak.

Umuman olganda, bugungi kunda oliy ta’lim muassasalarida xorij tilida noan’anaviy muloqot nutq amaliyoti va talabaning til egallashi uchun zarur bo‘lgan muhim motivatsiya vositasi hisoblanadi. Shuningdek, xorij tili uning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda kasbiy-ijodiy izlanish va muammoli usullar uyg‘unligi bo‘lgan loyiha texnologiyalaridan mustaqil tarzda foydalanish zarur, deb hisoblaymiz.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

1. Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonini amalga oshirishda o‘zining samaradorligini isbotlagan asosiy ratsional metodik usullarni ko‘rib chiqishni taqozo etadi. Oliy ta’lim tizimini insonparvarlashtirish ruhida qaraladigan usul – kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida umuminsoniy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar mazmunidan foydalanishni ta’minlaydi.

Kreativlikni rivojlantiruvchi metodlar asosida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-metodik ta’minotini ishlab chiqishni taqozo etadi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish zamonaviy o‘qituvchining idealini ko‘rish to‘g‘risidagi masalaga bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

2. Kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish yo‘llari orqali “Assesment” texnologiyasi asosida kasbiy-ijodiy layoqatlikni ifodalovchi malakalarni baholash metodikasi takomillashgan. Mazkur

baholash metodikasi kasbiy ta’lim hamda ijodiy sifatlarning tasnifi asosida takomillashtirish ishlari olib borildi.

XULOSA

“Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish” mavzusidagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan monografya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik-psixologik imkoniyatlari muammoning mavjud holatini o‘rganishni talab etadi. Shuningdek, talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyasi kasbiy omillar va kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni tizimlashtirish asosida takomillashtirish imkonini beradi.

2. Oliy ta’lim muassasasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning akmeologik modeli kasbiy kompetensiyani shakllantirish strategiyalarini kreativ yo‘l xaritasiga optimallashtirish asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

3. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mezonlari kasbiy bilimlarni o‘qitishning variativ va invariativ didaktik funksiyalari asosida aniqlandi. Mazkur funksiyalarni “Assisment” texnologiyasi bo‘yicha ijodiy loyoqatni ifodalash asosida takomillashtirishni talab etadi.

4. Oliy ta’lim muassasasi talabasining kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish bosqichlarini aniqlash natijasida rivojlanish motivatsiyasiga ta’sir etuvchi omillar va o‘zlashtirish darajasi ko‘rsatkichlarini optimallashtirish asosida takomillashtirishni taqozo etadi.

5. Oliy ta’lim muassasalari talabalarining kasbiy-ijodiy kompetensiyalari rivojlanishining malakali mutaxassisning yuzaga keladigan o‘quv-tarbiya vazifalarini hal etishning samarali metodik usullarini izlash va amaliy foydalanishda faollikni namoyon etishga undovchi sifatida xizmat qilishlari aniqlandi.

6. Talabalarda kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik sharoitlari oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchilarining

mazkur yo‘nalishdagi olib boradigan kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirishning muvaffaqiyatiga ko‘maklashadigan harakatlantiruvchi kuchlarining ta’sirini optimal tashkil etishning zaruriy shartidir.

Mazkur xulosalarga tayangan holda, oliy ta’lim muassasalari talabalarini kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish samaradorligi yuzasidan quyidagi tavsiyalarni berish mumkin:

barsha ta’lim yo‘nalishlarida talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilgan kreativ yo‘l xaritasini ommalashtirish;

talabalarning kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mazmunini ifodalovchi veb-saytlarini yaratish, masofaviy kurslarni ishlab chiqish, vebinarlarni tashkil etish;

umumkasbiy, ixtisoslik va qo‘shimcha fanlar modullari bo‘yicha alohida kreativ yo‘l xaritalarini ishlab chiqish , kasbiy-ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish mazmunida elektron o‘quv adabiyotlarini yaratish.

GLOSSARIY

Axborot - biron voqea haqidagi batafsil xabar, ma’lumot. Davlatlar o‘rtasidagi muzokaralar na-tijasida tuzilgan bitim yoki shartnoma to‘g‘risida hukumatning rasmiy xabari.

Axborot-komunikatsiya - axborot almashish jarayonlarini birgalikda amalga oshirish uchun mo‘ljallangan texnologiyalar tushuniladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari– ma’lumotlarni o‘zida to‘plash, saqlash, qayta ishlash, ulardan foydalanish vositalari orqali barcha sohalarda keskin rivojlanishga imkon yaratib beruvchi texnologiyalar.

Axborot texnologiyalari - bu kompyuter tizimlari, dasturiy ta’minot, dasturlash tillari, ma’lumotlar, ma’lumotlarni qayta ishlash va saqlashni o‘z ichiga olgan tegishli sohalar to‘plami. Axborot texnologiyalari tizimi — odatda, axborot tizimi, aloqa tizimi yoki aniqrog‘i, kompyuter tizimi, jumladan, barcha apparat, dasturiy ta’minot va periferik jihozlar — cheklangan axborot texnologiyalari foydalanuvchilari guruhi va axborot texnologiyalari loyihasi tomonidan boshqariladigan tizim va odatda AT tizimini ishga tushirish va joriy etishni nazarda tutadi.

Axborot tizimi - Axborotni to‘plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda ulardan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari. Tashkiliy (jumladan, axborot jarayonlarini amalga oshiruvchi hisoblash texnikasi va aloqa vositalaridan foydalangan holda) tartibga solingan jami hujjatlar (hujjatlar massivlari) va axborot texnologiyalari. Bir butunni tashkil qiluvchi tartibga solingan jami axborot texnologiyalari, obyektlar va ular orasidagi munosabatlar. Obyektlar sifatida axborot tizimi tarkibiga aniq axborot jarayonini bajarish uchun kerakli xodimlar, axborot, moddiy-texnikaviy va boshqa resurslar kirishi mumkin. Tartibga solingan funksional nuqtai nazardan o‘zaro bog‘liq jami dasturiy-apparat vositalari va axborotni to‘plash, unga ishlov berish, saqlash va uzatish texnologiyalari. Axborotni

yig‘ish, saqlash va unga ishlov berish bilan bog‘liq bo‘lgan istalgan tizim. Shu nuqtai nazardan tizimlashtirilgan kartoteka ham, ma’lumotlar banki ham axborot tizimi hisoblanadi. Foydalanuvchilar (inson va dasturlar) so‘rovi bo‘yicha axborotni saqlash, izlash va berish uchun mo‘ljallangan hisoblash tizimi. Odatda axborot tizimi o‘z ichiga katta va murakkab ma’lumotlar bazalari va bilimlar bazalarini olib, bir nesha tashkilot foydalanuvchilarini axborot bilan ta’minlaydi.

Axborot ehtiyojlari - Nomoddiy ehtiyojlar turi. Aniq vazifani bajarish yoki muayyan maqsadga erishish uchun zarur bo‘lgan axborotga ehtiyoj.

Axborot foydalanuvshisi - Axborotni yoki unga ishlov berish imkonini

oluvchi subyekt. Axborot tizimi yoki vositachiga kerakli axborot olish uchun murojaat qiluvchi yoki undan foydalanuvchi subyekt.

Axborot iste’molshisi - O‘z ehtiyojlarini qondirish (bilimlarni oshirish, ta’lim olish, qarorlarni qabul qilish va h.k.) maqsadida axborotga muhtoj, uni izlovchi va oluvchi shaxs yoki shaxslar.

Axborot mazmuni - Ma’lum obyekt yoki hodisa to‘g‘risida jami elementlar, tomonlar, ular o‘rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi aniq ma’lumotlar.

Axborot tarmog‘i - Aloqa kanallari bo‘yicha ma’lumotlarni uzatish va ularga ishlov berish uchun dasturli texnikaviy vositalar majmui.

Axborotlashtirish obyekti - dasturiy mahsulotlar ishlab chiqarish, rivojlantirilishini rag‘batlantirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, investitsiyalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratish, kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish.

Axborotlashtirish vositalari - jamiyatni axborotlashtirish jarayonida foydalaniladigan asbobiy apparatli va dasturiy vositalar, shuningdek axborot texnologiyalari.

Axboriy-hukquqiy munosabat - Axboriy-huquqiy me’yor bilan tartibga solingan axboriy ijtimoiy munosabat.

Axborot buzilishi - kompyuter yoki tashuvchi xotirasida

saqlanayotgan axborotni o`chirish.

Axborot resursi - axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi. Alohida hujjatlar va hujjatlar massivlari, axborot tizimlaridagi (kutubxona, arxiv, jamgarma va ma’lumotlar banklari, boshqa axborot tizimlari) hujjatlar va xujjatlar massivlari. Axborot tizimlaridagi (kutubxona, arxiv, jamg`arma va ma’lumotlar banklari hamda depozitariy, muzey va boshqalar) hujjatlar va hujjatlar massivlari. Ma’lumotlar va bilimlar bazalari, axborot tizimlaridagi boshqa axborot massivlarini o‘z ichiga oluvchi tashkillashtirilgan jami hujjatlashtirilgan axborot.

Akkaunt - “qayd yozuvi”. Kompyuterda saqlaniladigan foydalanuvchi tavsifi. Odatda u foydalanuvchining tarmoqdagi nomi, haqiqiy nom, parol, foydalanuvchi huquqlari va uy katalogining nomi (agarda u bor bo‘lsa)dan tarkib topgan.

Aqlli interfeys - foydalanuvchining kompyuter bilan tabiiy tilda o‘zaro aloqada bo‘lishni ta’minlovchi interfeys. Aqlli interfeys, odatda, foydalanuvchining kasbiy tilini o‘giruvchi muloqot protsessori va vazifa tavsifini bilimlar bazasida saqlanuvchi axborot asosida uni bajarish dasturiga qadam baqadam o‘giruvchi loyihalashtirgichni o‘z ichiga oladi.

Avtomatik tizim - inson ishtirokisiz mustaqil faoliyat qiluvchi dasturiy va apparatli vositalar tizimi.

Avtomatlashtirilgan axborot texnologiyasi - ma’lumotlarni uzatish, to‘plash, saqlash va qayta ishlash uchun hisoblash texnikasi va aloqa tizimlari usullari va vositalari qo‘llaniladigan axborot texnologiyasi.

Bayt – axborot o‘lchov birligi, o‘zida 8 bit axborotni saqlaydi.

Bloksheyn texnologiyalari (Blosk shain). Bloksheyn (bloklar zanjiri) – taqsimlangan ma’lumotlar to‘plami bo‘lib, unda ma’lumotlar saqlash qurilmalari umumiy servirga ulanmagan bo‘ladi. Bu ma’lumotlar to‘plami bloklar deb ataladigan tartibga solingan qaydlar doimiy o‘sib boradigan ro‘yxati saqlanadi. Har bir blok vaqt belgisiga va bundan oldingi blokka havolaga ega bo‘ladi.

Bloksheyn texnologiyasi - algoritmlardan tranzaksiyalarni

ishonchli hisobga olish uchun foydalanadigan taqsimlangan ma’lumotlar tizimi. Tizimda axborotni o‘zgartirish mumkin emas, Chunki keyingi zanjirlar oldingi operatsiyalar haqida ma’lumotlarni himoya qiladi.

Bit – axborotning eng kichik o‘lchov birligi.

Bir nesha xavfsizlik darajalari – turli xavfsizlik domenlarining resurslari (ayniqsa saqlanuvchi ma’lumotlar) orasida taqsimlashni tashkil etish va madadlash uchun ishonchli axborot tizimi imkoniyati.

Brauzer – WWWda ishlash uchun mijoz dasturi.

Dastur - hisoblash mashinasiga algoritmni beruvchi ko‘rsatmalar (buyruq yoki tasnif va operatorlar)ning ketma-ketligi. Dastur kompyuter tomonidan qaysi tartibda, qaysi ma’lumotlar ustidan va qaysi amallar bajarilishi va natija qaysi shaklda taqdim etilishini ko‘rsatadi.

Dasturiy ta`minot – axborotlarni qayta ishlashda dasturlash jarayonini avtomatlashtiradi.

Diagramma – ma’lumotlarni tahlil qilish va solishtirish uchun foydalaniladigan jadval ma’lumotlarining grafik ko‘rinishda tasvirlanishi.

Domen – Internetning tashkiliy birligi bo‘lib, identifikatsion tugunlarga yoki qarindosh guruhlar tuguniga xizmat qiladi. Katta domenlar turli soha qiziqishi yoki mas`ulligini ifodalovchi domen ostiga bo‘linadi.

Drayver - boshqaruvchi dastur. Odatda, bu bajarilayotgan dasturning ma’lum moslama bilan o‘zaro ishlashini ta’minlovchi va undan qulay foydalanishga yordam beruvchi amaliy tizimning dasturidir.

Dasturiy ta’minot - Axborotga ishlov berish tizimining barcha yoki ba’zi dasturlari, tartiblari, qoidalari va ularga tegishli hujjatlar. Dasturiy vositalar ular yozilgan tashuvchidan qat’iy nazar intellektual mahsulot hisoblanadi.

Dasturlash - dasturni yaratish jarayoni. Dasturlash o‘z ichiga dasturga bo‘lgan talablar tahlili va uni ishlab chiqish va yaratishning barcha bosqichlarini oladi. Hisoblash mashinalari uchun dasturlar tuzish va amalga oshirish uslublari va vositalarini ishlab chiqish bilan shug‘ullanuvchi fan.

Dasturlash tili - kompyuterlar uchun dasturlar (ko‘rsatmalar

yig‘masi) yoziladigan, uni u yoki bu harakatlarni bajarishiga majbur qiladigan rasmiy til. Dasturlash tilida yozilgan ko‘rsatmalar dastlabki kod deb ataladi. Dastlabki kod kompyuterda amalda bajarilishidan avval, uni mashina kodiga yo bo‘laklab talqin qilish, yo batamom talqin qilish zarur.

E-mail – elektron pochta. Elektron pochta maxsus dastur bo‘lib, uning yordamida internet tarmog‘i orqali dunyoning ixtiyoriy joyidagi elektron manzilga xat, hujjat, ya’ni ixtiyoriy ma’lumotni tezda jo‘natish va qabul qilib olish mumkin.

Elektron poshta - xabarlarni to‘plash, ishlab chiqish va taqdim etish hamda ma’lumotlarni uzatish tarmoqlari tizimidir.

Elektr aloqasi - Simli, radio-, optik va boshqa elektroma-+

gnit tizimlar orqali belgilar, signallar, yozma matn, tasvirlar va tovushni har qanday uzatish va qabul qilish.

Elektr aloqasi xabari - simli, radio - optik va boshqa elektrmagnit tizimlari `

Elektron hujjat - Elektron shaklda qayd etilgan, elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan va elektron hujjatning uni identifikatsiya qilish imkoniyatini beradigan boshqa rekvizitlariga ega bo‘lgan axborot.

Elektron hukumat - barsha ham «ichki», ham «tashqi» aloqalar va jarayonlar majmuasi tegishli axborotkommunikatsiya texnologiyalari bilan quvvatlanib va ta’minlanib turadigan hukumat.

Elektron jurnal - internet global tarmog‘i orqali tarqatilayotgan ilmiy va texnikaviy nashrlar majmuasi.

Elektron kitob - Elektron tashuvchida axborot taqdim qilingan kitob. Elektron kitoblar ixsham yoki epchil disklarda ishlab chiqariladi. Birinchi navbatda, ensiklopediya, lug‘at, albom va geografik xaritalar elektron kitob shaklida nashr qilinadi. Ularda gipermatn va gipermuhit g‘oyalaridan foydalaniladi.

Fayl – nomiga, kengaytmasiga va hajmiga ega bo‘lgan obyekt bo‘lib, tashqi xotirada saqlanadi.

Fayl atributi – faylni belgilovchi xarakteristika, ismi, o‘lchami, tuzilishi (xili), foydalanish usuli, yozilish uzunligi, yozilish xili va h.

Fayllarni jo‘natish – butun faylni yoki uning qismini ochiq

tizimlar orasida ko‘chirish muolajasi.

Faksimil - tasvir nusxasini ixtiyoriy usul bilan yetarlicha aniq qayta aks ettirish.

Flash texnologiyasi - brauzerdan mustaqil va aloqa kanalining ixtiyoriy kengligi quvvatlaydigan vektorli grafika va animatsiya texnologiyasi.

Foydalanuvshi - ma’lumotlarga ishlov berish tizimiga buyruq yoki xabarlar beruvchi yoki axborotga ishlov berish tizimidan xabar qabul qiluvchi har qanday shaxs yoki obyekt.

Geoaxborot texnologiyalari (GAT texnologiyalari) - GAT ning funksional imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan geografik axborot tizimi yaratishning texnologik asosi.

Global aloqa tarmog‘i - yer sharining asosiy qismida aloqa xizmatlarini ko‘rsatishga mo‘ljallangan elektr aloqa tarmog‘i. U xalqaro miqyosda rostlanadi.

Global axborot tizimi - internet tarmog‘ining ma’lumotlar bazalaridan axborot izlash bo‘yicha tarmoq xizmati.

Globallashuv - axborot texnlogiyalari, mahsulotlari va tizimlarini butun dunyoga tarqalish jarayoni. U iqtisodiy va madaniy jihatlardan qaraganda uyg‘unlashuvga olib keladi. Bu jarayonning tarafdorlari bundan keyingi taraqqiyot imkoniyatlarini faqat global axborot jamiyatini rivojlanish sharoitlarida ko‘rishadi.

Harfiy-raqamli kodlash - harflar, sonlar va alfavitning boshqa ramzlaridan tashkil topgan koddan foydalanidigan kodlash.

Internet – Kompyuterlar orasida axborot almashishini ta’minlaydigan, o‘zaro bog‘langan kompyuterlar tarmog‘i bo‘lib, ochiq jahon axborot tizimi tashkil qiladi. Ommaviy yoki xususiy ravishda yuqori darajali kommunikatsiya xizmatlarini ta’minlovchi global axborot tizimi. Yer sharini qamrab olgan o‘zaro bog‘liq kompyuter tarmoqlari to‘plami. Internet, barchasi IP bayonnomasidan foydalanuvchi kompyuterlar, elektron pochtasi, e’lonlar doskalari, ma’lumotlar bazalari va mulohaza guruhlaridan erkin foydalanishni ta’minlaydi.

Internet etiketi - Internet amalda qonunlar bilan tartibga

solinmaydi. Bundan, to‘g‘ridan to‘g‘ri unga tatbiq qilsa bo‘ladigan «voqeiy hayot» qonunlari, istisno.

Innovatsiya - fan yutuqlari va ilg‘or tajribadan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishni takomillashtirish va rivojlantirish jarayonlari, yangi iste’mol xususiyatlarga ega mahsulotlarni (tovar, mahsulot, texnika, texnologiya, boshqa tashkiliy shakl va vositalar) shakllantirish, amaliyotga joriy etishga asoslangan investitsion va ijodiy faoliyatning moddiylashgan yakuniy natijasi bo‘lib, bozor va ijtimoiy ehtiyojlarning qondirilishiga ko‘maklashadi, xarajatlarni tejaydi va insonlarning turli xil hayot va faoliyat sohalarida turlicha samara berishini ta’minlaydi.

Innovatsion faoliyat - Yangi g‘oyalar, metodlar va texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash orqali samaradorlikni oshirish.

Innovatsion o‘qitish - Ta’lim jarayonida yangi g‘oyalar va texnologiyalarni tatbiq etishga qaratilgan yondashuv.

Innovatsion kompetentlik – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish.

Innovatsion ta’lim strategiyalari - Ta’lim jarayonida yangiliklar kiritishga qaratilgan yondashuvlar va strategiyalar.

Ijodiy qobiliyat testlari - o‘zlashtirilgan ko‘nikma va malakalarni yangi sharoitlarda, amaliyotda ishlatish so‘raladi.

Ijtimoiy tarmoq - tarkibi ishtirokchilari tomonidan yaratiladigan ko‘p foydalaniluvshi interaktiv veb-sayt.

Interaktiv dastur – interfaol dasturiy modul (test o‘tkazish, modellash, imitatsiya).

Infografika - (lotin. Informatio – xabardor qilish, aniqlik kiritish, ta’riflash) – bu murakkab va katta hajmdagi ma’lumotlarni tez va aniq taqdim qilishga mo‘ljallangan ma’lumotlarning grafik interpretatsiyasi (shakli), “ma’lumot beruvchi grafik dizayn” hisoblanadi.

Jamiyatning axborot madaniyati - jamiyatning o‘z ixtiyorida bo‘lgan axborot resurslari va axborot kommunikatsiyasi vositalaridan samarali foydalanish qobiliyati.

Java texnologiyasi - java amaliy mosligiga asoslangan texnologiya. U ishlatilayotgan kompyuter turiga nisbatan dasturiy ta’minot mustaqilligini ta’minlaydi.

Ilmiy-axborot faoliyati - ilmiy-texnikaviy axborotni tashkil qilish, to‘plash, tartibga keltirish, tahliliy-sintetik qayta ishlash, yozish, saqlash, tarqatish va foydalanuvchi (iste’molshi)ga taqdim qilish bilan bog‘liq harakatlar majmui.

Kasbiy bilimlarni puxta o‘zlashtirish madaniyati – pedagog tomonidan mavjud pedagogik bilimlarni puxta o‘zlashtirish yo‘lida amaliy harakatlarning tashkil etilayotganligini anglatuvchi sifat.

Kasbiy ziyraklik – o‘quvchilar ruhiy holatlarini, dars, tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazishga bo‘lgan ishtiyoqlarini to‘g‘ri baholash, ularning o‘zaro yoki pedagoglar bilan ziddiyatlarini anglash, o‘quvchi va guruhga ta’sir ko‘rsatishda qulay vaziyatini tanlay bilish.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi.

Kommunikatsiya – haqiqatda konkret nutq sharoiti tinglovchiga so‘zlovchi aytayotgan voqea-hodisani tezroq, osonroq tushunishga yordam beradi, kommunikatsiyani tezlashtiradi.

Kompyuter grafikasi - kompyuterlar yordamida tasvirlarni yaratish va ishlov berish texnologiyasi. Avvaliga, oq-qora chizmalarni va sxemalarni tayyorlash jarayoni kompyuter grafikasi deb atalgan.

Kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish

Kompetentlik (ingl. “sompetense” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish

Kreativlik (ingl. “sreate ” – yaratish, “sreative ” – “yaratuvshi”, “ijodkor”) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni

tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Kreativ o‘qitish - O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga va innovatsion yechimlarni ishlab chiqishga undovchi ta’lim jarayoni.

Kreativ muhit - O‘quvchilar va o‘qituvchilar ijodiy fikrlash va yangi g‘oyalar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lgan muhit.

Kreativ strategiyalar - O‘quvchilarni ijodiy fikrlashga va muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan usul va yondashuvlar to‘plami.

Kreativ metodlar - Ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan usullar va yondashuvlar.

Kreativ muammolarni hal qilish - O‘quvchilarning kreativ fikrlash va innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda muammolarni hal qilish jarayoni.

Kreativ metodologiya - Ta’lim jarayonida kreativ fikrlash va ijodiy yondashuvlarni qo‘llashga asoslangan metodlar va usullar tizimi.

Login - foydalanuvchining kompyuter yoki tarmoqdan erkin foydalanish jarayoni. Kompyuterdan erkin foydalanishga ega bo‘lish uchun foydalaniluvchi qayd yozuvi nomi. Maxfiy emas. Kompyuterga ma’lumotlarini (odatda qayd yozuvi nomi va parol) uzatayotganda u bilan bog‘lanish.

Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi

Ma’lumotlar bazasi – tatbiqiy dasturlarga bog‘liq bo‘lmagan holda ma’lumotlarni tavsiflashning, saqlashning va manipulyatsiyalashning umumiy prinsiplarini ko‘zda tutuvchi, ma’lum qoidalar bo‘yicha tashkil etilgan ma’lumotlar majmui. Predmet sohasining informatsion modeli hisoblanadi. Ma’lumotlar bazasi odatda abstraksiyaning tashqi, konseptual va ichki sathlari orqali ifodalanadi.

Ma’lumotlar almashuvi - funksional qurilmalar orasida ma’lumotlarni ko‘chirish. Bu ma’lumotlarni siljitishni va almashuvini kelishtirishni boshqarish qoidalar to‘plamiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ma’lumotlar bazasidan foydalanish - chop etish, aks ettirish, tarqatish va ularni turli xo‘jalik faoliyatiga kiritish (jumladan o‘zgartirilgan shaklda ham) bo‘ycsha harakatlar.

Matn - ma’lumotlarni ifodalash shakli. Mazmunan yagona yaxlit bo‘lib, tanlangan tilning belgilari ketma-ketligidan iborat. Matn hujjat asosidir. Axborot tizimiga matnni kiritish klaviatura, nurli pero, mikrofon yoki skaner yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Matn fayli - faqat harflar, raqamlar va belgilardan iborat fayl.

Modem - «Modulyator-demodulyator»ning qisqartmasi. Kompyuterdan olingan raqamli signalni uzatish, uchun analog shaklga aylantirish va qabul, qilingan signalni anolog shakldan raqamli shaklga qaytarish. Modem signalning telekommunikatsiya kanallari bo‘ylab uzatishni ta’minlaydi.

Misrosoft Word dasturi - matn muharrirlaridan biri bo‘lib, uning yordamida mukammal hujjatlar va ilovalar yaratishimiz mumkin. Hujjat yaratish va uni yetarlicha samarali qilish imkonini beradi.

Misrosoft Exsel dasturi - yacheykalarga ma’lumotlarni kiritish usullari, ular ustida har xil arifmetik va mantiqiy amallar bajarish, ma’lumotlarni saralash va tahrirlash.

Onlayn xizmat - internetda maxsus dasturlar yordamida taqdim qilinadigan xizmatlar. Masalan, keng tarqalgan xizmatlar: qidirish tizimi, veb-xosting, vebposhta, Internetda turli axborotni saqlash (fayllar, xatcho‘plar), taqvim va boshqalar.

Onlayn texnologiyalar - tarmoq axborot fazosida, haqiqiy vaqtda axborotni sinxron almashuvini ta’minlab beruvchi, xabarlarni kommunikatsiya vositalari:

“suhbat kanallari” (shatlar), audio- va videokonferensiyalar va boshqalar.

Optik kabel - yorug‘lik signallarini uzatuvchi kabel. Optik, xuddi shunday, “optik-tolali kabel”deb ataluvchi kabelni, yaratish uchun yorug‘lik o‘tkazgichlari ishlatiladi, ularning har biri, bir necha qavat muhofazalovchi qoplamaga ega bo‘lib, bu yorug‘lik o‘tkazgichlarini mexanik va optik ko‘rsatkichlarini yaxshilaydi.

Pedagogik axborot - Ta’lim jarayonida muhim bo‘lgan bilimlar

va axborotlar, o‘qitish va o‘rganish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar.

Pedagogik dasturiy vositalar - kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi.

Parol – talabgor o‘zining haqiqiyligini tekshirish uchun xotirasida saqlagan va foydalanadigan maxfiy kattalik. Yana – tizimdan, dasturdan yoki ma’lumotlardan foydalanishga ruxsat olish uchun kompyuter so‘rovi bo‘yicha kiritiladigan simvollarning noyob ketma-ketligi.

Portal - turli xil resurs va xizmatlardan tizimli tarzda ko‘p pog‘onali birlashma sifatida tashkil qilingan sayt.

PowerPoint dasturi - Prezentatsion (taqdimot) grafikli dasturlar qatoriga kiradi, o‘zida matnlar, rasmlar, sxemalar, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz videokliplardan iborat bo‘lgan slaydlar hosil qilish imkonini beradi.

Publisher dasturi - Nashrdan yoki bosmadan chiqarish uchun turli ko‘rinishdagi e’lonlar, bukletlar, taqvimlar, konvertlar, taklifnomalarni elektron shaklda tayyorlash dasturiy mahsuli hisoblanadi.

Raqamli axborot – kompyuter tizimlarida ishlashga, saqlashga va almashishga mo‘ljallangan ma’lumotlar ko‘rinishida ifodalangan axborot.

Raqamli imzo kaliti – elektron imzoni yaratishga mo‘ljallangan simvollarning noyob ketma-ketligi.

Spam – so‘ralmagan hajmiy xabarlarni asossiz yuboruvchi elektron nomaqbul pochta yoki elektron xabar almashish tizimlarining noto‘g‘ri ishlatilishi.

Sun’iy intelekt - informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi.

Virtual haqiqat – muloqotsiz axborot hamkorlikning yangi texnologiyasi bo‘lib, kompleks multimediya amaliyot vositalari yordamida real vaqt oralig‘ida "dunyo ekrani"ga kirish ilyuzasini ta’minlaydi, Bu foydalanuvchi tasavvuridagi batafsil mavhum xayoliy dunyodir.

Virtual kutubxona – global Internet tarmog‘iga joylashtirilgan o`quv-uslubiy va qo‘shimcha adabiyot.

Qobiliyat - insonning shaxsiy salohiyati, imkoniyatlari. Qobiliyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobiliyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Qobiliyat ko‘nikma, malakadan farq qiladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobiliyatga aynanlashtiriladi. Qobiliyat inson tomonidan ko‘nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobiliyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunishdan tashkil topgan bo‘lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o‘z ichiga oladi. Shu bois qobiliyat deganda birorta xususiyatning o‘zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko‘rsatkichlari erishishni ta’minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim.

Ta’limda texnologik yondashuv - Zamonaviy texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashga qaratilgan yondashuv.

Tadqiqiy-ijodiy yondashuv - ta’limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o‘stirish, yangi bilim (tajriba)ni mustaqil o‘zlashtirish, harakatning yangi usullarini topish, shaxsan tashabbus ko‘rsatishni ko‘zda tutadi.

Tajribaviy ta’lim - O‘quvchilarni amaliy tajribalar orqali o‘qitishga qaratilgan pedagogik yondashuv.

Ta’limning samaradorligi - Ta’lim jarayonining natijalarini va o‘quvchilarning muvaffaqiyatini baholash.

Ta’lim paradigmasi - Ta’lim jarayonini tashkil etish va boshqarishdagi asosiy tamoyillar va yondashuvlar majmui.

Ta’limning interdisiplinar - Turli fanlar va sohalar o‘rtasidagi integratsiyani ta’minlovshi ta’lim yondashuvi.

Ta’lim sifatini baholash -Ta’lim jarayonining samaradorligini va o‘quvchilarning muvaffaqiyatlarini o‘lchash jarayoni.

Ta’limda differentsiatsiya - O‘quvchilarning individual ehtiyojlari va kompetensiyalari ga asoslangan ta’lim jarayonini shaxsiylashtirish usuli.

Taksonomiya - Narsalarni ularning munosabatlariga koʻra tashkillashtirilgan tasniflash. Internetda bu atama, Internetda ishlatiladigan bayonnomalarning tashkillashtirilgan oʻzaro munosabatlarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Tasvirga ishlov berish - Tasvirlarni yaratish, tahlil qilish, oʻzgartirish yoki talqin qilish jarayoni. Tasvirlarga ishlov berish bir necha bosqichda bajariladi. Ulardan birinchisi, tasvirlarni abonent tizimiga videokiritish qurilmasi, sichqoncha, klaviatura, nurli pero, elektron moʻyqalam, skaner va dasturiy taʼminot, masalan, grafik muharrir yordamida kiritish bilan bogʻliq.

Ulanadigan modul - Veb-brauzerlariga formatlari brauzerlar tomonidan aniqlanmaydigan, masalan baʼzi video va audio yozuv formatlari, HTML hujjatlariga solingan fayllarni oʻqish va ularni amalga oshirish imkonini beruvchi dastur. Masalan, Windows Media aks ettiruvshining ulanadigan moduli Internet Explorer brauzeri oynasida filmlarni koʻrish imkonini beradi.

Ulanish blogi - Foydalanuvchi tizimni yoki maʼmuriy tizimni monokanal yoki davriy xalqaning umumiy boʻgʻini bilan ulanish qurilmasi. Ulanish blogi uch qismdan tashkil topadi. Ulardan ikkitasining, tuzilmasi bu boʻgʻinlarning turiga bogʻliq boʻlib, ulanish blogini foydalanuvchi boʻgʻin yoki umumiy boʻgʻin bilan tutashishini taʼminlaydi.

Umum foydalanishdagi axborot tizimi - barcha jismoniy va yuridik shaxslarning foydalanishi uchun ochiq va ushbu shaxslarga xizmatlari rad etilishi mumkin boʻlmagan axborot tizimi.

Umumiy axborot nazariyasi - ilmiy bilimlarning istiqbolli poydevoriy sohalaridan biridir. U tabiat va jamiyatning rivoji asosida yotgan, axborot voqeiyligining namoyon boʻlichiga oid eng umumiy qonuniyatlarga asoslanadi.

Umumiy foydalanish telekommunikatsiya tarmoqlarining (UFTT) axborot xavfsizligi - maʼlumot (foydalanuvshining axborotlari) uzatish jarayonining buzgʻunchilardan muhofazalanganlik holati. Bunda buzgʻunchi tomonidan tasodifan va ataylab amalga oshiriladigan taʼsirlar telekommunikatsiya tarmogʻi obyektlariga apparat-dasturiy

vositalariga, foydalanuvchi uzatayotgan ma’lumotlarni uzatishni to‘sib qo‘yish maqsadida tarmoqni boshqaruvchi axborotga yo‘naltirilgan bo‘lib, bular avvaldan ma’lum hisoblanadi.

Veb-sahifa - Internet manzili (URL) bilan bir xil ma’noda belgilanuvchi mantiqiy birlik. U veb-saytning tarkibiy qismidir. Veb-saytlardan iborat bo‘lsa, saytlar esa o‘z navbatida sahifalardan iborat deyish mumkin. Jismoniy nuqtai nazardan u HTML fayldir. Matn, tasvirlar, JAVA appletlari va boshqa elementlardan iborat bo‘lishi mumkin. Sahifa statik yoki dinamik shakllantirilgan bo‘lishi mumkin. Freymlardan foydalangan holda har bir freym alohida sahifa hisoblanadi.

Veb-sayt - “site” (tarjimasi “joy”) so‘zining o‘zbekcha talaffuzi. Umumjahon o‘rgimchak to‘ri ma’lum axborot topish mumkin bo‘lgan va noyob URL bilan belgilangan virtual joy. Mazkur URL veb-saytning bosh sahifasi manzilini ko‘rsatadi. O‘z navbatda, bosh sahifada veb-saytning boshqa sahifalari yoki boshqa saytlarga murojaatlar bo‘ladi.

Virtual - voqea bo‘lib ko‘ringan, biroq vazifalari boshqa moslamalar tomonidan bajariladigan funksional moslama ta’rifi.

Virtual borliq texnologiyasi - yangi axborot texnologiyalari turi. Informatika va kibernetika vositalari yordamida, insonlar ongida virtual borliqni shakllantirishni ta’minlaydi.

Xaker - kompyuterlar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassis. O‘z bilimlari va vositalaridan muhofaza qilinayotgan resurslardan ruxsatsiz erkin foydalanish uchun foydalanuvchi kompyuterlar bo‘yicha yuqori malakali mutaxassis. Informatika sohasida turli noqonuniy harakatlarni bajaruvchi shaxs, boshqa tarmoqlardan ruxsatsiz erkin foydalanish va ulardan axborot olish; dasturiy mahsulotlarning muhofazasini noqonuniy ravishda buzish va ularning nusxalarini ko‘chirish; kompyuter “viruslarini” yaratish va tarqatish va h.k.

Xavfsizlik - tizim yoki tarmoq axboroti muhofazasini, saqlanishi, ishonchliligini va puxtaligini ta’minlash qobiliyati. Obyektning tasodifiy va ataylab qilingan tahdidlarga qarshi tura olish qobiliyati.

Xavfsizlik obyekti - tizimning passiv tizimlashgan tashkil qiluvchisi. Unga xavfsizlik uslubiyati qo‘llaniladi.

Xavfsizlik subyekti - xavfsizlikni ta’minlashda ishtirok etish huquqlari va majburiyatlariga ega fuqarolar, ijtimoiy tashkilotlar va uyushmalar.

Xotira qurilmasi - ma’lumotlarni keyinchalik chiqarib olish va ishlatish uchun yozish va saqlashga mo‘ljallangan xotira qurilmasi.

Yagona axborot makoni - Ma’lumotlar bazalari va banklari, ularni olib borish va ishlatish texnologiyalari, axborot kommunikatsion tizimlar va tarmoqlar majmui. U yagona tamoyillar va umumiy qoidalar asosida ishlab, tashkilotlar va fuqarolar uchun axborot almashuvini ta’minlash, hamda ularni axborotga ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Yangi axborot texnologiyalari - Jamiyatni axborotlashtirish vositalarini rivojlantirish sohasidagi so‘nggi yutuqlar qo‘llanilayotgan axborot texnologiyalari. Bu yutuqlarga birinchi galda zamonaviy elektron hisoblash texnikasi, axborot telekommunikatsion tizimlari, sun’iy intellekt uslublari kiradi.

O‘qitish tizimi - Foydalanuvchilarni o‘qitib o‘rgatish uchun mo‘ljallangan tizim. Sun’iy tafakkur va bilimlar bazasini ishlatishga asoslanadi. Asosiy masala, foydalanuvchilarni tayyorgarlik darajasiga va ularni olingan axborotni o‘zlashtirishiga qarab, bilimlarni samarali uzatishdir.

O‘zaro faol axborot tizimi - muloqot maromida nafaqat axborotni uzatish, balki uni almashish ham sodir bo‘ladigan tashqi faol tizimning xususiy turi. Masalan: elektron pochta va chatlar, telefoniya, o‘zaro faol televideniya va boshqalar. Kodlash va dekodlash qurilmasi bitta moddiy obyekt sifatida taqdim etilgan tizim. Axborot xuddi o‘sha obyekt bo‘lib, aloqa uning fizikaviy qo‘shishi orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risidagi” qonuni - Qonunning maqsadi, axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonun 2003- yilning 11-dekabrda qabul qilingan.

Shaxsiy identifikatsiya raqami - Biror kimsaning shaxsiy kodi bo‘lib, undan erkin foydalanish boshqariladigan tizimdan erkin

foydalanish uchun imkoniyat yaratishga xizmat qiladi.

Shaxsiy imzo kaliti - Aniq shaxsga tegishli bo‘lgan va elektron raqamli imzoni yaratishda qo‘llaniladigan ramzlarning tartiblangan to‘plami.

Web portal - Web portal (inglizsha “portal” – darvoza so‘zidan olingan) - bu Internet foydalanuvchisiga turli interaktiv xizmatlarni (pochta, izlash, yangiliklar, forumlar va h.k) ko‘rsatuvshi yirik Web-sayt.

Web-sayt - Inglizsha “site” (tarjimasi joy, joylashish) so‘zining o‘zbekcha talaffuzi. Umumjaxon o‘rgimshak to‘ri ma’lum axborotni topish mumkin bo‘lgan va noyob URL manzillar bilan belgilangan virtual joy.

Web-sahifa - biror voqelik, hodisa yoki obyekt to‘g‘risida ma’lumotlarni o‘zida jamlagan ma’lumotlar fayldir.

WAP-brauzer - Bevosita mobil telefonidan hech qanday qo‘shimcha qurilmasiz (modem va kompyuter) Internet tarmog‘ining axborot va xizmatlaridan foydalanish imkonini beruvchi brauzer.

Windows operatsion (amaliy) tizimi - misrosoft korporatsiyasi tomonidan shaxsiy kompyuterlar uchun taklif qilingan operatsion tizimlar oilasi. Windows tizimi ko‘pmasalali va ko‘poqimli bo‘lib, qulay grafik interfeys bilan tavsiflanadi, virtual xotiraning boshqaruvini taqdim qiladi va ko‘pgina tashqi qurilmalarni qo‘llab-quvvatlaydi.

ILOVALAR

Qobiliyatni aniqlash testi savolnomasi

BERILGAN KO‘RSATMANI YAXSHILAB O‘QIB CHIQING, TUSHUNIB OLING!

Ko‘rsatma: Savollarni diqqat bilan o‘qib chiqing. Qaysi savol o‘zingiz haqingizda ketayotganiga ishonch hosil qilsangiz, shu savolga asosan javob varaqasiga belgi qo‘ying. Qolgan savollar bo‘yicha javob varaqasiga hech qanday belgi qo‘ymang. Savollarga shoshilmasdan ochiq oydin va to‘g‘ri javob bering. Belgilangan savollarning kam yoki ko‘pligi muhim emas. “Qancha ko‘p savollarni belgilasam, shuncha ijobiy javob olaman” degan fikr tug‘ilmasligi kerak. Har bir savol uchun ajratilgan vaqt 2 daqiqa va sizga jami 40 daqiqa vaqt beriladi. ***Marhamat boshlang!***

Savollar

1. O‘ylayotganlaringizni yaxshi bayon etib bera olasizmi?
2. Tajriba va sinovlar o‘tkazishni yaxshi ko‘rasizmi?
3. Karta yoki sxema yordamida istalgan manzilgohni qiynalmasdan topa olasizmi?
4. O‘zingizga tanish kuy ostida qo‘shiq kuylay olasizmi?
5. Arg‘imchoqda uchishni yoqtirasizmi?
6. Uyda yolg‘iz o‘tirishdan ko‘ra do‘stlaringiz bilan suhbatlashish afzalmi?
7. Hayvonlarga ozor bermay, yaxshi munosabatda bo‘lasizmi?
8. Yolg‘izlikda xayol surib yurishni yoqtirasizmi?
9. Siz adabiyotga qiziqasizmi?
10. Suratga tushirishni yoqtirasizmi?
11. Qiladigan ishlaringizni oldindan yon daftaringizga yozib qo‘yasizmi?
12. O‘zingiz yoqtirgan qo‘shiqlarni tez-tez xirgoyi qilib yurasizmi?
13. O‘zingizni kuchli va kuchsiz tomonlaringizni yaxshi bilasizmi?

14.Boshqalarning maslahatiga quloq tutmay, mustaqil qaror qabul qila olasizmi?

15.Ko‘pgina masalalarda boshqalarga maslahat bera olasizmi?

16.Psixologiya bilan qiziqasizmi?

17.Hazil mutoyibani yoqtirasizmi?

18.Rang barang bezatilgan kitoblarni yaxshi ko‘rasizmi?

19.Odamlarning xatti-harakatlarini kuzatib yurasizmi?

20.Har xil imo ishoralar va harakatlarni yaxshi eslab qolasizmi?

21.Sportga qiziqasizmi?

22.Qiynalmasdan bir guruh odamlarni boshqara olasizmi?

23.Dunyoviy muammolarga masalan ekologiyaga qiziqasizmi?

24.Sayohatga baliq oviga borishni yoqtirasizmi?

25.Har xil so‘z o‘yinlarini va topishmoqlar topishni yoqtirasizmi?

26.Narsalar bilan raqamlar orasidagi bog‘lanishni aniqlay olasizmi?

27.Yosh bolalar bilan o‘yin o‘ynashni yoqtirasizmi?

28.Yugurishdan ko‘ra futbol, voleybol, basketbol o‘ynash ma’qulmi?

29.Gullarni nomini yoddan bilasizmi?

30.Toqqa chiqishni yoqtirasizmi?

31.Tez-tez musiqa eshitib turasizmi?

32.Narsalarni buzib boshqatdan terishni yaxshi ko‘rasizmi?

33.Radio, televizordan eshitgan ma’lumotlarni yaxshi eslab qolasizmi?

34.O‘z fikringizni bayon qilganda rasm va sxemalardan foydalanasizmi?

35.Hisob-kitob ishlarini yaxshi olib borasizmi?

36.O‘yinga tushishni yaxshi ko‘rasizmi?

37.Tez-tez barmoqlaringiz yordamida musiqa chalib turasizmi?

38.Eng yaqin do‘stlaringiz bormi?

39.Hayotingiz haqida o‘ylab turasizmi?

40.O‘zingizni fermer sifatida tasavvur qila olasizmi?

41.Shaxsiy tashvishlar sizni ko‘proq qiziqtiradimi?

42. Biror narsani hal etishda do‘stlaringiz bilan maslahatlashasizmi?
43. Shaxmat o‘ynashni yoqtirasizmi?
44. Narsalarning kelajakda qanday bo‘lishini tasavvur qila olasizmi,?
45. Musiqa asbobida kuy ijro eta olasizmi?
46. Narsa haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lishingiz uchun uni ushlab ko‘rishingiz shartmi?
47. Bahslashganda o‘z fikringizni qat’iyat bilan himoya qilasizmi?
48. Yo‘lda biror kuyni xushtak orqali chalib yurasizmi?
49. Ekologiya hozirgi kunning eng asosiy muammosimi?
50. Biror jamoa guruh yoki qo‘mita tarkibida bo‘lishni xohlaysizmi?
51. Boshqalar bilmaydigan qiziqish ermagingiz bormi?
52. Narsalarning mohiyatini baholash uchun ularni turli guruhlarga ajratasizmi?
53. Siz rasmlar tomosha qilishni yoqtirasizmi?
54. So‘zlashayotganda imo-ishoralarni ko‘p ishlatasizmi?
55. Ko‘zingiz tushgan hamma yozuvlarni xatto buyumlarning etiketkalarini ham o‘qiysizmi?
56. Mantiqiy o‘yinlarni yaxshi ko‘rasizmi?
57. Tushuntirganda misollar keltirasizmi?
58. Odamning hamma a’zolari qayerda joylashganini yaxshi bilasizmi?
59. Kelishmovchilik va janjallarni hal qila olasizmi?
60. Doim biror narsani o‘rganishni o‘ylab yurasizmi?
61. Bir marta eshitgan kuyingizni eslab qolasizmi?
62. Bilimlarni tajriba va sinov orqali o‘zlashtirasizmi?
63. So‘zlashganda kitoblarni o‘qigan obrazlardan foydalanasizmi?
64. Algebradan ko‘ra geometriya sizga ko‘proq yoqadimi?
65. Kompyuter bilan ishlashni yoqtirasizmi?
66. Mashhur aktyorlarning gaplarini o‘zlariga o‘xshatib aytishni ya`ni taqlid qilishni yoqtirasizmi?
67. Hayotingizni qo‘shiqsiz tasavvur qila olasizmi?

68.To‘ylarda qatnashishni yoqtirasizmi?

69.Planetalarning nomlarini bilasizmi?

70.Kundalik yuritasizmi?

71.Uy hayvonlariga ovqat berishni yoqtirasizmi?

72.Hayotingizda biror narsaga erishish uchun hamma narsaga tayyormisiz?

73.O‘simliklarga suv qo‘yishni yoqtirasizmi?

74.Tez-tez konsertlarga borib turasizmi?

75.Yo‘lda o‘z shaxsiy muammolaringiz haqida o‘ylab yurasizmi?

76.Matematikani yaxshi ko‘rasizmi?

77.Dars paytida daftaringizga ba’zi narsalarning rasmini chizib o‘tirasizmi?

78.Juda ko‘p so‘zlarning ma’nosini bilasizmi?

79.Ovoz chiqarib fikrlashni yoqtirasizmi?

80.Odamlar qiynalganda sizdan maslahat so‘rab turishadimi?

Tafakkur

Fikriy masalalarni yechishda tasavvurning roli.

1. Kitob javoniga ikki tomlik asarlar tuplami qo‘yilgan. Birinchi tom 300 sahifalik, ikkinchisi esa 200 sahifalik. Javonda kitob qurti paydo bo‘lib kitoblarni birinchi tomining birinchi sahifasidan ikkinchi tomining oxirgi sahifasigacha yemirib tashladi. Kitob qurti kitoblarning necha sahifasini kemirgan?

2. A shahardan B shahargacha 120 km. A shahardan chiqqan poyezd soatiga 30 km tezlik bilan B shahri tomon yura boshladi. Shu vaqtda B shahardan chiqqan kapalak soatiga 60 kg tezlik bilan A shahri tomon uchib kela boshladi. Kapalak B shahardan chiqib A shahri tomon uchar ekan, A shaharidan chiqqan poyezd bilan uchrashib B shahri tomon uchib ketdi va yana B shaharidan chiqib poyezdgacha uchib kelar va B shahari tomon uchib qaytar edi.

Shu prosess A shaharidan chiqqan poyezd B shahariga yetib kelgunga qadar davom etdi. Aytingchi, kapalak necha km yo‘l bosdi?

Fikrlash prosesslarining yechim tezligiga doir topshiriq.

1. Berilgan so‘zlardagi yetishmayotgan tovushlarni topib yozing.

N-t-q	-ar-on	m-t---t--a	
-vqat	--ra-at	s-n-ak-is	
-a’sir--a-ma--ka		f-zi-lo-ik	
vo-ga		ma-sh-y	t-fa--ur
-oshkent		m-’n-si	-ayo-o-

2. Qalamning uchini qog‘ozdan uzmagan holda qanday qilib uchta to‘g‘ri chiziq orqali kvadratning to`rt nuqtasini kesib o`tib, boshlang`ich nuqtaga qaytish mumkin?

Umumlashtirish jarayonining kesishiga doir.

Sizga ma’lum qoida bo‘yicha joylashgan sonlar qatori beriladi. Sizning vazifangiz qatorning davomini bildiradigan sonni topish va uni yozishdan iborat. Har bir qator o‘ziga xos qoidaga asosan tuzilgan. Ayrim topshiriqlardan qatorning tuzilish qoidasini topish uchun, sizga ko‘paytirish, bo‘lish va boshqa amallardan foydalanishga to‘g‘ri keladi.

Misol:

2 4 6 8 10 ..

Shu qatorda har bir keyingi son oldingisidan ikkita ortiq. Shuning uchun keyingi son 12 bo‘ladi. Uni yozish kerak.

Navbatdagi misol:

9 7 10 8 11 9 12 ..

bu qatorda navbat bilan 2 ayrilib, 3 qo‘shilyapti, keyingi son 10, uni yozish kerak.

1.	**6**	**9**	**12**	**15**	**18**	**21**	**.....**
2.	**9**	**1**	**7**	**1**	**5**	**1**	**.....**
3.	**2**	**3**	**5**	**6**	**8**	**9**	**.....**
4.	**10**	**12**	**9**	**11**	**8**	**10**	**.....**
5.	**1**	**3**	**6**	**8**	**16**	**18**	**.....**
6.	**3**	**4**	**6**	**9**	**13**	**18**	**.....**
7.	**15**	**13**	**16**	**12**	**17**	**11**	**.....**
8.	**1**	**2**	**4**	**8**	**16**	**32**	**.....**
9.	**1**	**2**	**5**	**10**	**17**	**26**	**.....**
10.	**1**	**4**	**9**	**16**	**25**	**36**	**.....**
11.	**31**	**24**	**18**	**13**	**9**	**6**	**.....**

12.	**174**	**171**	**57**	**54**	**18**	**15**	**.....**
13.	**38**	**33**	**24**	**20**	**12**	**9**	**.....**
14.	**301**	**294**	**49**	**44**	**11**	**8**	**.....**

Kaliforniya universitetida taklif qilingan test

Ko‘rsatma: Diqqat bilan qo‘yidagi keltirilgan savollarni o‘qib chiqing va ularga o‘z javobingizni bering.

Hayolingizga kelgan birinchi javobni bering.

1. Professor kech soat 8da budilnikni 9-ga quyib, uyquga yotdi. U necha soat uxlaydi?
2. Erkak kishi o‘zining bevasining singlisiga uylanishi mumkinmi?
3. Avstraliyada ham 8-mart bormi?
4. Mamedning 10-ta qo‘yi bor edi. 9-dan boshqasi hammasi o‘lib qoldi. Nechta qo‘y qoldi?
5. Syon Aljirda qo‘nib o‘tadigan Gavana-Moskva reysi bilan uchadigan samolet uchuvchisisan. Uchuvchining yoshi nechada?
6. Oylar 30-31 kunlar bilan tugaydi. Qaysi oyda 28 bor?
7. Sen notanish xonaga kirib qolding. U yerda benzin va gaz bilan yonadigan chiroqlar bor ekan. Sen birinchi bo‘lib nimani yoqishing kerak?
8. Moskvadan Peterburgga va Peterburgdan Moskvaga bir vaqtda 2 poyezd yo‘lga tushdi. Peterburgga kelayotgan poyezdning tezligi 2-chisinikidan uch marta katta. Uchrashgan vaqtda ularning har biri Moskvadan qancha masofada uzoqlikda bo‘ladi?
9. Ota va o‘g‘il avto halokatga uchrashdi. Otasi shu joyning o‘zidayoq halok bo‘ldi, o‘g‘lini esa kasalxonaga yuborishdi. Operatsiya vaqtida xirurg bolani ko‘rib: Voy xudoyim-ey, bu mening o‘g‘lim-ku - deb baqirib yubordi. Shunday ham bo‘lishi mumkinmi?
10. Arxeologlar eramizdan avvalgi 35-yili chiqqan tangani topib olishdi. Shunday ham bo‘lishi mumkinmi?
11. Yog‘ochni 12 bo‘lakka bo‘lish uchun uni necha marta arralash kerak?
12. Qo‘llarda 10- ta barmoq bor, 10-ta qo`lda nechta barmoq bor?
13. Yomg‘irda quyon qanday shox tagida o‘tirishi mumkin?

14. Vrach (hakim) bemorga 30 minut oralig‘i bilan 3-ta ukol belgiladi. Bemor ularning hammasini qancha vaqt ichida olib bo‘ladi?

15. Birdan 100 gacha bo‘lgan qatorda necha 9 bor?

16. Tungi qorovul kunduzi o‘lib qoldi. Unga nafaqa to‘lanadimi?

17. 7-ta sham yonib turgan edi. 3-tasini o‘chirib qo‘yishdi. Nechta sham qoldi?

18. Ikki kiloli qadoq tosh 1 kg va yarimta g‘isht og‘irligita teng. Bitta g‘ishtning og‘irligi qancha?


19. 16 qavatli uyda bir liliput (pakana) odam yashaydi. U har kuni ertalab ishga ketayotib liftda pastga tushib, so‘ng ishga ketadi, ishdan qaytayotganda esa 10 qavatgacha liftda ko‘tarilib, u yog‘iga piyoda ketadi. U nimaga shunday qiladi?

Figuralarni qayta tiklash testi


Ushbu test mantiqiy xulosalash va ko‘rish orqali axborotlarni qayta ishlash qobiliyatini aniqlaydi.


Ushbu testda siz tarkibiy qismlar yordamida figurani fikran qayta tiklashingiz kyerak. Siz figura qismlari orqali ozmi-ko‘pmi figurani o‘xshash tarzda tiklashingiz zarur. Bu test siz uchun bir oz murakkab bo‘lishi mumkin. Uni yengilroq bajarish uchun yetarlicha tasavvurlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishingiz kerak. Deyarli barcha topshiriqlarni bajarish shu tarzda amalga oshiriladi.


Masalan:





Doira bir necha qismlarga bo‘lingan. Sizning vazifangiz doirani qayta tiklashdan iborat. Dastlab, doira diametrini teng ikki qismga ajaratishni tasavvur qiling. Yarim doiralardan birini yana uchta segmentga ajarting. Doiraning markaziy nuqtasi har bir segmentning uchi hisoblanadi.














Baholash jadvali

Ushbu jadval yordamida amaliy intellekt testi bo‘yicha intellektingiz darajasini aniqlashingiz mumkin

TATU FF 2023-2024 o‘quv yili birinchi yarim yilligida pedagogik-psixologik turkumidagi fanlar bo‘yicha III kurs talabalari bilimlarining reyting bahosi

Talaba kodi	Reyting	
	1-yarim yillik boshi	1-yarim yillik yakuni
01	6.1	6.1
02	4,5	5,2
03	8,1	8,9
04	5,6	5,8
05	5,4	5,6
06	7,3	7,4
07	9,1	9,3
08	6,4	7,0
09	6,7	6,9
10	7,1	7,2
11	7,8	8,1
12	5,9	5,9
13	6,5	6,6
14	6,1	6,0
15	4,5	4,7
16	5,8	6,3
17	5,5	5,9
18	6,2	6,1
19	7,6	8,1
20	5,3	5,9
21	6,7	6,8

2-bosqichda “Pedagogika. Psixologiya” fanida “Ta’lim mazmuni” modulini o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati

“Ta’lim mazmuni” mavzusini o‘rganish talabalarda pedagogik va psixologik tushunchalarni, atamalarni, ta’riflarni, ta’lim-tarbiya usullari va vositalari hamda ularning metodologik tavsiflarini, ta’lim vositalarini qiyoslash, amaliy xatoliklari va ularni baholash kabi masalalarni bilishini taqozo etadi. Bu esa professor-o‘qituvchidan ilmiy asoslangan ma’lumotlar, amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqishi, innovatsion pedagogik

va axborot texnologiyalarini, interfaol metodlarni o‘zlashtirishni talab qiladi.

“Dumaloq stol” metodi. Bu metod amaliy mashg‘ulot uchun qulay hisoblanadi. Bunda o‘qituvchi tomonidan bitta savol yozilgan varaq kichik guruhga taqdim etiladi. Talabalar o‘zlarining ismi-shariflari va savolga javoblarini yozib, varaqni yonidagi talabaga uzatadi. Shu tariqa yozilgan javoblar yig‘ishtirib olinib, talabalar ishtirokida noto‘g‘rilari o‘chirib chiqiladi va natijalar baholanadi.

“Qor bo‘ron” metodi. Ikkiga ajratilgan guruh talabalari bir muammo yuzasidan eng ko‘p to‘g‘ri javoblar topish maqsadida birgalikda muhokama yuritishadi. Har bir to‘g‘ri javob yumaloqlangan qor ko‘rinishida o‘sha guruh hisobiga yozib qo‘yiladi. To‘plangan umumiy ballar miqdori asosida guruhlar baholanadi.

“Asalari galasi” metodi. Muammo bitta guruhda yoki ikki kichik guruhlarda muhokama qilinadi. Bunda topshiriqlar har xil yoki butun guruhga bitta bo‘lishi mumkin. Guruhlar qo‘yilgan muammoni ma’lum muddat muhokama etib, natijani boshqalarga ma’lum qilishadi. Muammo yechimining eng yaxshi varianti tanlab olinadi.

“Sindikat” metodi. Guruh ushta kichik guruhlarga bo‘linadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtai nazardan hal etilish zarur. Masalan, uch noma’lumli uchta tenglamalar sistemasini yechish topshirig‘i berilgan bo‘lsin, u holda birinchi guruh masalani Gauss, ikkinchi guruh Kramer, uchinchi guruh matrisa usulidan foydalanib yechadi. So‘ngra yechimlar birgalikda muhokama etilib, umumlashtiriladi.

“Akvarium” metodi. Guruhdan uch talaba ajratib olinib ularga xona o‘rtasidagi stol atrofiga o‘tirishlari va qo‘yilgan muammoni o‘n minut atrofida birgalikda muhokama, qilishib fikr bildirishlari so‘raladi. Bu uch talaba akvariumdagi baliqlarga qiyos. Atrofda o‘tirgan kuzatuvchilar o‘rtadagi talabalarning fikrlarini diqqat bilan tinglab, javoblarni to‘g‘ri va noto‘g‘riga ajratib yozib borishadi hamda muhokama paytida o‘zlarining qarashlarini bayon etishadi. Yetarli darajada fikr bildira olmagan o‘rtadagi talabalar o‘z o‘rinlarini kuchli fikr bildirgan kuzatuvchi talabalarga bo‘shatib berishadi. Har bir

muammo yuzasidan bildirilgan fikrlar talabalar ishtirokida o‘qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

“Tushunchalar tahlili” metodi. Uslubning mohiyati. Ushbu uslub o‘tilgan o‘quv predmeti yoki bo‘lim barcha mavzularini talabalar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo‘yicha o‘qituvchi, tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ishida barcha talabalarni baholay olishga yo‘naltirilgan.

Uslubning qo‘llanishi: o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars oxirida, yoki o‘quv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda) o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu uslubni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo‘ladi.

	Tuchuncha	Tushunchalar mazmuni
1	Ta’lim	
2	Ta’lim metod	
3	Vosita	
4	Rivojlanish	
5	Pedagogik muammo	
6	Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar	

Jadvalni to‘ldirilgan shakli

	Tuchuncha	Tushunchalar mazmuni

1	Ta’lim	O‘quvchilarni nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish kompetensiyalarni o‘stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan jarayon
2	Ta’lim metodi	Ta’lim maqsadiga erishishning yo‘li; o‘quvchining ongi, ilmiy dunyoqarashi, kompetensiyalari, bilim, ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga ta’sir etish usullari
3	Vosita	Biror maqsadga erishish yoki biror ishni amalga oshirish uchun xizmat qiladigan narsa, omil
4	Rivojlanish	Shaxsning fiziologik va intellektual o‘sishida namoyon bo‘ladigan miqdor va sifat o‘zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon
5	Pedagogik muammo	Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma’lum bo‘lgan pedagogik xarakterdagi masala
6	Ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar	Shaxsda ma’naviy-axloqiy sifatlar, e’tiqod, dunyoqarashni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuyg‘usi, irodasiga ta’sir ko‘rsatish usullari

Baholash

to‘g‘ri javoblar 6 ta bo‘lsa – “a’lo”

to‘g‘ri javoblar 4-5 ta – “yaxshi”

to‘g‘ri javoblar 3 ta – “qoniqarli”

to‘g‘ri javoblar 2-1 ta – “qoniqarsiz”

“Bilaman. Bilib oldim. Bilishni xohlayman” metodi. Dars boshlanishidan avval auditoriyada partalar moslashtiriladi. Talabalar beshta guruhga bo‘linadilar va guruhlar nomlanadi. Yozuv taxtasi uch qismga ajratiladi. Birinchi bandning yuqori qismiga “Bilaman”, ikkinchi bandning yuqori qismiga “Bilishni xohlayman”, uchinchi bandning

yuqori qismiga esa “Bilib oldim” degan so‘zlar yoziladi.

So‘ngra o‘qituvchi talabalardan mavzu yuzasidan qanday ma’lumotlarga ega ekanliklarini so‘raydi va bildirilgan fikrlarni “Bilaman” nomli bandga yozib qo‘yadi. Ushbu harakat guruhlar tomonidan fikrlar to‘la bayon etilganga qadar davom etadi. Mazkur jarayonda guruhlarning barcha a’zolari faol ishtirok etishlariga ahamiyat berish zarur. Talabalar tomonidan bildirilayotgan noto‘g‘ri fikrlar ham inkor etilmasligi zarur (zero bunday harakat talabalarning faolligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi).

O‘qituvchi talabalardan yangi mavzu bo‘yicha qanday ma’lumotlarni o‘zlashtirish istagida ekanliklarini so‘raydi va talabalarni yana o‘ylashga da’vat etadi. Guruhlardan navbati bilan fikr so‘raladi. Talabalar tomonidan bildirilgan fikrlar “Bilishni xohlayman” nomli ustunga yozib boriladi.

Keyingi bosqichda talabalarga mavzuga oid matnlar tarqatiladi. Ushbu matn mavzu bo‘yicha eng asosiy tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Talabalar matn bilan tanishib chiqqandan so‘ng, fikr yuritishlari hamda mavzuga oid yana qanday ma’lumotlarni o‘zlashtirganliklarini aniqlashlari kerak.

Talabalar o‘z xulosalari asosida fikrlarini bayon etadilar, ushbu fikrlar “Bilib oldim” nomli ustunga yozib boriladi.

Har bir guruhdagi faol talaba darsning asosiy qismini puxta o‘zlashtirib “Mutaxassis”ga aylanadi. Dars oxirida har bir kichik guruhdagi «Mutaxassis»lar boshqa kichik guruhga o‘tib o‘qitishi tashkil etiladi. Talabalar bilimi test savollari yordamida individual tarzda o‘tkazilib nazorat qilinadi va baholanadi. Guruh a’zolarining ballari jamlanadi, eng yuqori ball to‘plagan guruh g‘olib sanaladi. Namuna sifatida quyidagi jadvalni keltiramiz:

“BBB” metodi jadvali

Savol	**Bilaman**	**Bilishni xohlayman**	**Bilib oldim**
Ta’lim jarayoni nima?			
Uzluksiz ta’lim jarayoni turlarini tuchuntiring?			

Ta’lim usullari va ulardan foydalanish jarayonini aytib bering?			
Ta’limning tashkiliy shakllarini ayting?			

“Ta’lim jarayoni” mavzusini o‘rganish talabalarda pedagogik va psixologik tushunchalarni, atamalarni, ta’riflarni, ta’lim-tarbiya usullari va vositalari hamda ularning metodologik tavsiflarini, ta’lim vositalarini qiyoslash, amaliy xatoliklari va ularni baholash kabi masalalarni bilishini taqozo etadi. Bu esa professor-o‘qituvchidan ilmiy asoslangan ma’lumotlar, amaliy qo‘llanmalar ishlab chiqishi, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishni talab qiladi.

3-bosqichda “Pedagogika. Psixologiya” fanidan ta’lim texnologiyalari “Keys-texnologiyasi” mavzusi bo‘yicha keyslar to‘plami

Keys – biror tashkilotdagi qandaydir aniq real vaziyatning yozma tavsifidir. Undan foydalanish mobaynida talabalardan vaziyatni tahlil qilish, muammoning mohiyatini ko‘rib chiqish, mumkin bo‘lgan variantlarni taklif etish va ulardan eng maqbulini tanlash so‘raladi.

Keys-uslubi oliy ta’lim muassasalari uchun o‘qitishning innovatsion uslubi hisoblanib, predmetning barcha xususiyatlarini hisobga oladi va talabalarda zarur bilim, ko‘nikma va malaka shakllantirish imkoniyati mavjud. Keysning masala va mashqlar bilan bir qator o‘xshashligi mavjud. Masala va mashqlardan farqli o‘laroq, keysda yechim birgina emas balki, ko‘p variantda bo‘lishi bilan birga, o‘quvchilarga bir qator amaliy ko‘nikmalar olishga yordam beradi, tuzilishga ega bo‘lmagan murakkab muammolarni yechishga o‘rgatadi.

Keyslar yangi materialni, nazariyani, ma’ruzalarni o‘rganishni almashtiradi deb o‘ylash kerak emas. Ularni tayyorlash va ajratish uslubi anchagina vaqt talab etadi. Lekin, keyslar nazariyani amaliyotda qanday foydalanishni namoyish etadi.

Shularni e’tiborga olib, asosiy e’tibor pedagogika va psixologiyaga

oid predmetlarni o‘qitish jarayonida keys uslubni qo‘llagan holda o‘quvchilarning faolligini faollashtirish va ularning kompetensiyasini baholashga qaratilgan. Zamonaviy ta’limda kasbiy o‘qitishga qaratilgan yondashuvlarni o‘zgartirish, jumladan, talabalarni faoliyatini rag‘batlantiruvchi, ularning ijodiy fikrlashlarini rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir

1-keys. XXI asr boshida Rossiya aholisining 3/2 qismi qashshoqlikda yashagan. Shunisi qiziqki, BMT olib borgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra dunyo boyliklarining 50 % Rossiyada joylashgan. Qolaversa, Rossiya – ziyolilar yurti bo‘lib, butun jahonda oliy va o‘rta texnik ma’lumotli mutaxassislar bo‘yicha oldingi o‘rinlardan birini egallagan (G. “Argumenti i fakti”).

Savollar:

1. Muammo nimadan iborat?

2. Mazkur muammoni yechishda hukumat qanday ishlar olib bormoqda?

3. Siz bu muammoga qanday yechimlar taklif qilasiz?



Manba: shaxs imkoniyatlari va ulardan to‘g‘ri foydalanishga doir adabiyotlar.

Talabalar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.

2. Muammoning yeshimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.

5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kishik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kishik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kishik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

1-omil: Rossiya aholisining aksariyati o‘z ichki imkoniyatlarini to‘g‘ri yo‘naltira olmagan.

2-omil: jamiyat taraqqiyoti moddiy boyliklarning ko‘pligi emas, balki ulardan oqilona foydalana olishga imkon beradigan inson salohiyati, qobiliyati va uning ijtimoiy faolligi asosida ta’minlanadi.

Muammo mavjudligining sababi har bir shaxs ham o‘zi ega bo‘lgan nazariy bilimlarni amaliyotga samarali tatbiq eta olmaydi. Yoki o‘z bilimlarini amalda qo‘llash borasida yetarli darajada faollik ko‘rsata olmaydi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga e’tibor qaratishni taqozo etadi.

2-keys. Pedagogik kengash yig‘ilishida maktab direktori o‘qituvchilarning e’tiborlariga quyidagi ma’lumotni aytib o‘tdi: 6 nafar ota-ona tomonidan farzandini ingliz tili chuqurlashtirilib o‘tiladigan 5-sinfga qabul qilinishi so‘ralgan ariza berildi. Sinfga faqatgina bir nafar o‘quvchini qabul qilish imkoniyati bor. Sizlar qanday fikrdasizlar, kimni qabul qilamiz?

Ariza bergan o‘quvchilarning ijtimoiy ahvoli va tabaqalashtirilgan sinfga qabul qilinishni asoslovshi holatlari:

1-o‘quvchi: boshqa tumanda istiqomat qiladi, maktab yonida uning buvisi yashaydi, qolaversa, u tabiiy fanlardan a’lo baholarga o‘qiydi.

2-o‘quvshi: maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, uning mahalladagi barcha do‘stlari ana shu sinfda ta’lim olishganligi sababli shu maktabga o‘tishga qaror qilgan.

3-o‘quvshi: boshqa shahardan kelgan, uning ota-onasi diplomat, shu sababli o‘quvchi ingliz tilini mukammal biladi, qolaversa, 3 oydan so‘ng ular boshqa davlatga ko‘chib ketadi.

4-o‘quvshi: ikkinshi yilga qolgan, 4 fanni “qoniqarsiz” bahoga o‘zlashtiradi, qolaversa, ichki ishlar bo‘limda ro‘yxatda turadi, biroq, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

5-o‘quvshi: qishloqdan ko‘shib kelgan, u yerdaga maktabda esa ingliz tili o‘qitilmagan, maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi, ko‘p vaqtini bekor o‘tkazadi.

6-o‘quvchi: bolalikdan 2-guruh nogironi, bolalar syelebral paralichi (BSP) tashxisiga ega, fanlarni “4” va “5” baholarga o‘zlashtiradi, yolg‘iz onaning qo‘lida tarbiyalanadi, shu bilan birga maktab joylashgan hududda istiqomat qiladi.

Sizningcha, ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga qaysi o‘quvchi qabul qilinadi?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘rsida”gi Qonuni.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash to‘g‘risida”gi Qonuni.

Ta’lim muassasalarining “Tabaqalashtirilgan ta’limni tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizomi.

Talabalar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.

5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kishik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kishik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kishik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Fuqarolarni ijtimoiy muhofazalash to‘g‘risida”gi Qonunlarida bayon etilgan me’yoriy talablarga muvofiq ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan sinfga bolalikdan ikkinchi guruh nogironi bo‘lgan o‘quvchi qabul qilinadi.

3-keys. Bir kuni algebra darsida, - deb o‘quvchi qiz hikoya qiladi, - men darsga quloq solmay, hech narsaga e’tibor qilmay, kitob o‘qib o‘tirgan edim. Birdan o‘qituvchi meni doskaning oldiga chaqirdi. Men buni eshitmadim, ammo orqa partada o‘tirgan sinfdoshlarim mening yelkamga niqtay boshlashdi. Avval bundan jahlim chiqdim va hech narsaga tushunmay atrofga alanglab qaray boshladim. Butun sinf o‘quvchilari mening ustimdan kulishdi. O‘qituvchi: “Nima bo‘ldi?”, deb so‘radi. Men xotirjam holda “Bilmadim” dedim va doskaning oldiga chiqdim. O‘qituvchining savollari juda yaxshi javob berdim va joyimga o‘tirdim. O‘qituvchi esa men u to‘g‘risida sinfdoshlarimga nimadir deganligim uchun ular kulishdi, deb o‘ylagan bo‘lsa kerak, o‘sha kundan boshlab menga g‘alati qaraydigan bo‘ldi. Men ham bolalar nima uchun kulishganligini o‘qituvchiga ochiq ayta olmadim va o‘qituvchidan

qochib yuradigan bo‘ldim. Bu holat deyarli bir yil davom etdi. Men algebra fani asoslarini puxta o‘zlashtirdim, biroq, bu fandan bo‘ladigan darslarga borish men uchun azob bo‘ldi”.



Savollar:

1. O‘qituvchining pedagogik xatosi nimada edi?
2. Bu vaziyatda o‘qituvchi qanday yo‘l tutishi zarur?
3.

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

Pedagogik faoliyat, ta’limni tashkil etish va yosh xususiyatlariga oid manbalar.

Talabalar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.
2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.
3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq daxldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.
4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga uring.
5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.
2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.
3. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq daxldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kishik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

1. O‘qituvchining pedagogik xatosi vaziyatni to‘g‘ri baholay olmaganligida. Avvalo, yumor yordamida vaziyatni aniqlashtirib olishi zarur edi.

2. Bu vaziyatda o‘qituvchi o‘quvchilarning kulgusini bartaraf etish uchun insonning diqqati bir obyektdan ikkinchi obyektga tez ko‘chishini, fikrlash tezligi esa optik tezlikka nisbatan sust ekanligini, shu sababli miya tomonidan axborotlarni qabul qilishda ba’zan noqulay holatlar ro‘y berishi mumkinligini tushuntirib o‘tishi, nima uchun kulgu ko‘tarilganligining sababini esa tanaffusda o‘quvchi bilan muloqotni tashkil etgan holda aniqlab olishi mumkin edi.

4-keys. Pedagogika bo‘yicha yaratilgan adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, ularda “ta’lim jarayoni” tushunchalarining mohiyati turlicha yoritilgan.

Ta’lim jarayoni – bu:

1. O‘quvchilarga bilimlarni berib, ularda ko‘nikma, malakalarni berish orqali u yoki bu darajada ularning o‘zlashtirilishini ta’minlash (o‘qitish)ga qaratilgan faoliyat.

2. O‘quvchilar tomonidan BKMning o‘zlashtirilishi (o‘qishi)ni ta’minlovchi jarayonini boshqarishga yo‘naltirilgan o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyati (chunki o‘qitish va o‘qitish – ta’limning o‘zaro aloqador va o‘zaro shartlangan tomonlaridir).

3. O‘qituvchining o‘quvchilar tomonidan BKMni ongli va puxta o‘zlashtirilichiga yo‘naltirilib, bu jarayonda bilimlarning mustahkamlanishi, aqliy va jismoniy mehnat madaniyati elementlarini o‘zlashtirish, dunyoqarashni boyitish va o‘quvchilar xulq-atvorining shakllanishini ta’minlovchi rahbarligi va harakatlarining izchilligi.

4. O‘quvchilarning o‘qituvchi rahbarligida BKMni o‘zlashtirish, kompetensiyalarni rivojlantirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga qaratilgan faol bilish faoliyati.

Savollar:

1. Ulardan qaysi biri ta’lim jarayonining mohiyatini to‘la yoritadi?

2. Fikringizni qanday asoslaysiz?

Talabalarga tavsiya etiladigan manbalar:

“Pedagogika” faniga oid bir necha manbalar.

Talabalar uchun ko‘rsatmalar:

1. Keys mohiyatini yetarlicha anglab oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq daxldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining.

5. Yechimni bayon eting.

Keysni yechish jarayoni:

1. Talabalar keys mohiyatini u bilan ikki-uch marta tanishish orqali, sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kishik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba sherigi (juftlikda), guruhdoshlari (kichik guruhlarda) yoki jamoadoshlari (jamoada) bilan muhokama qilgan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlaydi.

3. Talaba (juftlik, kishik guruh, jamoa) aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko‘proq dahldor bo‘lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajratib oladi.

4. Talaba (juftlik, kichik guruh, jamoa) yechimni ajratib olingan omil (ikkita omil) asosida bayon etadi.

5. Yechim individual, kichik guruhlar yoki jamoa ishtirokida muhokama qilinadi.

O‘qituvchining yechimi

1. O‘z mohiyatiga ko‘ra barcha ta’riflar ham ta’lim jarayonining mohiyatini yoritishga xizmat qiladi. Biroq, har bir fan har bir kategoriya bo‘yicha o‘zining aniq terminologiyasiga ega bo‘lishi, tushunchalar voqea, hodisa yoki jarayonning umumiy tavsifini, obyekt va predmetlarga xos muhim belgilarni yoritishga xizmat qilishi zarur.

2. Keltirilgan ta’riflar asosiy tegishli jarayonga xos umumiy tavsiflar negizida tushunchani quyidagicha sharhlash maqsadga muvofiq: Ta’lim jarayoni – o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tashkil etilgan holda ilmiy bilim, ularni amaliyotda qo‘llash ko‘nikma, malakalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon

.

3-bosqichda “Pedagogika va psixologiya” fanidan “Ta’lim jarayoni” moduli bo‘yicha nostandart testlardan foydalanish. Nostandart test topshiriqlari


1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining maqsadi va vazifalarini ko‘rsating:

Fuqarolarga ta’lim, tarbiya berishning huquqiy asoslarini belgilaydi	Ta’lim sohasini tubdan isloh qilish vazifasini bajaradi	Kasb-hunarga o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi	O‘tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to‘la xalos etish vazifasini bajaradi	Har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlaydi	Yuksak ma’naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlach vazifasini bajaradi
A	**B**	**S**	**D**	**Ye**	**G**


Javobi: **A,S,Ye**

2. O‘zbekiston ta’lim tizimi turlarini tartib bilan kataklarga ketma-ketlikda joylashtiring.

1. O‘rta maxsus, kasb hunar ta’limi
2. Oliy ta’lim (bakalavriat, magistratura)
3. Maktabgasha ta’lim
4. Maktabdan tashqari ta’lim
5. Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta’limi
6. Umumiy o‘rta ta’lim
7. Oliy ta’limdan keyingi ta’lim



Javobi:



3. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturini amalga oshirish bosqichlarini belgilang:

1998-2000 y.y.	1996-1998 y.y.	1997-2001 y.y	2001-2005 y.y.	2004-2006 y.y.	2005 y va undan keyingi yillar
A	**B**	**S**	**D**	**Ye**	**G**

Javobi: S,D,G

4. Quyidagilardan qaysi biri Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturining tarkibiy qismi sanalmaydi?

A	**V**	**S**	**D**	**Ye**	**F**	**G**	**H**
Fan	Ishlab shiqarish	Ijtimoiy tarbiya	Davlat	Uzluksiz ta’lim	Jamiyat	Umumiy o‘rta ta’lim	Ijtimoiy institutlar

Javobi: S,G,H

5. Nuqtalar o‘rniga Kadrlar tayyorlash Milliy modelining asosiy, tarkibiy qismlarini qo‘ying va ularni ta’riflari bilan juftlang.

1) Kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim

sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchidir

2) Ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatni tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir

3) Malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlarini kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi

4) Yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo‘lib, yana shuningdek, ta’lim standartlari, dasturlari, darsliklar va qo‘llanmalar tayyorlashda bevosita va bilvosita ishtirok etadi

5) Kadrlarga bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojni, shuningdek, ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo‘yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliyaviy va moddiy texnika jihatdan ta’minlash jarayonining qatnashchisi

Javobi:

1.	**Shaxs**	**A**	Kadrlar tayyorlash tizimining bosh subyekti va obyekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarning iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchidir
2.	**Davlat va jamiyat**	**B**	Ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatni tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlarni tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillaridir
3.	**Uzluksiz ta’lim**	**S**	Malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo‘lib, ta’limning barcha turlari, davlat ta’lim standartlarini kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko‘rsatish muhitini o‘z ichiga oladi
4.	**Fan**	**D**	Yuqori malakali mutaxassisni tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchi bo‘lib, yana shuningdek, ta’lim standartlari, dasturlari, darsliklar va qo‘llanmalar tayyorlashda bevosita va bilvosita ishtirok etadi
